

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

SAN‘AT FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

fakultet dekani

_____ p.f.n.K.M.Gulyamov

_____ 2014 yil

5140900 – Kasb ta‘limi (5211200 – Amaliy san‘at) ta‘lim yo‘nalishi
AS-401 guruh talabasi Ruzimov Xamdani Reyimberdievichning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU : KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA SOVG‘A BUYUMLARINI
MINIATYURA KOMPOZITSIYASI BILAN BEZASH**

_____ talaba: X. Ruzimov

Ilmiy rahbar: Amaliy san‘at va uni
o‘qitish metodikasi” kafedrasida dots.v/b.

_____ P.P. Shabaratov

_____ Taqrizchi: p.f.n, dots.N.X.Tolipov

«Ximoyaga tavsiya etilsin»

«Amaliy san‘at va uni o‘qitish
metodikasi» kafedrasida mudiri

p.f.d., prof. _____ S.S.Bulatov

«___» _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB. MINIATYURA KOMPOZITSIYA ASOSLARI.	
1.1. Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida kompozitsiya asoslarini o'qchilarga o'rgatish orqali dars samaradorligini oshirish.....	6
1.2. Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida rangshunoslik haqida ma'lumotlarni o'qchilarga o'rgatish.....	15
II. BOB. SHARQ MINIATYURA MAKTABLARI VA UNING NAMOYONDALARI.	
2.1. Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida Xirot miniatyura maktabi va Behzod ijodi haqida ma'lumotlar berish.....	23
2.2. Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash metodikasi.....	50
III. BOB. SOVG'A BUYUMLARI: TO'R, TOMOSHA QOVOQ VA QUTICHALARNI BADIY BEZASH.	
3.1. Kasb-hunar kollejlarda sovg'a buyumlarini miniatyura kompozitsiyasi bilan bezash texnologiyasi.....	63
3.2. Kasb-hunar kollejlarda sovg'a buyumlarini miniatyura kompozitsiyasi bilan bezash mavzui bo'yicha tajriba sinov ishlari.....	70
Xulosa.....	88
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat	90

Ilovalar:

KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri bu jarayonlarga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lib, respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu masalada “... bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan Internet tizimini keng joriy etish, yoshlarimizni O‘zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o‘zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi doimo e’tiborimiz markazida turishi lozim”ligini ta’kidlaydi.¹

Bunday vazifalarni amalga oshirish kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga oshirishning bosqichlarida belgilab berilgan bo‘lib, uning kelajakdagi istiqboli Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berildi. Modelni amaliyotga tatbiq etish o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko‘p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta’lim sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida “o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlash“ zaruriyati e’tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Nima uchun bugungi kunda ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati paydo bo‘ldi? Birinchidan, o‘qituvchini o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligini ta’kidlash mumkin.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, Shuningdek talabalarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ta’lim sohasida

¹ “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni

ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayonini metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo'lib qoladi. Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishda, hamda yosh avlodni yuqori saviyada tayyorlashni ta'minlash maqsadida milliy qadriyatlar singdirilgan fanlar bo'yicha elektron o'quv-uslubiy majmuasi yaratish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar qatoriga qiritilgan. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo'ymoqda. Shuning uchun milliy istiqloq g'oyasiga sodiq, etarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va muShohiada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi elektron o'quv-uslubiy majmualarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli talablariga mos keladigan hamda Davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»ning asosiy vazifalaridan elektron o'quv-uslubiy majmualarining yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, psixologik-pedagogik va metodik talablarni ishlab chiqish, elektron o'quv-metodik majmualaridan to'g'ri va ratsional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz miqyosida

zamonaviy elektron o'quv-metodik majmualarini tayyorlash bo'yicha strategik masalalar ko'lamini aniqlash belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Kasb-hunar kollejlarda sovg'a buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash metodikasini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: Kasb-hunar kollejlarda amaliy san'at mashg'ulotlarini tashkil etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Kasb-hunar kollejlarda amaliy san'at mashg'ulotlari mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- miniatyura kompozitsiya asoslariga bo'lgan qishlarini aniqlash;
- kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida kompozitsiya asoslarini o'qvchilarga o'rgatish orqali dars samaradorligini oshirish.
- kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida rangshunoslik haqida ma'lumotlarni o'qvchilarga o'rgatish.
- sharq miniatyura maktablari haqida ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;
- kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida Xirotda miniatyura maktabi va Behzod ijodi haqida ma'lumotlar berish.
- kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash metodikasini o'rgatish.
- sovg'a buyumlari: to'r, tomosha qovoq va qutichalarni badiiy bezash metodikasini ishlab chiqish.
- kasb-hunar kollejlarda sovg'a buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash texnologiyasi.
- kasb-hunar kollejlarda sovg'a buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash mavzui bo'yicha tajriba sinov ishlarini o'tkazish.

I. BOB MINIATYURA KOMPOZITSIYA ASOSLARI.

1.1. Kasb-hunar kollejarining miniatyura darslarida kompozitsiya asoslarini o'qovchilarga o'rgatish orqali dars samaradorligini oshirish.

Kompozitsiya so'zi lotincha "composito" so'zidan olingan bo'lib, tuzish, birlashtirish, bog'lash, turli xil elementlarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g'oyani madh etish ma'nosini bildiradi. Kompozitsiya – san'atning barcha yo'nalishida qo'llaniladi. Dizayn va amaliy san'atda u loyihalash deb ataladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san'at asarini yaratadi. Bunday xolni biz boshqa san'at turlarida ham ko'rishimiz mumkin. Sportda shaxmat doskalarini olsak 64 katakdan iborat. Uning donalari oq va qora, 32 donalarini bir-biriga nisbatan ma'lum tartibda joylashtirib ajoyib o'yin kompozitsiyalarini yaratish mumkin. Musiqa san'atida 7 nota mavjud bo'lib, notalarni ma'lum tartibda joylashtirib ajoyib kuylar yaratish mumkin.

Adabiyotda so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy so'zlarni bir shoda marvarid singari ipga terib butun insoniyatni lol qoldiradigan dostonlar, g'azallarni mohirona tasvirlab bergan.

Shunga o'xshagan misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Kompozitsiyalar yaratish uchun albatta, kompanovkaga, simmetriya va assimetriyaga, ritm, stilizatsiya, dinamika, markazni topishi, shakllarni to'g'ri, teng taqsimlashga, yorug'liklarni nur va soyaga, rangshunoslik qonun va qoidaga to'liq rioya qilish lozim.¹

Miniatyura kompozitsiyalarida kompanovka.

Joylashtirish (kompanovka) – chizish kerak bo'lgan shakl yoki biror tasvirni yoki biror yuzaga to'g'ri joylashtirishdir. Kompanovka barcha mutaxassislik va soxalar uchun katta ahamiyatga ega. Miniatyura rassomi o'zi chizmoqchi bo'lgan kompozitsiyani yuzaga to'g'ri joylashtirish kerak. Ganch o'ymakor o'yilishi kerak bo'lgan naqshni devor yuzasiga to'g'ri joylashtirishi uning ish sifatiga katta ta'sir etadi. Zardo'z tikilishi kerak bo'lgan naqsh kompozitsiyasini mato yuziga to'g'ri joylashtirish uning hunarini yanada nafisroq ko'rsatadi.

¹ Shabaratov P.P. Lakli miniatyura "Kompozitsiya" T: "Yangi asr avlodi" 2007

Miniatyura kompozitsiyalarida simmetriya va assimetriya.

Simmetriya – grekcha soʻz boʻlib oʻlchovlarning bir-biriga munosibligini bildiradi. Bir-biriga simmetrik oʻlchovlarni misol keltiradigan boʻlsak tarozi pallasi ham bir-biriga simmetrik joylashgan. Meʼmorlikda binolar qurilishida ham, darvoza bezaklarida ham haykaltaroshlikda kulolchilikda, zargarlikda, zarduzlikda, Miniatyurada, ganchkorlikda umuman sanʼatning barcha turida simmetriyaga bir qancha misollar keltirish mumkin. Uy bekalari dasturxon bezashda xontaxta ustiga qoʻyiladigan noz-neʼmatlarni joylashtirishda ham simmetriyaga – amal qilish kerak boʻladi.

Assimetriya – kompozitsiyalarga muvozanatli engil shaklni manzaraviy yassilik qirgʻogʻiga yaqinlashtirish orqali erishiladi. Tik kompozitsiyalarda uning muvozanatini taʼminlash uchun bosh shakl markaziy oʻqqa joylashtiriladi. Qismlarni joylashtirishda tik kompozitsiyada Shuni eʼtiborda tutish lozimki, uning koʻzga tashlanuvchi markazi geometrik markazdan baland turishi kerak. Shuning uchun kompozitsiyaga tuzatish kiritilib, asosiy shakl yuqoriga suriladi. Diogonal asosda qurilgan kompozitsiya joʻshqirlik taʼsurotini bersada, u juda muhimdir.

Miniatyura kompozitsiyalarida metr va marom (ritm)

Metr va marom (ritm) – naqsh elementlarini maʼlum masofada bir tekis takrorlanib kelishi boʻlib, naqshdagi harakatlarning uzluksiz va zal koʻrinishini taʼminlaydi. Ritm xususida gap yuritiladigan boʻlsa tabiatda uchraydigan ritm haqida misol keltirsak. Insonning bir maromda yurak urishi, nafas olishi, tabiatda bahor faslida shoxlardagi kurtaklarning bir xil masofada joylashishi. Bu ham oʻziga xos ritm hisoblanadi. Osmonda

turnalarni uchishini kuzatsak ular ham bir-birlaridan bir xil masofada uchishadi. Ritm tabiat qonuni desak adashmaymiz. Ritm adabiyotda, sanʼatda va amaliy sanʼatda, hunarmandchilik va soxaning barcha turlarida misollar keltirishimiz mumkin.

Miniatyura kompozitsiyalarida stilizatsiya

Stilizatsiya tabiatdagi oʻsimlik, hayvonot va boshqa narsalarning tasviri, rangi, shakli, va tuzilishi badiiy usulda umumlashtirish yaʼniy ramziylashtirish.

Har qanday miniatyurachi rassom va naqqosh kompozitsiya elementlari va naqshlar chizishda o'simliklardan shox, poya, g'uncha, barg, gul, hayvonlar, qushlar, tabiat manzalari, tog'lar, daryo-anhorlar, quyosh, yulduzlar va boshqa ko'rinishlardan nusxalar ko'chirib, tasviri, rangi, shakli, va tuzilishlarini badiiy usulda umumlashtirib, ramziylashtiradi. Miniatura kompozitsiyalarida ulardan oqilona foydalanib juda ajoyib tasvirlarni hosil qiladi. Buni ko'rgan inson aks ettirilgan shakldan zavq oladi. Bu usuldagi tasvirlarni biz xalq amaliy san'atining barcha turlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan so'zanani oladigan bo'lsak falakning o'rtasida quyosh, atrofida sayyora va yulduzlar, gullar barglar uslublashtirilgan xolda kishiga zavq beradi.

Miniatura kompozitsiyalarida shakllarni teng qismlarga bo'lish

Shakllarni teng qismlarga bo'lish xuddi markaz topish kabi katta ahamiyatga egadir. Chunki shakllarni to'g'ri qilib teng qismlarga bo'linsa kompozitsiyadagi simmetriya, ritm buzilmay shakl nafis bir tekis harakatda chiroyli chiqadi. Bundan tashqari chizilayotgan naqsh yoki shaklni bir qismi chizilib qolgan qismiga esa nusxa ko'chirish orqali chiziladi.

Miniatura kompozitsiyasida kompozitsiyada yorug'lik nur va soya

Kompozitsiyada yorug'lik mavzusini yoritishda o'qituvchi eng avval yorug'lik manbalari haqida ma'lumot berib, tabiiy va sun'iy yorug'lik haqida quyosh va turli xil yoritish anjomlari haqida gapirish kerak. Chunki kompozitsiyaning nafis va chiroyli ko'rinishda yorug'likning ahamiyatini ta'shuvchi kerak. Kaqiqatdan chuqurroq fikr yuritsak, naqsh, ganch, o'ymakorlik popochilik, libos, mebel loyihalash, kulolchilik, yog'och o'ymakorlik san'at namunalari ko'rgazmalarini namoyish etishda yorug'lik va yoritish anjomlarining ahamiyati benihoya kattaligini ko'rish mumkin. Shu o'rinda teleko'rsatuvlar tayyorlashda chiroq ustasining mehnatini aytib o'tish joiz bo'ladi. Tasviriy san'at yoki grafika asari namunasi chizilayotganda namunani yoritish, yorug'lik qaysi tomondan qanday miqdorda yorug'lik tushishining ahamiyatini o'quvchilarga ta'shuvchi kerak bo'ladi, faqat bo'gina emas balki san'at asari ko'rgazmasida ham yorug'likka ahamiyat berish kerak. Masalan yuksak did bilan o'yilgan ganch o'yimasiga yorug'likni keraksiz joydan ta'shuvchi uni ko'rgan kishi qo'rqib ketadi,

yoki kishi yuziga yorug‘likni daxaning pastki qismidan tuShunsak qanday qiyofa ko‘rinishini ko‘pchilik kuzatgan bo‘lsa kerak, kompozitsiyada soya to‘g‘risida gapirish uchun nurni bilib oldik. Chunki nur va soya doyim birgadir. Nur borki soya bor deyiladi. Shu erda o‘quvchilarning qiziqishini oshirish maqsadida ularga «nimaning soyasi yo‘q» deb topishmoq berish o‘rinlidir. Bu bilan o‘quvchilarning faolligi oshadi.

Barcha mutaxassisliklarda soyani to‘g‘ri ko‘rsatish bu hunarlarning nozik tomoni hisoblanadi. CHunonchi, rang va qalam tasvirda soyaning aniq va to‘g‘ri ko‘rsatilishi rasmning tabiiy jozibali ko‘rsatadi.

Miniatyura kompozitsiyasida mutanosiblik (proporsiya)

Badiiy konstruksiyalashda keng atroflilik va mutanosiblik uslublarining qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni yagona va yaxlitlikka jamlash belgilar muqobilligi tomon balandlikg‘ bilan bog‘liq bo‘ladi. Belgilar jussasi va shaklning mutanosibligi jismning sifat tomonlari, uning qimmatini belgilovchi vazifalarini ifodalashi mumkin.¹

Masalan, mashinkalash uchun muljallangan qog‘ozning hajmi va mutanosibligi 30x20 sm. Talabalarga monand, eng muhim tanlov natijasida shakllangan. Birinchidan, bunday hajmdagi varaq aniq ko‘rinish maydonidadir. Ikkinchidan unda Shunday matn hajmi joylashadiki, u yozishmalarning odatiy tus olgan shakllarini jamlashga mo‘ljallangan. Uchinchidan, qog‘ozning yuqoriga qaratilgan qismi mashinkalashning davomiyligiga mos keladi. Bundan tashqari qog‘ozning tuzilishi o‘qish vaolib qo‘yish uchun qulay va papka-portfellarda tashishga moslashtirilgan. Aytish mumkinki, uning hajm mutanosibligi yaxshi o‘ylab topilgan bo‘lib, unga o‘rganib qolganmiz. Bundan Shunday xulosa qilish mumkinki, asbob yoki mahsulot vazifasi ma’lum bir matematika munosabatlarda ko‘rinadi, u mutanosib qurilmada aks etib, ma’lum bir estetik ta’sir vositasiga egadir. Shuning uchun mutanosiblik shakllarini uning mazimunidan ajratish mumkin emas g‘jism yoki narsalarni o‘zaro belgisig‘. Buyumning biror o‘lchami – umum tizimining tarkibiy qismi yoki monandligini shakllanish shartlariga binoan yuzaga keladi, hamda turlichasodda ratsional va mutanosib munosabatlarni

¹ Shabaratov P.P. Lakli miniatyura“Kompozitsiya” T: “Yangi asr avlodi” 2007

qamraydi. Mutanosiblikni solishtirish chogʻida koʻzimizda oʻz nigohiy harakati bilan uch oʻqli oʻlchamni ilgʻaydi. Solishtirishning bu koʻrinishida buyum qismining faqat shakl va ulugʻvorligini ilgʻamay, ularning matematik bogʻlikligini, moddalarning vaqtli farqi aniqlanadi. Koʻp qismli shakllarning mutanosib qurilish tarkibini oʻzlashtirar ekanmiz, koʻzimiz bir vaqtning oʻzida shakllar turlichaligini, maʼlum birgalikda ularning joylanishi, fanlarning kelib chiqish tizimi, farqni vaqt jihatidan belgilarining davomiyligini, uning birgalikda joylashish aniqligini, narsa xususiyatidan chiqishini oʻrganadi. Shunga binoan inson narsa buyumlarning ishlatilish farqini anglaydi. Buyumlarning murakkablik shakllariga koʻra ularning koʻrinishini baholash chogʻida har tomonlama xulosalanib yoki ayrim xususiyatlariga koʻra foydalaniladi. Oddiy shakllarning soyasini anglaganimizda, masalan, toʻgʻri turtburchakli yoki toʻgʻri burchakli yoki ularga yaqinroq shakl solishtirilganda, ularning farqlari, munosabati, quyidagicha yuzaga keladi.

shakllarning chegaralari uning umum koʻrinish meʼzoni munosabatini eslash hisobiga qabul qilinadi. Shakl hajmi boshqa belgiga yoki qogʻozga munosabatiga eʼtiboran oʻrnatiladi. Sodda munosabati va tomonlarning munosabati oʻrnatiladi, ularning kattaligi va rivojlanishi ikki oʻqlariga koʻra oʻlchanadi. Bir xil yoki yaqin belgilar topiladi, tomonlar yoki qirralar.

Buyumning hamma tomonlarining tenglik munosabatiga koʻra belgilanib shular natijasida yuzaga kelgan chizma tasvir konturga koʻra metr yoki maromi tabiiyki qabul qilish jarayoni shu jihatlarga koʻra davomiyligi bilan qaror topadi. Ammo birinchi darajada buyum oʻrganilib, rasmning soyasi yaqqol koʻzga tashlanadigan tomonlar boʻrtib, turli munosabatlariga koʻra shakllanadi. Bu murakkabroq shakllarga ham farqlanadi. Masalan, turar joy binosini ajratadigan umum soya gʻtomonlari munosabati va oynaning turi misoliga olish mumkin.

Miniatyura kompozitsiyasida kontrast va nyuans mezonlari.

Sanoat buyumlarini loyihalashda kontrast mahsulot detallari xususiyatini muqobillashtiruvchi vosita boʻlib, tarkiblar badiiy qimmatini funksional mosligiga taʼsir qiluvchi kompozitsiya shartiga koʻra yuzaga keladi. Kontrast solishtirishning soddaroq, u keskin farqlarni, tashqi koʻrinishdagi oʻziga xos belgilarni aniqlaydi.

Kontrast xususiyatlarini baholashda buyumlarni solishtirish jarayonida kattaligi, shakl joylashish va boshqalar ko‘rinishiga ko‘ra tasvirlanadigan shakl o‘rnida taqdim qilinishi mumkin. Solishtirish jarayonida ayrim o‘lchamida kontrast ko‘z harakati bilan aniqlanib, to‘g‘ri chiziqqa yaqini, maydoniga ko‘ra solishtirishda hajmi sikl umumiy farqlovchi natija bo‘lib, aniqlanadi. Birinchi navbatda, tasvirning umumlovchi natijasi bo‘lib yuzaga keladi. Shakllarni aniqlash kontrastli munosabatni baholashda tasvir chiziqlarini nigoh bilan solishtirish natijasi ta’sir etadi, rang farqini ajratish tanlangan joy xususiyatiga ko‘ra ajrim bo‘ladi. Farqlanishi munosabatlari tashqi ehtiyojlarning barcha belgilariga ko‘ra solishtirilganda birinchi taassurot boshqa munosabatlardan farq qiladi. Kontrast belgisi yorug‘lik ko‘zimizga tushishi bilan aniqlanadi. Qiyoslanuvchi ranglar yoritilgandan so‘ng, elektor uchquni yorug‘ligi ta’siri natijasida seziladi. Jilo buyumlarning tashqi ko‘rinishi va kattaligi yaxshi xususiyatlaridan biridir, va rangi, chizmatasvir, jussasi joylanishidan yuzaga keladi. Bir xil zaruratli buyumlarni bilishda ko‘pincha qo‘l keladi. Jilo-solishtirishning murakkablashgan jarayoni bo‘lib, ko‘zning bir qator harakatlaridan tashkil topadi. Kattalikning jiloli xususiyati shakli, yuzi ko‘z harakatlari umumiydan yuzaga kelgan arzimagan farqlari bilan farq qiladi.

Ranglar orqali jilolash, arzimagan qo‘zg‘atishlar orqali ham xis etiladi. Murakkabroq jiloli shakllar yuzaga kelishi, Shu jumladan, o‘rnashganligi va uning qurilishidagi egallangan o‘rni ham yuzaga keladi.

Miniatyura kompozitsiyasida nyuans.

Solishtirilayotgan jismlarning kattaligi, kichikligi, chizmatasviri, rangi, hajmi, joylashishi, tashqi ko‘rinishidagi yaqin xususiyatlar nyuans deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish imkonini beradi. Nyuans ko‘zning bir qator takroriy harakatidan iborat ancha murakkab solishtirish jarayonidir. Jismningnyuans xususi buyumning katta-kichikligi, shakli, satxi va tavsifi tizimidagi arzimas farq, ko‘zning takror harakatidan sinchkovlik bilan umumlikda seziladi. Ranglardagi nyuans olinadigan sinchkovlik ta’siri ostida arzimas farqni sezishda bilinadi. Shakldagi nyuansni sezish, Shu jumladan, uning hajmiy va fazoviy qurilish nyuans ham eng murakkab hisoblanadi.

Miniatyura kompozitsiyasida keng ko‘lamlilik

Keng ko‘lamlilik – shakl va uning qismlarining inson hayotida tutgan o‘rni, uni atrofga va boshqa shakllarga munosabatini bildiruvchi o‘lchovdir. Hamma buyum va mahsulotlar inson jussasiga muqoyasa qilingandir.

Keng ko‘lamlilik sezgilari – mahsulot va buyumlar bilan kundalik foydalanish jarayonida shakllangan. Qamrovlik tuShunchasi – bu borlikning aniq tuShunchasi bo‘lib, ayrim voqeliklarni uning ulug‘vorligi aniqligida his qilinishidir. Keng ko‘lamlilik muqoyasalashning ahamiyati, buyumning chizmadagi hajmi bilan bor kattalikdagi hajmi orasidagi munosabatdir. Amaliyotda, badiiy loyihalash – muqoyasalash qurilmaning insonda, Shuningdek buyumlarning bir-biriga va hajmiga solishtirmasidir.

Mashinalarni, asboblarni, maishiy buyumlarni loyihalashda keng ko‘lamlilik qo‘l keladi, hamda uni atrof-muhitga bog‘liqligini solishtirgan holda nazarda tutish kerak. Hatto temir ishlovchi dastgohlarda ham keng ko‘lamlilik shakl va hajm doirasida yaxshi yuzaga chiqishi kerak. Muqoyasalashning me‘moriy ko‘rsatkichlari turli konstruktiv qismlarda yuzaga chiqadi. Buyumlarning uncha katta bo‘lmagan mahsulotlari g‘muqosayalash ko‘rsatkichig‘ keng ko‘lamlilikda yirik ko‘rinadi. Kattalariniki esa kichik, hatto bu borada ularning bor bo‘yi, o‘lchami o‘zgarmay qolsada nisbatan yuqoridagicha ko‘rinadi. Bu shakl ko‘rinishining qonuniyatlaridan biri sifatida erkin ijodiy yondashishga izn beradi. Bu o‘rinda badiiy ko‘rkamlik nazarda tutilganligi sezilarlidir.

Eshik kengligi aniq bir o‘lchamga ega bo‘lsada, odam bo‘yiga monandlik sharti bilan bog‘likligiga ko‘ra, bu vazifani jamoat joylarida hal etishda o‘lchamning tuzilishini e‘tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki binoning umumiy ko‘rkini muqoyasa holda e‘tiborga olish joizdir. Bu jamiyat binolari klublar, teatr va boshqalarga xosdir. Shakl qismlari keng ko‘lamliyligini ilg‘ashda o‘zaro bog‘liqlik mavjuddir. Shakl qismlari qancha yirik bo‘lsa, u umum jihatdan yirikdir. Shu sabab bir xil balandlikdagi Novodeviche monastri va Maskva Kremlidagi Buyuk Ivan qo‘ng‘iroq xonalarni solishtirilganda keyingisining ulchami sezilarli darajada yirikroq ekanligi seziladi. Muqoyasa ifodaviy ta’sirchanligi buyum va qurilishlarda ko‘zga tashlanishining boshqa jihatlariga

ham bog‘liqdir. Oq va yorqin buyumlar o‘lchami jihatidan qora buyumlar bilan teng bo‘lsada, ularga nisbatan yirikroq, ulug‘vorroq ko‘rinadi. Cheklangan fanlar doirasida joylashgan yoki kichik shakllar orasidagi buyum katta buyumlar orasidagi buyumga nisbatan g‘garchi ular bir xil kattalikda bo‘lsa-dag‘ kattaday ko‘rinadi. Ko‘rishning oddiy qamrovi – tik chiziqlar kattaligini yotiq chiziq'larga qarab baholashdir. O‘z- o‘zidan tik yo‘nalishda qismlangan shakl yotiq xolatda bo‘lingan yoki bo‘linmagan shakllarga nisbatan baland ko‘rinadi. To‘g‘ri burchakning tana qismi past qismga ko‘ra yirikroq ko‘zga tashlanadi. Muqoyasalash masalalarining to‘g‘ri echimi ashyolar xususiyatining buyum tayyorlash yo‘llari va konstruksiyasiga bog‘liqdir.

Miniatyura kompozitsiyasida modul

Modul – bu biror bir buyum, uning o‘rami, mashina yoki qurilishlar, ularning qism bo‘laklari hisobi asosida qurilgan – qabul qilingan kattalikdir. O‘zbekiston Respublikasida va ko‘plab boshqa mamlakatlarda 100 mm – 10 sm o‘lchamdagi asosiy modul o‘lchami birining uzviy qismlarini almashtirishga moslangan bo‘lishi kerak va qabul qilish davlat standartiga mos bo‘lishi sanoatning hamma bo‘limlariga tushishi kerak. Modul – dizaynda, ayniqsa, qurilmalarda va ixchamlashtirilgan qismlarni loyihalashda keng qo‘llaniladi. Maishiy mahsulotlar modul asosida loyihalashtiriladi va me‘morchilikda qabul qilingan asosiy modul asosiga quriladi. MDH da 50 sm 1:2 alohida turgan qurilmalarga biriktirilgan modul – statsionar etakchi qurilma va yiriklashtirilgan modul, 15 sm ga teng biriktirilgan statsionar qurilma uchun modullar qabul qilingan. Inson ehtiyojiga monand o‘lchamni topishda, fransuz me‘mori Le Korbyuz’ening “Modullari” muhim ahamiyat kasb etib keladi va inson “qaddi-qomati” ga mutanosib “Tilla oqim” ni yuzaga keltiradi. Le Korbyuz’ening tanlagan va taklif qilgan tizimi – moslamasida qurilma o‘lchamlarini inson qomatiga monand tarzda yaqinlashtirishga urinib, binoning ulug‘vorligi, muhtashamligi, uning qismlari qurilmalarini insonga moslashga intiladi. Yagona modul sistemasining kiritilishi badiiy loyihalash amaliyotida, ko‘p muammolar echimini topishda muhim o‘rin tutadi va buyum mahsulotlarning shakllanishi bilan bog‘liq vazifalarni oqilona hal qilishida qo‘l keladi.

Miniatyura kompozitsiyasida tektonika

Tektonika¹ – mahsulot shaklining ko‘z ilg‘aydigan aksi, uning konstruksiyasi va unda ishlatiladigan ashyo xususiyatidir. Aslini olganda aynan tektonikada mahsulotning mazmuni va shakli mujassamlashadi. Turli sanoat binolarida tektonika masalalari mahsulotning haqqoniy nuqsi bo‘lib kelgan va shakl an‘analari va tarixini mujassamlashtirgan, buning asosi bo‘lib, tabiat yaratgan kashfkorlik, maqsadga muvofiqlik, taqlid uchun namuna bo‘ladigan tektonik haqiqat xizmat qiladi. Tektonik mahsulotlar, unga ishlatiladigan ashyo va uning konstruksiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Aynan Shuning uchun sanoat yoki turar joylarning ko‘rinish shakllari, asboblari, dastgohlar, avtomobillar, kemalar, lakomativlar yoki samalyotlarning qimmatini hissiy baholashga imkon beradi.

Faqat amaliy mashqlar va ularni o‘rganishingizdan so‘ng kompozitsiya asosida tuzilgan hamma vazifalarni o‘zlashtirib, siz badiiy konstruksiyalash ishiga kirishishingiz mumkin.

¹ Shabaratov P.P. Lakli miniatyura “Kompozitsiya” T: “Yangi asr avlodi” 2007

1.2. Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida rangshunoslik haqida ma'lumotlarni o'quvchilarga o'rgatish.

Rangshunoslik haqida mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarga bu mavzuning ahamiyati katta ekanligini tushuntirish kerak. Chunki rangshunoslik barcha mutaxassisliklar Miniatyura popochilik, libos loyihalash hunarlarida va rangtasvir, qalam tasvir, fanlarning mukammal o'rganishlarida katta yordam beradi. Darsni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarning faolligini oshirish uchun «rang o'zi nima» deb savol berish o'rinli bo'ladi. Rang bu biror narsaning xususiyati bo'lib, uni inson ko'zi bilan ko'rib, aqli bilan idrok etadi. Bu o'rinda nurning o'rnini benixoya kattadir. Nur bilan rangning o'zaro bog'likligini tushuntirish uchun Isak N'yutonning 1866 yilda nurning spektr ranglarga bo'linish tajribasini tushuntirish kerak. U qorong'u xonada shisha prizma ga nur dastasini tushurib, devorda kamalak ranglarni hosil qilgan va nur spektr ranglardan iborat degan xulosaga kelgan. Shu o'rinda o'qituvchi tabiatdagi kamalak xodisasini ko'rsatib, bu mujiza ekanligini aytib, nima uchun 7 ta rang ekanligiga diqqatni jalb etishi kerak. Endi nurning qaytishi, sinishi va yutilishi haqida tushuntirish kerak. Agar nur biror yuzaga tushib undan qaytsa Shu yuz oq rangda bo'lib ko'rinadi. Agar nurning hamma qismi yutilsa, bu yuz qora rang bo'lib ko'rinadi. Shu o'rinda qishda qor yoqqan payt xonadan tashqariga chiqqan vaqtda inson ko'zi qamashib ketishini, yozgi vaqtda quyosh nuridan saqlanish uchun oq ko'ylak kiyib yurishni, alpinistlar nurdan saqlanish uchun ko'z oynak taqib olishlarini aytib o'tish joyiz bo'ladi. Endi boshqa ranglarning qanday ko'rinishi haqida gapirsak. Biror yuzaga tushayotgan nurning barcha spektr ranglari yutilib faqat bir rangi qaytsa yuz Shu rangda ko'rinadi masalan tushayotgan nurning faqat ko'k qismi qaytsa, yuz ko'k rang bo'lib ko'rinadi va xokozo... Haqiqatdan ham xonada bir rangni ko'rsatib, faraz qilsak, derazadan tushayotgan nurni va yoritish anjomi uchirilsa, hech qanday rang ko'rinmaydi. Agar mantiqan o'ylab qaralsa bu fikr to'g'ri, haqiqatdan ham yorug'lik bo'lmasa, hech qanday rang ko'rinmaydi. Lekin mo'jizalar mavjud masalan. Xitoyda bir kishi qorong'uda ham hamma narsani ko'ra olish xususiyatiga ega ekan. Insonlardagi bu finomel xodisalar xali o'rganilmagan bo'lib, mo'jiza bo'lib qolmoqda.

Axromatik va xromatik ranglar

Barcha ranglar ikki guruhga bo'linadi. 1. Axromatik ranglar, 2. Xromatik ranglar. Axromatik ranglarga eng oq rangdan boshlab, eng qora ranggacha bo'lgan barcha rangsiz tuslar kiradi. Eng oq rang bariy sulfat rangi bo'lib, eng qora rang qora duxoba rangi hisoblanadi. Bu ranglar orasiga inson ko'zi bilan ajrata oladigan 300 ta rang singdirish mumkin. Shu o'rinda o'quvchilar tuShunishi osonroq bo'lishi uchun oq-qora tasvirli televizorni misol qilib tuShuntirish mumkin. Unda barcha tasvirlar oqdan qoragacha bo'lgan oraliq ranglarda ko'rinadi.

Xromatik ranglar. Xromatik ranglarga axromatik ranglardan boshqa barcha tusdagi ranglar kiradi. Ular 7 xil kamalak rangi ularni o'zaro aralashtirishdan, oqimtirlash va qoramtirlash orqali hosil qilinadigan son-sanoqsiz ranglar kiradi. Xromatik ranglarning soni va nomi haqida so'z ketganda Shuni aytish joiz agar kamalak rangi 7 ta bo'lsa, uning har birini eng oqish rangidan eng to'q rangigacha bo'lgan ranglarni hisob qilsak, (axromatik ranglarda inson ko'zi bilan 300 tasini ajratsa) xromatik ranglarda bu hisob 2100 ta bo'ladi. Agar bu ranglarni 2 tasini bir-biri bilan aralashtirsa yoki oqimtirlash, qoramtirlash bilan bu hisob cheksiz bo'ladi. Ularni nomlash esa undan ham mushkul, chunki bir inson ko'rib. Idrok etgan rang boshqa insonga boshqacha bo'lib ko'rinadi. Bunga sabab insonlarning ko'rish va idrok etish kobilyatlari xar xil bo'ladi. Bu mavzuni o'tishda o'qituvchi kompyuter asoslari o'qituvchisi bilan hamkorlikda ishlab o'quvchilarga paynlash programmasi yordamida tuShuntirilsa o'quvchilar ekran orqali ranglarni ko'rib borishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ranglarning asosiy xususiyatlari

Ranglarning asosiy xususiyatlarini bilish barcha mutaxassisliklarda zarur bo'lishi bilan birga tasvir, qalam tasvir darslarini mukammal o'rganishda hamda tasviriy san'at asarini yuksak darajada ishlashda ahamiyati beqiyosdir, chunki ranglarning xususiyatini bilmay uni o'rinsiz yoki ortiqcha ishlatish, san'at asarini faqatgina buzmay, uni kulguli qilib quyish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar ranglarning asosiy xususiyatlarini yaxshi o'zlashtirib olib, ularni o'z amaliy va ijodiy ishlarida qo'llash sirlarini bilishlari kerak bo'ladi.

Og'ir va engil ranglar bu mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarga

quyidagi rasmni ko'rsatib qaysi biri g'ayritabiiy ko'rinishini surash maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'quvchilarning ko'pchiligi 2 va 5 chi rasmlar (albatta Shunday) deyishsa, haqiqatdan ham shu rasmlar g'ayri tabiiy ko'rinadi. Ana endi tuShuntirishga o'tiladi. Barcha ranglar og'ir va engil ranglarga bo'linadi. Og'ir ranglarga barcha to'q va qora ranglar kiradi. Engil ranglarga oq va barcha och ranglar kiradi. Kompozitsiyada har doim og'ir ranglar pastki qismda, engil ranglar yuqori qismda joylanishadi, aks xolda kompozitsiya maqsadga muvofiq chiqmaydi. Haqiqatdan ham misol uchun ko'chada oq ko'ylak, qora shim kiyib olgan kishi hammaning e'tiborini o'ziga tortadi, chunki u chiroyli bo'lganidan emas, balki g'ayri tabiiy ko'ringanidan hamma unga qaraydi.

Ranglarning bu xususiyatini barcha mutaxassisliklar hisobga olishlari kerak bo'ladi. Chunonchi naqqosh xonalarni naqsh bilan bezayotganda og'ir ranglarni xona devorining pastki qismiga engil ranglarni devorning yuqori qismiga joylashtirishi kerak. Popop ustasi, libos loyihalovchi, ganch va yog'och o'ymakori umuman barcha joyda rang tasvir yoki grafika usulida san'at asarlari yaratilayotganda ham ranglarning Shu xususiyatini hisobga olish kerak bo'ladi. Issiq va sovuq ranglar. Barcha ranglar issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglar olovni quyoshni eslatuvchi ranglar sovuq ranglar esa qorni, muzni eslatuvchi ranglar hisoblanadi. Shu bilan birga issiq ranglar yaqinlashtirib sovuq ranglar esa uzoqlashtirib ko'rsatish xususiyatiga ham egadir, ranglarning bu xususiyati ham kompozitsiyada katta ahamiyatga egadir.

Jumladan naqqosh yoki ganch o'ymakori xonalarni pardoqlashda quyosh tushadigan xonalarga sovuq ranglardan, quyosh tushmaydigan xonalarga albatta issiq ranglardan foydalanishi kerak. Bundan tashqari kichik xonalarga uzoqlashtirib ko'rsatuvchi rang katta xonalarga yaqinlashtirib ko'rsatuvchi ranglardan foydalanishi kerakdir. Shu bilan birga naqqosh, ganch va yog'och o'ymakori, popop ustasi kichik yuzalarga naqsh tushirmoqchi bo'lsa, mayda gulli naqshlar, katta yuzaga tushirmoqchi bo'lsa katta gulli naqshlardan foydalanish kerak. Loyihalovchi esa o'lchami katta kiyimni kichiklashtirib ko'rsatuvchi rangdan, kichik o'lchamdagi kiyimni kattalashtirib ko'rsatuvchi rangdan foydalanib loyihalashi kerak. Rang kontrasti deb ikki yonma-yon turgan

ranglarning bir-biriga ta'siriga aytiladi. Rang kontrasti ikki xil bo'ladi, axromatik va xromatik kontrast. Yuqoridagi rasmlarni diqqat bilan kuzdan kechirsak qora rang ichida turgan oq rang bilan kul rang ichida turgan oq rang bir-biridan farq qiladi. Qora rang ichidagi oq tiniqroq, kul rang ichidagi oq xiraroq ko'rinadi, yoki qizil rang ichidagi sariq qig'ishroq, yashil rangdagi sariq yashilroq ko'rinadi. Bu esa rang kontrasti ya'ni ranglarning bir-biriga ta'siri deb ataladi. Rang kontrastini ham barcha mutaxassisliklarda, rang tasvir va grafikada urinli ishlatish kerak. Xususan, naqsh va popop elementlariga rang berishda libos loyihalashda, libos elementlari ranglirini tanlashda katta ahamiyat berish kerak.

Asosiy ranglar

Rangshunoslikni mukammal o'rganish uchun asosiy ranglarni bilishning ahamiyati kattadir. Asosiy ranglar 3ta bo'lib ular qizil sariq va ko'k ranglar xisoblanadi. Qolgan barcha ranglarni Shu 3 ta asosiy ranglarni o'zaro aralashtirish yordamida xosil qilish mumkin. Buning uchun esa ranglarni aralashtirish qoidasini bilish kerak.

Ranglarni aralashtirish qoidalari

Ranglarni aralashtirish koidasini bilish Miniatyura xunarida rang tasvir san'at asarlarini yaratishda benihoya katta ahamiyatga egadir, chunki naqsh san'ati asarning nafis va ranglari «toza» chiqishi uchun ranglarni aralashtirish qoidasini bilish kerak. Buning uchun rang doirasini hosil qilishni o'rganamiz 3 ta asosiy rangni doirani 13 qismga joylashtiramiz.

3 ta asosiy rang – qizil, sariq va ko'k ranglarni, ikkitasini uzaro aralashtirib, oraliq ranglar – yashil, olovrang va binafsha ranglarni hosil qilamiz. Hosil bo'lgan 6 ta ranglarni yana o'zaro aralashtirib yana yangi ranglarni hosil qilamiz. Bu ranglarni oqimtirlash yoki qoramtirlash orqali yana juda ko'p ranglar hosil qilamiz. Rangning aralashtirishning asosiy qoidasi – rang doirasi bo'yicha yaqin turgan ranglarni uzaro aralashtirib yangi rang hosil qilish kerak. Aks xolda rang doirasida qarama-qarshi turgan ranglarni uzaro aralashtirilsa axromatik rang, ya'ni biror aniq tusga ega, toza bo'lmagan rang hosil bo'ladi. Bu eng xunuk rang hisoblanadi. Masalan sariq ko'k va qizil ranglarni uzaro aralashtirsak, biror aniq

tusga ega, toza bo‘lmagan rang hosil bo‘ladi. Demak rang tasviri san’at asari nafis chiqishi uchun toza ranglardan – ya’ni rang doirasida bir-biriga yaqin turgan ranglarni uzaro aralastirib yangi rang hosil qilib ishlatish kerak. Bu erda bolalarning biz-bizak o‘yinchog‘ini misol keltirish mumkin. Agar doiraning yarmini qizil, yarmini sariq qilib buyab uni aylantirsak biz-bizak olov rang bo‘lib ko‘rinadi. Agar doirani 3 qismga bo‘lib 3 rangga buyab aylantirsak qanday rang hosil bo‘lishini kuz oldingizga keltiring. Barcha ranglar insonlarning asab faoliyatiga ruxiyatiga turlicha ta’sir etadi. Ranglarning bu xususiyatini barcha mutaxassislar va mo‘yqalam ustalari o‘z ish faoliyatlarida hisobga olishlari kerak.

Qizil rang bu rang faol qo‘zg‘ovchi xususiyatga ega. Bunda har qanday qo‘zg‘alishda bo‘lgani kabi nafas olish va yurak urishi o‘zgaradi. Qizil rang qisqa vaqt ta’sir etganda insonning ish qobiliyati oshadi. Uzoq vaqt ta’sir etganda charchashga va ish qobiliyatini pasaytiradi.

Pushti rang. Xushchaqchaq xursandchilik kayfiyatini beradi. Issiqlik xissini o‘yg‘otib ish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Sariq rang. Qo‘yosh nuri xissiyotini uyg‘otadi. Bu rang faol bo‘lib xushchaqchaqlik baxsh etadi, ish qobiliyatini oshiradi.

YAshil rang. O‘rta mayin tinchlantiruvchi rang, uzoq vaqt ta’sir etganda ham charchamaydi, ish qobiliyatini pasaytirmaydi. Yashil rang bilan sariq rang aralashmasi mayin rang bo‘lib, kayfiyatni yaxshilaydi. YAshil bilan ko‘k rang aralashmasi passiv rang xususiyatiga ega.ning ko‘p turlari mavjud bo‘lib, ular qobiliyatini pasaytirmaydi.

Havo rang. Bu rang passiv rang bo‘lib, hayotiy faollikni susaytiruvchi va pasaytiruvchi xususiyatga ega. Sovuqlik xissini o‘yg‘otadi.

Ko‘k rang. Bu rang passiv sovuq tinchlantiruvchi rang bo‘lib, uni ta’sirida hayotiy faollik pasayadi, nafas olish va yurak urishi rostlanadi. Uychanlik va fikr yuritishga moyillik tug‘diradi.

Binafsha rang. Eng passiv rang bo‘lib, uning ta’sirida hayotiy faollik pasayib, kayfiyat tushib, ichki xavotirlanish xissiyoti uyg‘onadi. Binafsha rang qisqa vaqt ta’sir etganda ham ish qobiliyati keskin pasayadi.

Jigar rang. Tinch va turg‘un rang bo‘lib, issiqlik xissini o‘yg‘otadi, ba’zi bir

tuslari esa jiddiylik jiddiylik xissini qoʻzgʻaydi.

Qora rang. Ogʻir rang boʻlib, tun qorongʻuligini eslatadi, kayfiyatni keskin tushiradi.

Kul rang. Zerikish xissini uygʻotadi.

Oq rang. Sovuq tinch rang boʻlib, soddalik va kamtarlik xissini uygʻotadi.

Kolorit. Rang birikmalari rangtasvirda gʻoyat muhim vazifani bajaradi. Odatda yorqinligi va tusi bir-biriga yaqin boʻlgan ranglar oʻzaro birlashadilar. Ranglar oʻzaro tuslar orqali birlashganda, ular alohida jarangdorlik namoyon qilib, sifat oʻzgarishlari koʻzga tashlanadi. Umumiy koloritdan ajralib qolgan rang nomuvofiq –begona boʻlib koʻrinadi va tasviriy asar yaxlitligiga putur etkazadi. Tasviriy asar barcha ranglarning oʻzaro bogʻliqligi asosida quriladi. Bu asar yaxlitligiga zarar etkazmagan Holda yorqinligi yoki och-toʻqligi boʻyicha birorta rang boʻlagini oʻzgartirish, uni kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin boʻlmaydi. Tasvirda turli ranglarning garmonik, goʻzal tus birikmalari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqligi **kolorit** deb ataladi. Kolorit bizga olamning boy, rang-barang va goʻzalligini ochib beradi. U musavvirga tasvir kayfiyatini ifoda qilishda yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlantiruvchi, xavotirli, mayus boʻlishi mumkin, Shuningdek iliq va sovuq, yorqin va boʻgʻiq boʻladi. Oʻtmish ustozlarning rangtasvir asarlari quyidagi ayrim davrlarda kolorit rivojini kuzatish imkonini beradi. Kolorit tuShunchasi XV asrning oxirlarida shakllanib, Borokko davrida ravnaq topdi. Undagi dastlabki oʻzgarishlar asr oxirlarida namoyon boʻla boshladi. Bu davrda boʻyoqlarni alohida-alohida qoʻymasdan ranglarni silliq edirma qilib, yarim soyalarga ulashgan. Konstebelga, ayniqsa, impressionchilarga kelib bu Hol yana keskinlashdi. Ajoyib rus sanʼatShunos olimi B.Vippening ilmiy asarlari aynan rangtasvir koloriti tarixiga bagʻishlangan.

Kompozitsiyada ranglarni loyixalash

Har qanday mutaxassisliklarda ranglarni loyixalash katta ahamiyatga egadir. Chunki ranglar toʻgʻri maqsadga muvofiq loyixalanmasa, har qanday kompozitsiya, nafis va chiroyli chiqmaydi. Chunki har qanday sanʼat asarini koʻpchilikka maqquul boʻladigan yuksak darajaga koʻtaruvchi omil. Bu ranglar jilosi xisoblanadi. Masalan, koʻchada bir yigit qip-qizil matodan kastyum-shim

kiyib olgan bo'lsa, uni ko'rgan odamlar Shu yigitning didiga, ongiga, dunyo qarashiga umuman uning xarakteriga va ruhiyatiga qanday baho berishini ko'z oldingizga keltiring. Birinchi navbatda Miniatyura mutaxassisligida ranglarni loyixalashni ko'rib chiqaylik. Xonalarga rang tanlashda quyidagi 4 ta xolatlarni hisobga olish kerak.

1. Xonaning tabiiy nur bilan yoritilganligini. Har qanday xona o'z vazifasiga qarab turlicha yoritilgan bo'ladi. Shunga qarab xonalarga rang tanlanadi. Agar xona derazalari ko'p va katta bo'lsa, bu xona yorug' bo'ladi. Shunga ko'ra bu xonaga to'qroq rang tanlasa bo'ladi. Agar xona derazasi kam va kichik bo'lsa. Bunday xona qorong'u bo'ladi, Shunga ko'ra bunday xonalarga och rang tanlash kerak.

2. Xonaning dunyo tomonlariga nisbatan joylanishi. Xonalar dunyo tomonlariga nisbatan turlicha joylashgan bo'ladi. Shunga ko'ra xonalarga rang tanlash kerak bo'ladi. Agar xona derazasi kun yurishiga qaragan bo'lsa, bunday xona issiq bo'ladi. Bu xonaga sovuq rang tanlasa bo'ladi. Agar xona derazasi kun yurishga teskari qaragan bo'lsa, bunday xona sovuq bo'lib, bu xonaga albatta issiq rang tanlash kerak bo'ladi.

3. Xonaning katta kichikligiga qarab rang tanlashda ranglarning kattalashtirib yoki uzoqlashtirib ko'rsatish xususiyatidan foydalaniladi. Agar xona kichik bo'lsa, uzoqlashtirib ko'rsatuvchi rangdan va mayda naqshlardan chiziladi yoki mayda ganch o'ymakorlik ishlari bajariladi. Agar xona katta bo'lsa, bunday xonalarga yaqinlashtirib ko'rsatuvchi rangdan hamda yirik naqshlar va yirik ganch o'ymakorlik ishlari bajariladi.

4. Xonaning qanday maqsadlarda foydalanishiga qarab rang tanlashda ranglarning insonlar ruhiyatiga qanday ta'sir etishini hisobga olish kerak. Dam olish va yotoq xonalariga tinchlantiruvchi ranglardan, mehmonxona va ovqatlanish xonalariga esa xushchaqchaqlik baxsh etuvchi ranglardan foydalanib rang tanlash kerak. Xuddi Shunday ranglarni loyihalashda qolgan mutaxassislar ham o'zlariga xos bo'lgan qoidalarga amal qilishlari kerak. Bunda buyurmachi mijozning to'g'ri fikrlarini fikrlarini hisobga olishlari kerak. Agar buyurtmachi rang tanlash qodalariga mutlaqo zid bo'lgan fikr bildirib, buyurtma bersa, unga rangShunoslik

qoidalarini tushuntirish kerak. Agar bunga koʻnmasa, buyurtmachi moʻjuz har doim hqq boʻladi. Uning fikrini amalga oshirish kerak. Masalan, libos loyihalovchiga (yuqoridagi misoldek) bir yigit kelib qip-qizil matodan kostyum-shimga buyurma bersa, unga bu rang toʻgʻri kelmasligini, odamlar uni koʻrganda, uning dunyoqarashi, harakteri, ruhiyati haqida qanday fikr yuritishlari haqida tushuntirishi kerak. Agar kunmasa uni ogohlantirib, buyurtmasini bajarsa boʻladi, yoki popop ustasiga buyurtmachi kelib, binafsha rang matoga popop tikib berishni iltimos qilsa, binafsha rang eng passiv rang ekanini, bu rang insonlar kayfiyatini tushuruvchi rang ekanligini tushuntirish kerak. Mebel loyihalovchi oldiga kelib, dam olish xonasi uchun qizil yoki binafsha rangdan mebel buyurtma bersa ham shunday tushuntirish ishlarini olib borishi kerak boʻladi. Umuman kompozitsiyada rang 3 xilda loyixalanadi.

1. Bir rangli kompozitsiya. Bunda faqat bir tUSDagi ranglardan foydalaniladi.

2. Qutubli kompozitsiya. Bunda rang doirasida qarama-qarshi turgan ikkita ranglardan foydalaniladi.

3. Koʻp rangli kompozitsiya. Koʻp rangli kompozitsiyada eng koʻpi bilan 3 xil ranglardan foydalanish kerak.

Yuqoridagi mavzularni oʻtib boʻlgandan keyin oʻqituvchi oʻz mahoratini, uquvchi uslubiy koʻnikmalarini oshirishi uchun oʻquvchilar oʻrtasida quyidagi savol-javobni oʻtkazishni tavsiya etamiz. Chunki uqituvchining ish faoliyatiga eng toʻgʻri, haqqoniy va obʻektiv baho beradilar. Shu nuqtai-nazardan oʻqituvchi dars oʻtish vaqtida darsning ijobiy tomonlarini oshirishga harakat qiladi. Savol javob berishi quyidagicha boʻladi. Oʻquvchilar ikki varroq qogʻozga ism-shariflarini yozmay faqat toʻgʻri, ochiq-oydin, qoʻrqmasdan oʻz fikrlarini yozadilar, oʻquvchi esa bu javoblarni oʻrganib oʻziga tegishli xulosa chiqaradi.

II. SHARQ MINIATYURA MAKTABLARI VA UNING NAMOYONDALARI.

2.1. Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida Xirotda miniatyura maktabi va Behzod ijodi haqida ma'lumotlar berish.

XV asrning birinchi yarmida, Shohirux davrida Hirot Xurosonning madaniy markazi darajasiga ko'tarilib, ikkinchi yarmida, Sulton Husayn va Navoiy davrida E.Bertels aytganidek, "o'sha davr Sharqining asosiy madaniy markazlarining biriga aylandi"¹ Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo, qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari, ilm-fan, ayniqsa adabiyot, san'at, me'morchilik keng rivoj topdi. To'g'ri, bu yuksak madaniyat mahsullarini, san'atkorlarning yillab ko'z nuri, bilimi, is'tedodini talab qilgan mo'jaz asarlarni faqat yuqori tabaqa vakillari sotib olishga qodir edi, xolos. Manbaalarda berilgan xabarlariga ko'ra Hirot umuman malakali ustalar, hunarmandlar, me'morlar, xattotlar, naqqoshlar, nomlari haligacha tarixda qolgan ulug' shaxslar makoniga aylangan edi. Zaxiriddin Muhammad Bobir aytganidek, jahonda Hirotdek shahar yo'q edi ("...rub'i masqunda andoq shahr yo'qtur") Hirotning shu darajaga ko'tarilishiga rahnamolik qilgan shaxs hazrat Alisher Navoiy edi. Bu haqda "Bobirnoma"da juda adolatli so'zlar aytilgan: "Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va Shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shohi Muzaffar tasvirda bekning sa'y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma'ruf bo'ldilar. Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay". So'zlar ulug' shoir va mutafakkir, ustoz va olim, yirik jamoat va davlat arbobi, o'sha davrning eng madaniyatli vakillaridan biri bo'lmish Alisher Navoiy Hirot madaniy hayotining homiysi, ilmu fan, adabiyot, san'at arboblarning valine'mati ekanligi zamona ahdlari tomonidan e'tirof etilganining bir isbotidir. Mir Alisherning hayoti, faoliyati va umuman shaxsiyati Hirot madaniyati doirasi, arboblari bilan tarixan uzviy bog'liqdir. Qaysi bir shoir, olim, rassom, naqqosh, xattot, sahhof, muziqachi, me'morni olmang, Jomiydan boshlab to muqovachi Xalil Sahhofgacha Navoiy

¹ Sulaymon X., Sulaymonova F. Nizomiy «Xamsa» siga ishlangan rasmlar. Toshkent "Fan"

bila ozmi-ko'pmi bog'liq. bo'lgan. Buni Navoiy ijodining birinchi rus tadqiqotchisi M. Nikinskiy ham o'z asarlarida ta'kidlab, yirik madaniyat arbobi bo'lmish Mir Alisher Xirotda madaniyatning rivoj etishiga xormay-tolmay xizmat qilgan, deydi. Ma'lumki, yaqin va O'rta Sharqda badiiy va ilmiy asarlar to XIX asrning oxirgi choragigacha xattotlar tomonidan ko'chirilib, qo'ldan-qo'lga o'tib kelgan. To'g'ri, Arab Ispaniyasida o'z vaqtida xatni yog'ochga o'yib ko'paytirish usuli ham bo'lgan, ammo bu usul keng rivoj topmagan va tez orada iste'moldan chiqqan. O'rta asrda Sharqda qo'lyozmalar inson tafakkuri asrlar, ming yillar davomida ajdodlar yaratgan ma'naviy boylik durdonalari maxzani bo'libgina qolmay, yagona tarbiya va bilim berish quroli ham edi. Shuning uchun yaqin vaqtlargacha ham qo'lyozma kitoblarni yaratishga katta ahamiyat berilgan.

Qo'lyozma kitoblarning eng oliy, benazir namunalari Alisher Navoiy davrida Hirotda, ana Shu zot etishtirgan san'atkorlar tomonidan yoki uning homiyligida yaratilgan edi. Hatto maxsus xat usuli, keyincha asosiy uslub bo'lib qolgan mashhur "nasta'liq" xati ham ishlab chiqilgan edi. Kotiblik o'z navbatida madaniy hayotning qay darajada taraqqiy etganligini aniqlovchi omillardan biri hisoblangan. Qo'lyozma kitoblarni yaratishda bir necha mutaxassislar ishtirok etganlar: qog'ozrez, xattot, muzahhib (oltin hal beruvchi), lavvoh (sarlavha va jadvallarni bezovchi), musavvir, naqqosh, va sahhof (muqovasoz). Qo'lyozmalarning qimmati qog'oz, siyoh ayniqsa xattot san'ati turli bezaklar sifati bilan aniqlangan. Tabiiyki, bir necha san'atkor tomonidan mahorat bilan ishlangan qo'lyozmalar faqat davlantmand odamlar tomonidan buyurtirilgan va katta pulga sotib olinib, oltin, javohirlar qatori xazina boyligi hisoblangan.

Alisher Navoiy davrida hirotda xattotlik san'atining eng ajoyib namoyandalari Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashxadiy, uning shogirdlari Muhammad bin Nur, Darvesh Muhammad Toqiy, Sulton Muhammad Xandon, Darvesh Muhammad Samarqandiy, Abduljamil kabi kotiblar edi. Bular orasida Sulton ul-xattoton, Qiblat ul-kuttob nomini olgan Sulton Ali Mashhadiy alohida o'rin egallaydi. U Jomiy, Alisher Navoiy, Sulton Husaynlarning yuqori bahosiga sazovor bo'lgan.

Xattotlar sultoni Sulton Husayn va Alisher Navoiy uchun Sharq klassiklari

va davr durdonalari bo'lgan asarlarni ko'chirgan, ular hozirgacha ham san'at namunasi sifatida jahon muzeylari, qo'lyozma fondlari, shaxsiy kolleksiyalar, hattoki fransuz millioneri Ro'tshild xazinasida ham saqlanib kelmovda. Xattot faqat qo'lyozmalarnigina kuchirmay, toshlarga, binolar peshtoqiga ham xatlar bitgan, yaxshigina she'rlar yozgan, xayotining oxirida esa she'rda "Risolai xat" asarini yaratgan. Qur'onda jonivorlar tasvirini chizmaslik haqida maxsus ta'kidlanmagan bo'lsa ham, islom dini asrlar davomida rasm san'atining rivojiga to'sqinlik qilib keldi. Arab grafikasining turli variantlari ishlab chiqilib, xatning o'zi san'at asariga aylanib qolganligining sababi ham Shunday bo'lsa kerak. Qo'lyozma kitoblar haqida xattotlik san'atining bilimdoni A. Murodov: "..., Sharq. mamlakatlarida va O'rta Osiyoda xristian va buddizm dunyosida ko'rilmagan xattotlik, xat elementlari bilan bog'langan Miniatyura, me'morchilik va xat san'ati asosiga qurilgan badiiy qo'lyozmalar san'ati alohida taraqqiy etgan", deydi.

XIX - XV asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Eronda, ayniqsa XV asrning ikkinchi yarmida Hirot, XVI asrda esa Buxoro va Tabrizda naqshlar va mo'jaz rasmlar bilan bezatilgan qo'lyozma kitoblar ko'plab yaratildi. Navoiy, Jomiy va Behzod davridagi Hirot madaniyatining yuksalishi va gullab-yashnashi o'z-o'zidan bo'sh joyda paydo bo'lmadi, balki XVI asrning ikkinchi va XV asrning birinchi yarmida Temur va Ulugbek davrida Samarqand Hirot va SHerozdagi saroy kitobxonalarida ko'plab xattot, naqqosh, musavvirlarning to'planishi, o'nlab ziynatlangan qo'lyozma kitoblar tayyorlanishi Behzod, Sulton Ali kabilarning ijodii kamolotiga zamin hozirladi.

XV asrning ikkinchi yarmi tasviriy san'atida Alisher Navoiy ta'siri tufayli katta burilish bo'ldi. Ayniqsa, Evropaning "Sharq Rafaeli" degan nom olgan san'atkor Kamoliddin Behzodning ijodii kamolotga ko'tarilgan payti miniatyura san'ati taraqqiyotining yuksak bosqichga chiqishga sabab bo'ldi. Avvalgi davrlarga nisbatan bu davrda miniatyura san'atining tematik doirasi kengaydi. faqat epik, afsonaviy-mifologik dostonlar voqeasi tasvirlanmay, zamonaviy asarlar, jonli hayotdan olingan hayotiy epizodlar tarixiy voqealar va shaxslar portretlari bilan ziynatlandi. Tasviriy san'at, mo'jaz rasmlarning

yangi janrlari, tabiat ko‘rinishlari, zamona ahllarining bir guruhi va alohida shaxslar portretlari, kundalik maishiy hayot lavxalarini tasvirlovchi asarlar paydo bo‘ldi.

Miniatyura san‘atiga xos bo‘lgan shartlilikni hisobga olgan holda, Navoiy davrida va uning rahnamoligida Hirotda kamolot cho‘qqisiga chiqqan mo‘‘jaz tasviriy san‘atni realistik yo‘nalishdagi san‘at deyishiga haqlimiz. Miniatyurada tasvir etilgan inson, jonivorlar va tabiat manzaralarini rassomlar nihoyatda nafis, mo‘‘jaz chiziqlarda bera olganlar. Bo‘yoqlarning hammasi ham yuksak did, mahorat bilan tanlanadi, ularning uyg‘unligiga erishiladi, ammo ba’zida ular shartli bo‘ladi.

Bu davr san‘atiga xos bo‘lgan hayotiylik xalqchillikka ham olib keladi. Albatta, xalqchillikni tasviriy san‘at asarlari xalq uchun yaratiladi, xalq orasida keng tarqaladi, degan ma’noda tushunmaslik kerak. Avvalo san‘at namunalarini yaratuvchilar ko‘pincha mehnatkash xalq orasidan chiqqan kishilar bo‘lib, “Ular o‘z ijodlarida umumxalq, ideallari, estetik qarashlari, go‘zallik xaqidagi tasavvurlarini aks ettirganlar”. E.E. Vertels “Navoiy” monografiyasida: “Alohida baytlarda jonli xayot bilan yaqindan bog‘langan obrazlarning paydo bo‘lishi Lutfiy asarlari uchun xarakterlidir. Bunga eski saroy poeziyasi hech yo‘l qo‘ymagan bo‘lur edi. Bu o‘rinda shaharning ta’siri, uning konkretlikka intilishi, shaharliklarning o‘z hayotlari sharoitini poeziyaga olib kirishga intilishi seziladi”¹, deydi E.E. Vertels. Xuddi ana shu xolatni tasviriy san‘atda ham kuzatamiz. Progressiv adabiyot bilan uzviy bog‘liq, bo‘lgan kitobat san‘ati ham ilg‘or g‘oyalar tashuvchisi bo‘lgan.

Fikrimizning isboti sifatida bu davr mo‘jaz san‘atida mehnat jarayoni, mehnatkash xalq vakillari obrazlari, oddiygina oila hayoti, dehqonchilik, bog‘dorchilik, hunarmandchilik korxonalarini kabilari tasvirini keltirishimiz mumkin. Badiiy adabiyotdagidek, tasviriy san‘at markazida ham asosan inson shaxsi, uning hayoti, orzu-umidlari turadi, san‘atkorlar butun iste’dodlarini ana Shu markaziy problemani yoritishga qaratadilar. XV asr ikkinchi yarmi Hirotda va XVI asrda Buxoroda rivoj topgan tasviriy san‘atning eng yaxshi namunalari diniy va an’anaviy epik mazmundan kundalik jonli hayotni tasvirlovchi, realistik ruhdagi

san'atga aylanadi. Bu o'zgarish o'sha davrga xos bo'lgan umumiy ko'tarinkilikning san'atdagi in'ikosidir.

Navoiy davri va umuman Sharq miniatyura san'atining eng buyuk vakili Kamoliddin Behzod ekanligi san'atshunoslik fani va mo'ljaz san'at muxlislari tomonidan e'tirof etilgan. Behzod Hirotda hunarmand oilasida tug'ilib, juda erta ota-onadan etim qolgan. Uni mashhur san'atkor Mirak Naqqosh tarbiyalagan va ustozlik qilgan. Yosh Behzodning iste'dodi, san'ati Alisher Navoiy diqqatini o'ziga jalb etadi. Mashhur fransuz san'atshunos I. Shishkinning yozishicha: "Behzod – musavvir Mirak Naqqosh rahbarligida shakllangan bo'lsa, ijodining yuksak bosqichiga ko'tarilishi davlat arbobi, metsenat shoir Mir Alisher rahbarligida bo'ldi. Xuddi ana Shu zotning homiyligi, rahbarligi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi natijasida Behzod va Shohi Muzaffarlar rassomchilikda Shuhrat qozondilar"² Yana o'sha olimning xabar berishicha, Behzod ma'lum vaqt Alisher Navoiy kitobxonasida ijod etgan va keyinchalik ustози Mirak Naqqosh rahbarlik qilgan Sulton Xusayn kitobxonasiga rahbarlik lavozimida ijod etadi.

Yuqorida keltirilgan XV asr ikkinchi yarmidagi tasviriy san'atdagi o'zgarishlar, asosan, Behzod ijodidan boshlanadi, deyish mumkin. Buyuk rassom ijodining kamolotida inson obrazi tasviri, uni harakatda berish, mo'ljaz san'at imkonidan to'liq foydalangan holda personajlarning individual xususiyatlarini bera olishga erishadi. Jonli hayotdan olingan peyzajlar va epizodlarni real tasvirly bilish tasvir doirasini kengaytirish orqali Behzod miniatyura san'atini jonlantirdi. Behzod ijodiga xos bo'lgan ana Shu xususiyatlarni shogirdlari davom ettirdilar.

Mashhur sharqshunos, professor A. Yu. Yakubovskiy "Alisher Navoiy davridagi ijtimoiy va madaniy hayot xususiyatlari" maqolasida san'atshunoslar haligacha chetda qoldirib kelayotgan "Alisher Navoiy Behzod ijodining qaysi tomonlariga ta'sir etishi mumkin edi?" degan savolni qo'yadi. Olim o'z fikrini davom ettirib, "Behzod asarlarining qimmatini faqat shodlik baxsh etuvchi yorqin bo'yoqlar jurligi va nafosatidagina emas, balki va ayniqsa, o'z ijodi tematikasiga juda jiddiylik bilan yondashishidadir. U faqat ajoyib portretlar (Sulton Husayn portretini eslaylik), feodal saroylaridagi qabul marosimlari ("3afarnoma"dagi "Bog'da Temurning qabul marosimi"ni olaylik), jang maydoninigina ishlamaydi,

balki mehnatkash xalq hayoti temasini ham ishlaydi. Alisher Navoiy uni qo‘llab-quvvatlagan, eng ahamiyatlisi Shundaki, uning ijodiga ta‘sir etgan, tematikani anglab etishga, ko‘rganimizdek, yuqori darajaga ko‘tarishga yordam bergan”, deydi Yakubovskiy A. Yu. Olimning bu fikri Behzod ijodi va umuman Navoiy davridagi miniatyura san‘atiga yangicha yondoshishga da‘vat etadi.

Sharqda qabul qilingan an‘anaga ko‘ra, afsuski, aksariyat asarlarda musavvir naqqosh, sahhof, hatto ba‘zida hattot ham o‘z nomini yozib qoldirmaydi. Behzoddek san‘atkor ham faqat ba‘zi rasmlardagina “amali abd Behzod” yoki oddiygina “Behzod” so‘zlarini yozib qoldirgan, xolos. Ba‘zi o‘rinlarda o‘rtacha rassomlar o‘z asarlarini ustozlar mo‘yqalamiga nisbat berib, ularning nomlarini yozib qo‘yish holatlari ham uchraydi. Hozirgi kunda san‘atshunos olimlardan R. T. Shchukin, A. Sakisyan va boshqalar chet el fondlarida uch va sobiq Ittifoqida ikki qo‘lyozmaga (Sa‘diyning “Buston”, Nizomiyning ikki “Xamsa”si va Sankt-Peterburgda Amir Xusrav Dexlaviyning “Layli va Majnun” asarining ikki qo‘lyozmasi) ishlagan miniatyuralar va Istambuldagi “Guliston” saroyidagi san‘at muzeyida saqlanayotgan “Muraqqa”dagi rasmlar haqiqatan Behzod mo‘yqalamiga mansub, degan fikrdalar.

XVI asr Movarounnahr, Xuroson va Erondagi notinchliklar, Shayboniyxon va Safaviylar janglari bilan boshlanadi. 1506 yili Sulton Husaynning vafotidan keyin Hirot avval Shayboniyxon, keyin Safaviylar qo‘liga o‘tadi. Bu davrda feodal ziddiyatlarining keskinlashishi, islom dinidagi mazhablar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni ham keskinlashtiradi, natijada Movarounnahr bilan Xuroson, Eron madaniy aloqalari zaiflashadi. Hirotida Navoiy davrida yashab, ijod etgan adib, olim, hattot, san‘atkorlarning bir qismini Safaviylar Tabrizdagi saroyiga jalb etgan bo‘lsa, ikkinchi qismi bu besaranjom davrda Buxoroda, Shayboniylar saroyida boshpana topadilar. Endilikda tasviriy san‘atda, san‘atshunos olimlar ta‘biricha, miniatyura san‘atining “tabriz maktabi”, “Buxoro maktabi” tashkil topadi.

Shu o‘rinda tarixchi, san‘atshunos va adabiyotshunos olimlarning diqqatini bir mulohazaga jalb etmoqchimiz. Evropa san‘atshunos olimlaridan qaysi birining asarlari bilan tanishmang, Navoiy davri tasviriy san‘ati, jumladan Behzod va u yaratgan maktab vakillari Shohi Muzaffar, Mahmud Muzahhib Qosim Ali, Hoji

Muhammad Naqqosh, Darvesh Muhammad, Yusuf Naqqosh kabilar ijodini Eron miniatyura san'ati namunasi sifatida qaraladi. Vaholanki, Xuroson aholisining ko'pchiligini turkiy xalqlar tashkil etishi, Sulton Xusayn davrida yashab, ijod etgan adiblarning askariyati o'zbek adabiyoti namoyandalari ekanligi, Alisher Navoiy esa o'zbek adabiy tilining asoschisi, adabiyotining genial vakili ekanligi fanda e'tirof etilgan. Shunday bo'lgach, nima uchun xuddi ana Shu davrda, ana Shu madaniy muhitda, Alisher Navoiy rahbarligida, Samarqand va umuman Movarounnahr tasviriy san'ati an'analari asosida rivoj topgan kitobat san'ati, mo'jazz rasmlar eron san'ati namunasi bo'lishi kerak? Fikrimizcha, san'at ham adabiyot kabi, ayniqsa badiiy asarlar. Qo'lyozmalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan naqqoshlik va mo'jazz rasmchilik san'ati, badiiy tafakkurning mahsulidir, Shunday ekan, nima uchun Samarqand adabiyoti", "Hirot adabiyoti", "Buxoro adabiyoti" deyilmaydi-ku, tasviriy san'atda ana Shu iboralar qo'llanadi?! Navoiy asarlari o'zbek adabiyoti durdonalari bo'la turib, ularni tasviriy san'atda yorituvchi rasmlar eron san'ati namunasi bo'ladi?!

Eng ko'p badiiy bezaklar o'zbek adabiyoti namunalari orasida Alisher Navoiy asarlariga ishlangan. Buyuk shoir asarlarining dastlabki to'plami (uni "Ilk devon" deb ataganmiz) 1465-66 yili Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, Navoiyning birinchi" Devon" i bo'lish bilan birga, xattotning jahonda ma'lum bo'lgan qo'lyozmalarining ham birinchisidir. Shoirning 24 yoshida ko'chirilgan bu noyob qo'lyozma Sankt-Peterburgdagi Saltikov-SHchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida saqlanadi. Qo'lyozmaning Iloho podiShohio kirdikoro, Senga ochuq nihonu oshkoro, bayti bilan boshlanuvchi g'azal joylashgan dastlabki ikki beti oltin suvi va rang-barang bo'yoqlarda g'oyat nafis naqshlar bilan to'liq bezatilgan. Yirik, go'zal nasta'liq xatida ikki ustunda bitilgan matn zarjal jadvallar bilan o'ralgan. Har bir sahifa xoshiyasi etti xil - lojuvard, pistoqi, yashil, samoviy, novvotrang, qirmizi, za'faron ranglarga bo'yalgan va ularga turli bo'yoqlarda gul va daraxt barglaridan naqshlar ishlangan. "Ilk devon" Xirotda ko'chirilgan naqlishi bezakli qo'lyozmalarining tipik namunasi.

Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari orasida mo'jazz rasmlar bilan

ziynatlanganlarining eng qadimiysi O‘zbekiston FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining fondida saqlanadi, ustod Sulton Ali Mashhadiy tomonidan Sulton Husayn xazinasi uchun ko‘chirilgan “Navodir an-nihoya” devoni qo‘lyozmasidir. Qo‘lyozma Navoiy davri kitobat san’atining xarakterli namunasi bo‘lib, ko‘chirilgan yili kolofonda keltirilmagan taxminimizga ko‘ra 1475-1480 yillarda bo‘lsa kerak. Qo‘lyozma XIX asrda Qo‘qon qog‘ozi bilan restavratsiya qilingan, karton muqova ham keyingi davrniki, qo‘lyozma boshidagi oq varaqdagi muhrda sana bor.

“Devon”ning Zihi zuhur jamoling qo‘yosh kibi paydo, Yuzung qo‘yoshiga zarroti kavn ulub shaydo, bayti bilan boshlanuvchi birinchi g‘azali naqshin hoshiya va ramqa ichida yozilgan. Shu davrda tayyorlangan boshqa hirot qo‘lyozmalardan farqli ularoq frontispis ornamentlari. bo‘yoqlar gammasi soddagina, asosan lojuvard va oltin suvida berilgan. 185 b varaqda g‘azallar tugallanib, mustazodlar boshlanish oldidan suyuqqina oltin suvi bilan ishlangan oddiygina unvon bor. Varaqlar orasida ham onda-sonda oltin suvi bilan o‘simlik ornamentlari ishlangan, 6 miniatyura bor. Ularning deyarli hammasi shoir va mahbuba mavzuida bo‘lib, g‘azallar orasiga joylashgan. Miniaturalarning hammasida zarrin osmon fonida lista rang, sariq, binafsha, surmarang adir, cho‘lga xos bo‘lgan, kam giyohlik tabiat manzarasi, faqat ikki o‘rindagina bir, ikki daraxt tasvirlangan. Ana Shu fonda gilamcha to‘shalgan, asosan personajlar uning ustida, xizmat qiluvchilar atrofida berilgan, bundan 157a varaqdagi miniatyura mustasno. Unda Muhammadning Buroqda afsonaviy uchishini tasvirlovchi an’anaviy syujet berilgan.

Rasmlarning hammasi ham oddiygina ishlangan, tabiat manzarasi juda kambag‘al, biror o‘rinda ham inshoot, binolar berilmagan, bo‘yoqlar ham ko‘p turli, boy emas kiyimlar ham oddiygina. Qo‘lyozmadagi miniatyuralarni sinchiklab o‘rganar ekanmiz, Hirotda 80-yillarda, Behzod 25 yoshda ekan, Mirak Naqqosh Sulton Husayn kitobxonasiga rahbarlik qilib turgan davrda, Shohi xazinasi uchun ko‘chirilgan “Devon” Shunchalik kamtarona bezatilganiga kishi hayron qoladi.

Qo‘lyozmadagi miniatyuralar yaxshi saqlanmagan, ayniqsa odamlar

chehrasining bo‘yoqlari to‘kilib ketgan, faqat 296 va 97 a varaqlaridagi asosiy personajning yuz tasviri saqlanib qolgan, xolos. Har ikkalaasida ham dumaloq yuzli, qaboqlari keng, mo‘ylabli yosh odam tasvirlangan.

Alisher Navoiyning badiiy bezaklik “Xamsa”lari orasida eng qadimiysi Angliyaning Oksford universitetidagi Bodleyan kutubxonasida va qisman Manchester universiteti kutubxonasining Jon Riland fondida saqlanayotgan qo‘lyozmadir. Bodleyan-Manchester “Xamsa”si 1485 yili kuchirilgan. Ingliz diplomati F. G. Ousley 1810-1812 yillarda Fatali Shohi saroyida xizmatda ekanida juda ko‘p qo‘lyozma to‘plagan. Uning vafotidan keyin (1844) o‘g‘li qo‘lyozmalarning 39 tasini Bodleyan kutubxonasiga sotgan. Patnalik J.B.Eliot ana Shu kutubxonaga 422 qo‘lyozma taqdim etadi, ularning ham ko‘pchiligi Ousleydan olingan edi. Navoiy “Xamsa”sining to‘rt dostoni ana Shu tortiq, orasida bo‘lgan. “Layli va Majnun” esa Jon Riland kolleksiyasidan Manchester universiteti kutubxonasiga olingan.

“Xayrat ul-abror”da to‘rt, “Farhod va Shirin”da bir, “Layli va Majnun”da ikki, “Sab’ai sayyora”da ikki va “Saddi Iskandariy”da to‘rt yuksak saviyada ishlangan mo‘‘jaz rasmlar bor. Ingliz san’atshunos B.U. Robinsonning xabariga ko‘ra har qaysi dostonning boshlang‘ich varaqlarida miniatyuralar bo‘lgan bo‘lsa, ular qo‘lyozmadan yirtilib olinib, o‘rniga zamonaviy qog‘ozlar yopishtirilgan.

Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar orasida ushbu “Xamsa” rasmlari badiiy yuksakligi bilan ajralib turadi. Evropaning mashhur san’atshunoslari A.Sakisyan, L. Bin’on, J. Vilkinson, B. Grey, I. Shchukin, B. Robinson kabilar Badiuzzamon “Xamsa”si miniatyuralariga yuksak baho berib, ular Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali kabi san’atkorlar mo‘yqalamiga mansub ekanligini aytadilar. Qanday bo‘lmasin, qo‘lyozmadagi 13 miniatyura detallarda bir-biridan farq qilsada, bo‘yoqlar boyligi, kompozitsiyaning murakkabligi, personajlarning ko‘pligi, ular qyofasida individuallik elementlari borligi, ularni harakatda berishga urinish, kiyim-kechaklarning turliligi, tabiat, shahar manzaralarining boyligida umumiylik bor.

Alisher Navoiy asarlarining bezakli qo‘lyozmalari orasida Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Hedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasi qo‘lyozmalar

fondidi saqlanayotgan “Xamsa” va O‘z.FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan ikki terma ”Devon” qo‘lyozmalari alohida ahamiyat kasb etadi. Har uchala asarni ham “Ibrat al-kuttob” Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan. To‘g‘ri, ularda miniatyuralar yo‘q, ammo qog‘oz ranglari, xat uslubi, jadvallar, naqshin xoshiyalar (devonlarda), shamslar. aql bovar qilmaslik darajasidagi nafis ishlangan lavha, zarvaraqlar, naqshin varaqlar (frontispis) ularning Navoiy davri san’atining durdonalaridan ekanligini ko‘rsatadi.

Sankt-Peterburg “Xamsa”si 1492-93 yillari Sulton Husayn kutubxonasi uchun ko‘chirilgan. Qo‘lyozmani xattotlar qiblagohi Sulton Ali ko‘chirgani, Mavlono Yoriy muzahhib zarxal bergani, ustoz Sulton Ali Marviy muqovasini ishlagani haqida ma’lumot bor.

“Xamsa” dostonlarining har biriga ikkita ikkiyoqlama geometrik va o‘simlik naqshlari ishlangan zarvaraqlar berilgan, ularning birinchi jufti shmutstitul vazifasini ado etib, ornamentlar orasida oq bo‘yoqda asar nomi yozilgan, ikkinchi jufti esa asar boshlanishiga ishlangan bezakdir. Qo‘lyozma boshiga ham geometrik naqshlar ishlangan ajoyib frontispis berilgan, unda shoir va asar nomi yozilgan. Shunday qilib qo‘lyozmada 22 naqshin-zarrin varaqlar bor. Har bir sahifadagi naqshin bezaklarda ornamentga xos bo‘lgan umumiy uslub, garmoniya, kompozitsiya, rangomuzini saqlagan holda muzahhib va naqqosh o‘n bir naqshin varaqlarning har birida san’atning takrorlanmas yuksak namunasini yaratdilar. Shunisi qiziqki, naqshin varaqlardan keyin oddiy tekst boshlanib ketmay, bezaklar yana bir necha sahifa davom etadi, xattot Sulton Ali baytlarni turli alfozda joylashtirib, ular orasiga muzahhib Yoriy mo‘‘jaz ornamentlar, zarhallar ishlaydi, oddiy tekstga o‘tish sekin-asta bo‘ladi. Bunday jo‘z’iy ziynatlar dostonlar o‘rtasida ham onda-sonda uchrab turadi. Qo‘lyozmani bunday bezashdan maqsad kitobxon ko‘ziga dam, didiga estetik hordiq berish bo‘lsa kerak. Yuqoridagilardan tashqari, har bir dostonning oxirgi sahifalariga ham bezaklar berilgan.

Odatda, qadimgi qo‘lyozmalar muqovolari juda kam saqlanib qoladi, borlari ham juda aftodaholdir. Ammo, Sulton Ali Marviy ishlagan “Xamsa” muqovasi bizga yaxshigina ahvolda etib kelgan. Qora charmga zarhalda ishlangan nafis ornamentlar kishini hayratda qoldiradi. Bu muqova XV asr badiiy muqovasining

ajoyib namunasi. Hozirgacha bizga ma'lum bezakli qo'lyozmalar orasida Sankt-Peterburg "Xamsa" sig'a o'xshatib bezatilgan birorta ham qo'lyozma uchramadi.

"Xamsa"ning Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan yana ikki nusxasi bizga ma'lum. Biri Sankt-Peterburg "Xamsa" sidan bir yil avval ko'chirilgan bo'lib, ingliz qirollarining Vindzordagi saroyi kutubxonasida saqlanadi. Afsuski, hech qaysi katalogda yoki miniatyura san'atiga bag'ishlangan ishlarda bu qo'lyozma qayd etilmaydi. 1968 yili Angliya safari paytida Vindzorda bo'lib, qirolcha Elizaveta 11 kutubxonasidagi qo'lyozmalar bilan tanishishga muyassar bo'ldik. Ular orasida bizni qiziqtirganlari Alisher Navoiyning "Xamsa" si va "Devon" i bo'ldi.

Vindzor "Xamsa" si 1491-92 yilda nixoyatda guzal mayda nasta'liq xatida kuchirilgan. formati 24X35,5 sm. Matn to'rt ustunda, oltin va lojuvard jadval bilan o'ralgan. 308 varaq. Yuqa ipak qog'oz ba'zi o'rinlarda ochroq, ba'zida qilib xinaga bo'yalgan hamma sahifalaridagi matn orasiga mayda, hoshiyasiga yirikroq qilib oltin suvi purkalgan. Qora charmga oltindan naqshlar ishlangan qadim muqova saqlangan.

"Hayrat-ul-abror" juda nafis naqishi ikki sahifadan boshlanib, qolgan to'rt doston boshlanishiga lavhalar ishlangan. Faqat "Hayrat al-abror" to'rt miniatyura ishlangan. Afsuski, Navoiy davridagi Hirot musavvirlari tasvirlarining ko'p joylari, ayniqsa asosiy personajlar o'chirilib, xind uslubidagi rasmlar ishlangan: 66 varaqda xristian dini tasavvuridagi ziyofat, 7a varaqda ziyofat, 31a varaqda jang maydoni, 36b varaqda "Muhammad XorazmShohi, va Faxr ar Roziy hammomda" voqealari tasvirlangan. Bular orasida "hammom" miniatyurasidagi dastlabki tasvir saqlangan, xolos.

Qo'lyozmaning bo'sh qoldirilgan 1a varag'ida 1627-28 yili kitob Hindistonda Shohijahon xazinasiga kelib tushganligi, narxi ming rupiya ekani haqida yozuv bor. Alisher Navoiyning Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan va naqshlar, mo'ja rasmlar bilan bezatilgan "Xamsa" sining yana bir nodir qo'lyozmasi Turkiyaning To'pqpopi saroyining Revan kutubxonasida saqlanadi. Qo'lyozma 1494-95 yili ko'chirilgan, 27 5 varaq. Unda "Farxod va Shirin" ning boshlanishida bitta, oxirida bitta, "Layli va Majnun" boshlanishida ikkita, "Sab'ai sayyora"

boshlanishida ikkita, jami 6 ta miniatyura, har qaysi dostonlarning birinchi saxifasida rangdor frontispislar bor. Ammo ularning slaydlari bizda yo‘q.

Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Hedrin nomidagi Davlat xalq, kutubxonasida “Xamsa”ning “Hayrat al-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’al sayyora” dostonlaridan iborat 1521-22 yillarda Shohiruxiyada ko‘chirilgan nusxasi ham bor. Unda 23 miniatyura bo‘lib, ular haqida batafsil ma‘lumot G.A.Pugachenkova va O.I.Galerkinalarning “O‘rta Osiyo miniatyuralari” asarida berilgan.¹ Vindzor kutubxonasida Alisher Navoiyning Sulton Ali Mashhadiy yirik nasta‘liqda ko‘chirilgan kattagina terma devoni qo‘lyozmasi ham saqlanadi. Matn ikki ustunda formati 22-30 sm, 819 varaq, ko‘chirilgan yili yo‘q. Devonda Navoiy yaratgan hamma janrlar namunalari bor. “Xazoyin al-maoniy”ning birinchi g‘azali bilan boshlanuvchi devonning 16-2a sahifalari boy ornamentli rangdor frontispis bilan bezatilgan.qo‘lyozmada. Hirotda ishlangan 7 miniatyura bo‘lib, afsuski, bunda ham hind rassomlari ularni buzib, “qayta” ishlaganlar. Ushbu qo‘lyozma Buxoro amirlari kutubxonasida saqlangan, 1872 yili Angliyaning Xindistondagi gubernatori ser K.T.Argil orqali Buxoro amiri qo‘lyozmani qirolicha Viktoriyaga taqdim etgan. (gubernatorning xati kitob ichida turipti). Shuning uchun bo‘lsa kerak, qo‘lyozmada inventar raqami bo‘lmay, faqat” Buxoro qo‘lyozmasi” deb ataladi.

Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan Alisher Navoiy Qulliyoti” fanga ma‘lum nusxalar orasida o‘zining mukammalligi, yaxshi saqlanganligi va badiiy bezagi bilan ajralib turadi va Hirotda yaratilgan badiiy qo‘lyozmalarning eng go‘zal namunalaridan bo‘lgani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Parij qulliyoti Bobiriylarning saroy kutubxonasiga taalluqli bo‘lib, Arman Hindiston sayoxati vaqtida qo‘lyozmani sotib olgan, 1757 yilda, uning vafotidan keyin, kitob Milliy kutubxonaga tushgan. Qulliyotning bu nusxasi avvalo M.Belin, keyinchalik E.Bloshe tomonidan tavsiflangan qo‘lyozmadagi ayrim mo‘‘jaz rasmlar Evropa san‘atShunoslari tomonidan albomlarda bir necha bor nashr etilgan.

¹ Вертельс Е.Э. Избранные труды Навои и Джами. М, 1985, с. 55.

² Pugachenkova G. A Xsherkina O. I. Minatyury Sredney Azii. M,1979, s. 26-27.)

Parij qulliyoti, shu turdagi boshqa qo‘lyozmalardan farqli ularoq, ikki jildidan iborat. Sunisi qiziq-ki, xattot qo‘lyozmaning 12 joyida juda ixcham qilib o‘zbek, fors, arab tillarida kolofon bergan. Bunday holat boshqa birorta qo‘lyozmada uchramaydi. Birinchi jildning 289 b sahifasida va ikkinchisining oxirida 406 b varag‘ida keltirilgan kolofonlarga ko‘ra, kitob uch yil (1523-24 va 1526-27 yillar) davomida Hirotda Sulton Alining shogirdlaridan xattot al-Hijroniy tomonidan ko‘chirilgan. Yupqa oqish ipak qog‘ozga matn juda chiroyli mayda klassik nasta’liq xatida, to‘rt ustunda joylashtirilgan.

Parij qulliyotini yaratish ustida xattotdan tashqari musavvir, naqqosh, muzahhib, sahhoflar ham ishtirok etganlar. “Qulliyot” qo‘lyozmasini Hirotda Alisher Navoiy tarbiyalab etishtirgan xattot, musavvir, naqqosh, muzahhib, sahhof, umuman, buyuk shoir muhitidagi san’atkorlar o‘z valine’matlari xotirasi oldidagi so‘nggi vazifalarini ado etishlari deb tushunish mumkin.

Keyinchalik XVI asrda Alisher Navoiy asarlarining badiiy bezakli qo‘lyozmalari Sheroz, Tabriz va Buxoroda ko‘plab tayyorlanadi. Har uchala shahardagi badiiy qo‘lyozma tayyorlash kitobxonalariga asos solgan va san’atkorlar pleyadasini tayyorlovchilar Hirotda Navoiy davrida kamol topgan madaniyat arboblari bo‘ldilar. Bu o‘rinda Tabrizda tayyorlangan Navoiy terma devonning badiiy bezakli uch nusxasi xarakterlidir. Ularda odatda lirik asarlarga ishlanuvchi an’anaviy mazmun-tabiat quchog‘ida yoki bog‘shPONIDA suhbat, engil ziyofat va bazm tasvirlanadi. Kompozitsiya jihatidan bu rasmlar soddagina, bir-biriga yaqin, figuralar kamgina, markaziy qahramon atrofida joylashtirilgan, bo‘yoqlar hammasi ham boy emas. Ko‘pincha personajlarda individuallik yo‘q, ular harakatda ham berilmaydi. Lekin tarixiy asarlar, dostonlar rasmlari (“Zafarnoma”, “Jami at-tavorix”, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy asarlari) o‘ta tantanaviy uslubda ishlangan, rassomning asosiy diqqati Hirotda ishlangan miniatyuralardagidek, personajlar, odamlarga emas, balki ularni qurshagan sharoit, manzara, buyumlarga qaratilgan. XVI asrda Movarounnahrda Shayboniylar poytaxti Buxoro rassomchilik san’ati markaziga aylanadi. Endilikda O‘rta Osiyo rassomchiligi

Hirotdan kelgan san'atkorlar faoliyati natijasida Behzod maktabiga xos bo'lgan gumanistik g'oyalar, yuksak mahorat xususiyatlari bilan Shayboniylar hukmdori didiga binoan ko'chmanchilik hayotiga xos urf-odat, cho'l manzaralari uyg'unlashadi. Demak, Buxoro rassomchiligida uch element – temuriylar davri Samarqand va Buxoro, Navoiy davri, Behzod maktabi bilan ko'chmanchilik hayoti elementlari mujassamlanadi. Ko'pincha kompozitsiya, saroylar tasviri Hirotda uslubida tabiat manzaralari, odamlar chehrasi, kiyim-kechaklar erli uslubda tasvirlanadi, oddiy hayot manzaralari, xalq vakillari obrazlari ham beriladi. Tema jihatdan esa axloq, odob masalalarini yoritishga ko'proq ahamiyat beriladi. Hirotda kanon tusini olgan an'anaviy mazmun chegarasidan chiqib, asar mazmuniga yangicha talqin beriladi. Bu o'rinda ayniqsa Shohiruxiyada ko'chirilgan Navoiy "Xamsa"si miniatyuralarini eslab o'tish o'rinli bo'ladi.

Buxoroda Ubaydulloxon va undan keyingi Shayboniylar davrida saroyda badiiy bezakli qo'lyozmalar tayyorlash ishi davom etadi. Ammo, viloyatlarda tayyorlangan badiiy qo'lyozmalardan farqli ularoq, Buxoroda qo'lyozmalar Xon nazorati ostida ishlangan. Sulton Mirak Munshi, mavlono Mir Ali Kotib kabi mashhur xattotlar Sulton Ali Mashhadiy an'alarini davom ettiradilar. Asosan klassik adabiyot namunalari, Nizomiy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy asarlarining badiiy bezakli qo'lyozmalari tayyorlanadi. Ularga ishlangan mo'jaz rasmlarda Hirotda an'analari (ayniqsa Maxmud Muzaahhib ishlarida) davom ettiriladi. Bir tomondan tantanali saroy hayoti, saroy axllarining nazokatli vakillari, go'zal tabiat manzaralari tasvirlansa, ularga antiteza sifatida oddiy mehnatkash ommasi vakili ham beriladi. (Nizomiy "Maxzan al-asror"iga Mahmud Muzaxhib tomonidan ishlangan rasm "Sulton Sanjar va kampir", 1545 yil, Parij milliy kutubxonasi, yoki Sa'diy "Guliston"iga 1547 yili noma'lum rassom tomonidan ishlangan miniatyuralar, Jeneva, M. Bodmer, G.U1.5.)

Buxoro san'atkorlari ko'pincha falsafiy allegorik asarlarni majoziy ma'noda emas, balki tom ma'nosida talqin etadilar. (Jomiy, "Tuhfat al-axror", "Uchib ketayotgan toshbaqa", "Go'zal qiz va chol", XVI asr o'rtasi, GPB Dorn 425). Alisher Navoiyning Parij milliy kutubxonasida saqlanayotgan "Lison at-

tayr” asarining 1553 yilda Buxoroda ko‘chirilgan qo‘lyozmasiga ishlangan rasmlar ham ana shu xarakterdadir. Ishq oldida Shayx San’onning foniyi mutlaq bo‘lib, ma’Shuqasiga fidoiylik ko‘rsatib, iflos cho‘chqalarni boqib yurishni rassom oddiygina, yirik planda tasvirlagan, majoziy ma’no faxmlanmaydi.¹ XVI asr Buxoro rassomchiligiga xos bo‘lgan bu xususiyat mamlakat hayoti, ekonomikasida uchinchi tabaqa hunarmandlar sezilarli rol o‘ynaganidan darak beradi.

Buxoroda ishlangan badiiy qo‘lyozmalar orasida Angliyaning Oksford universiteti Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyora” va “Saddi Iskandariy” dostonlari muhim o‘rin egallaydi. Har ikkala doston “Xamsa”ning alohida-alohida besh kitob sifatida tayyorlangan qo‘lyozmasining to‘rtinchi va beshinchi jildidir, afsuski dastlabki uch doston qo‘lyozmasi haligacha hech qaerda uchramadi. Dostonlarning bu nusxalari Buxoro badiiy qo‘lyozmasining eng yuksak namunasidir. Xati nihoyatda go‘zal, ravshan, mayda nasta’liq, matn to‘rt ustunda, xoshiyalarga oltin suvi purkalgan va o‘simlik, geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Kitoblar yaxshi saqlangan, muqovasi ham qadimiy, jilo berilgan, charmdan. Ko‘chirilgan yili 1553. Har ikkala dostonning birinchi sahifasiga nihoyatda nafis, rangdor unvon ishlangan va o‘rtasiga “Sab’ai sayyora” va “Saddi Iskandariy” so‘zlari yozilgan. “Sab’ai sayyora”ga o‘n, “Saddi Iskandariy»ga beshta juda ajoyib, g‘oyat mahorat bilan ishlangan mo‘‘jaz rasmlar berilgan. Bu rasmlar ko‘pincha qo‘lyozmaning butun varag‘ini ishgo‘l qiladi. Har ikkala doston qo‘lyozmalariga ishlangan o‘n besh miniatyura go‘zalligi, nafosati, bo‘yoqlarining rangdor va ravshanligi, mutanosibli, chiziqning nafisligi, personajlar qiyofasining jozibadorligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ayniqsa, ayollar obrazlari juda nozik ishlangan hatto tirnoqlari “xinodan lolarang” etib tasvirlangan. Miniaturalarda tasvirlangan voqalar dostonlar mazmunini to‘liq yoritadi. Buxoroda XVI asrda kamolot cho‘qqisiga chiqqan kitobat va mo‘‘jaz rasmlar san’ati XVII asrda ham davom etdi. (Firdavsiy, Shohinoma. 1602-1603 yillar, Jomiy. Suhbat al-abror. XVII asr boshi, Durbek, Yusuf va Zulayxo. 1615, Sa’diy. Buston. 1616, Nizomiy. Xamsa. 1648, Firdavsiy. Shoxnoma. 1664, Nizomiy. Xamsa. 1668-1671, Majolis al-

¹ Pugachenkova G. A, Galerkina O. I Miniatur o‘ Sredney Azii. M, 1999 s. 30.

ushshoq. XVII-XVIII asrlar o'rtasi). Lekin endi ziynatlangan qo'lyozmalar o'rtasida Navoiy asarlari uchramaydi. XVII asr Buxoro rassomchilik san'ati, umuman olganda, XV-XVI asr an'analarini davom ettirsa, kamolotdan chekinish sezilib turadi.

XVIII asr o'rtalaridan Movarounnahrda Xorazm va Qo'qon davlatlari territoriyasining qat'iylashishi, feodal markazlashgan davlatlar yuzaga kelishi bu xonliklarda ishlab chiqarish, ichki va tashqi savdo aloqalari va madaniyatining rivoj topishiga sababchi bo'ldi. Xorazm, Buxoro va Qo'qon xonlari kitobxonalarida zamonaviy adiblar asarlari bilan bir qatorda klassik adabiyot namoyandalari asarlari ham kitobat qilinib, tarqatildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, klassik adiblar orasida, ayniksa, Alisher Navoiy asarlarining deyarli hammasi har uchchala davlatda ham qayta-qayta ko'chirilib, tarqatildi. Shu o'rinda bir qiziqarli faktni keltirmokchimiz: O'zFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Alisher Navoiyning "Xazoyin almaoniy"ning Qo'qonda ko'chirilgan nusxasida quyidagi kolofon berilgan: "...Navoiy ab'yotidin bir matla' fitrat ma'niy pisandina marg'ub tuShub va tab'i mavzuniga majlub kurundi xizmatkor zoti ixtisos va muruvvati ixlosdumon xidmatiga madomat kistar Muhammad Siddiq Tunqator soe'ga xitob etib amri oliy sadur topdikim, Navoiy Devonini maktub etmakka buyurgil, farmoni oliy ta'siridin biri Shulkim muddat olti oy ichra uch yuz adad Devoni mujallad va musharrar bo'ldi...". Ana Shu davrda Alisher Navoiyning 1824-25 yilda Qo'qonda Mullo Ruzi tomonidan ko'chirilgan besh dostoni majmuasi ham kitobat etilgan edi. Qo'lyozma 429 varaqdan iborat, formati 18-30,5sm. Dostonlar "Lison at-tayr", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyora", "Saddi Iskandariy" izchilligida joylashtirilgan qo'lyozma sahifalari rangdor, zarhal gullar bilan bezatilgan, muqavasi qora charmdan. Batafsil she'riy kolofon berilgan qo'lyozmada 46 miniatyura bo'lib, hech qaysi rasmda yoki kolofonda musavvir nomi ko'rsatilmagan. Fazliyning "Majmuat ash-Shuaro"sida berilgan ma'lumotlarga suyangan holda miniatyuralar Muhammad Kosoniy muyqalamiga mansub bo'lsa kerak, degan fikrdamiz.

Qo'lyozmadagi 46 miniatyura orasida an'anaviy va avval uchramagan

mazmundagilari ham bor, birinchi va ikkinchisida an'anaviy mazmun, Muhammad payg'ambarning afsonaviy Buroqda osmonga xayoliy uchishi, ammo bu rasmda boshqalardan farqli o'laroq Muhammad tasviri chizilmagan, "Shayx San'on Rumda xristian go'zali oldida" epizodi tasvirlangan qolgan oltitasi "Lison-at-tayr"ga avval ishlangan rasmlardan tematik jihatdan farq qiladi. "Shayx Sayid Abul Xayr hikoyati" rasmda markazda tasbeh ushlab turib hikoya qilayotgan Shayxni to'rt muridi yarim doyra shaklida qurshagan. Ung tomonda afsonaviy shaxs - qanotli bosh parvozda. Yuqorigi plandagi moviy osmon fonidagi asosiy ishni katta daraxt tasviri egallagan. "Sulaymon payg'ambarning Hindistonga uchishi" voqeasiga ishlangan miniatyurada taxtda o'tirgan Sulaymonni oq -qora, qizg'ish, jigarrang to'rt dev uchirib ketayotgani, orqada esa uni elpib ketayotgani berilgan. Bulardan tashqari, "Shayx Porso xaqshunoslardan birining savoliga javob bermoqda", "Balx Shohii va uning o'g'li", Hayrat vodiysi" va "Shayx Abul Abbas fano vodiysida" rasmlari bor. Shunisi qiziqki, bularning hammasi boshqa qog'ozga ishlanib. keyin yopishtirilgan. Islom dini reaksiyasi kuchaygan bir davrda yaratilgan "Lison at-tayr" miniatyuralari tematika jihatdan davr talabiga javob berib, dostonidagi dini tasavvuf elementlarini yoritgan.

"Farhod va Shirin"ga "Shirin tog' g'aziyotgan Farhod huzurida", "ot mingan Shirinni ko'targan Farhod", "Xusrav cho'milayotgan Shirinni ko'radi", "Xusrav va Buzurg Umid", "Shirin Xusrav rasmini ko'rmoqda", "O'lgan Farhod", "Shirin o'z qasrida"? "Farhod va Shirin bir tobutda" miniatyuralari ishlangan. Bular orasida ba'zilari an'anaviy mazmunda bo'lsa, "Shirin o'z qasrida" temasi birinchi bor uchramoqda. "Cho'milayotgan Shirin", "Shirin Husrav rasmini ko'rmoqda" epizodlari Navoiy dostonida umuman yo'q. Doston 158 a varaqda tugallanib, ikki oq sahifadan keyin, 159 b varaqda "Shirin bilan yotgan Xusravni Sheruya o'ldirayotgani" rasmi ham beriladi, dostonida bu voqea ham yo'q.

"Layli va Majnun"ga "Layli va Majnun maktabda", "Majnun va otasi Makkada" (ammo rasm Majnun dashtda hayvonlar orasida turganini tasvirlovchi bobga joylashtirilgan), "Hayvonlar orasidagi Majnun huzuriga Navfalning kelishi", "Navfal Majnun otasining Huzurida", "Layli dashtda Majnun

huzurida”, “Majnun Layli chodiri oldida”, yana “Layli dashtda Majnun huzurida” va “Layli va Majnun qabri oldida” rasmlari ishlangan.

“Sab’ ai sayyora”ga ishlangan miniatyuralarda an’anadan chetlashish katta: “Moniy Bahrom rasmida Dilarom tasviri yo‘q. Nima uchundir ov epizodiga ikki rasm ishlanib, birida Bahromning o‘zi berilsa, ikkinchisida Dilarom ham chizilgan (ammo u musiqiy asbobsiz, etti qasr rasmlari bo‘yoqlarining qasrlar nomlariga monand emasligi (sandal qasri qizil g‘isht rangida), tabiat, interer, binolarning ibtidoiyligi, kompozitsiya soddaligi, personajlarning kamligi bilan avvalgi davr miniatyuralaridan ajralib turadi.

“Saddi Iskandariy, ga ishlangan miniatyuralar ham klincha an’anaviy mazmundan uzoqlashganlik yoki bir epizodga ishlangan rasmni ikkinchisiga joylashtirish, mazmunga aloqasi yo‘q miniatyuralar ishlash bilan ham xarakterlanadi. “Qashqir hakimi va singlisi Mehrnozy-, “Iskandar va Ravshanak”, “Ra’d bilan jang”, “Band etilgan devni etaklagan Iskandar” kabi rasmlar hech qaysi qo‘lyozmada haligacha uchramagan. Bu dostonga yuqoridagilardan tashqari yana sakkiz miniatyura ishlangan.

Devon “Xamsa”siga ishlangan miniatyuralarni sobiq Ittifoqidagi qo‘lyozmalar fondlarida saqlanayotgan, XIX asrda ishlangan bezakli qo‘lyozmalar bilan muqoyasa qilish ajablanarli xulosaga olib keldi. Ma’lumki, XIX-XVIII asrlarda Hindiston bilan O‘rta Osiyoning madaniy aloqalari ayniqsa intensiv tus oladi. Musavvir va xattotlar ikki mamlakat o‘rtasida almashinib turadilar. O‘rta Osiyo miniatyura san’atida san’ati elementlari paydo bo‘ladi. Natijada XVIII- XIX asrlarda Hindiston, ayniqsa Kashmir va Buxoroda ishlangan mo‘‘jaz rasmlarda bir-biriga yaqinlik juda kuchli bo‘ladi. Masalan, 1813 yilda Kashmirda kitobat etilgan Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” qo‘lyozmasiga ishlangan miniatyuralar bilan 1806-07 yili Buxoroda ko‘chirilgan Oshiq, “Devon”iga ishlangan miniatyuralar o‘rtasidagi o‘xshashlik katta. XVIII asrda Hindistonda ko‘chirilgan Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” qo‘lyozmasi va hofiz Sheroziyning 1780 yili Hindistonda kitobat qilingan “Devon” miniatyuralari bilan bizning “Xamsa” miniatyuralari kompozitsiyasi, bo‘yoqlar gammasi, binolar, odamlar qiyofasi, ayniqsa ko‘z,

burun, soqol, mo‘ylablar, qizlarning jingalak gajaklari, kiyim-kechaklar, qizning ikki qanotlik boshi “Lison at-tayr” va Hofiz” Sulaymon payg‘ambarning devlar ko‘targan taxtda Hindistonga uchishi, me’roj tasviri o‘rtasida aynan o‘xshashlikni kuzatdik. Ayniqsa so‘nggi ikkala epizod xarakterlidir. Har ikkala miniatyurada ham oq, qora, qizg‘ish va jigarrang devlar Sulaymon taxtini ko‘tarib ketmoqdalar, ular ketidan dostonda bir, “Devon”da ikkita pari payg‘ambarni elpib bormoqda. Me’rojda har ikkala qo‘lyozma miniatyuralarida ham afsonaviy Buroq ustida Muhammad payg‘ambar berilmagan, kompozitsiya, farishtalar qiyofasi, qullaridagi zarrin alanga aynan, dostonning 30 b sahifasidagi afsonaviy qanotli bosh o‘rnida faringtalar orasida parvoz qilmoqda. Bu o‘xshashliklar Shu darajadagi, xuddi har ikkala qo‘lyozmani bir musavvir ziynatlagandek, qo‘lyozmalar instituti “Xamsa”sidagi “Lison at-tayr”ga ishlangan miniatyuralarning keyin tekst orasiga yopishtirilgani balki bejiz emasdir?

Alisher Navoiy, hatto Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy asarlarining XV-XVIII asrlarda ishlangan mo‘‘jaz rasmlari qo‘lyozmalarning birortasida ham Quqon qo‘lyozmasidagidek ko‘p rasm ishlanmagan, faqat 1648 yilda Buxoroda kitobat etilgan Nizomiy “Xamsa”siga 61 miniatyura ishlangani ma’lum, xolos. Lekin Quqon miniatyuralari badiiy mahorat jihatidan XV - XVI, hatto XVII asr Samarqand, Xiro, Tabriz, Sheroz, Kazvin, Mashhad, Shohiruhiya, Buxoro shaharlarida ishlangan mo‘‘jaz rasmlardan tuban turadi. Ularda bo‘yoqlar boyligi, monandligi, ko‘p planlilik, boy tabiat manzaralarini berish, ayniqsa kishilar figurasini tasvirlashda mutanosiblik, rasmlardagi noziklik yo‘q, soddalik, ibtidoiylik bor, obrazlar sxematik, biri ikkinchisini takrorlaydi. Ammo ana Shu kamchiliklarga qaramay, bu qo‘lyozmaning ahamiyati katta. XIX asrda islom dini reaksiyasi avjiga chiqqan, diniy aqidalar hayot qonuni tusiga kirgan bir davrda Alisher Navoiydek ilg‘or fikrli insonparvar adibning dostonlariga 46 rasm ishlash davr ma’naviy hayotidagi qahramonlik edi.¹

¹ Sulaymon X., Sulaymonova F. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar. Toshkent “Fan” nashriyoti. 1992 yil.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlariga ishlangan mo‘‘jaz rasmlar va rangorang nafis naqshlar XV - XVI asrlarda yaratilgan Sharq kitobat san‘atining eng go‘zal namunalariidandir. Ular Xirot ‘‘Buxoro, Shohiruhiya, Tabriz kabi Xuroson va O‘rta Osiyoning madaniyat markazlarida yashab, ijod etgan eng mohir san‘atkorlar tomonidan yaratilgan. Miniaturalar Alisher Navoiy dostonlari ‘‘Hayrat al-abror‘‘, ‘‘Farhod va Shirin‘‘, ‘‘Layli va Majnun‘‘, ‘‘Sab‘ai sayyora‘‘, ‘‘Saddi Iskandariy‘‘, ‘‘Lison at-tayr‘‘ va lirik she‘rlar to‘plami – ‘‘Devon‘‘lar mazmuni asosida ishlangandir.

Gumanist, ma‘rifatparvar, erksevar, olijanob g‘oyalar egasi bo‘lgan Navoiy qahramonlari miniaturalarning ham asosiy obrazlaridir. Miniaturalarning ko‘tarinki, hayotiy va obrazlari Navoiy g‘oyalariga monand. Navoiy ijodiy metodining asosini tashkil etgan realizm shoir asarlariga ishlangan rasmlarga xosdir. Miniaturalar ishlangan ko‘pchilik betlarda mavjud bo‘lgan asar parchalari bilan rasmlar mazmuni monandligi xattot va musavvir hamkorlikda ijod etganidan dalolat beradi, ammo keyingi davrlarda bu an‘anadan chetlanishni ham ko‘ramiz (O‘z.FA qo‘lyozmalar institutidagi 23 va 2630 inventar raqami ostida saqlanayotgan dostonlar majmualari). Rasmlar aniq, kompozitsiyasining matn bilan xamohangligi miniaturalarning butun asar, qo‘lyozma bilan bog‘liqligini ta‘minlaydi.

Ma‘lumki, Navoiyning ‘‘Xamsa‘‘sidagi dostonlar Nizomiy, Xusrav Dehlaviylarning an‘anaviy syujetlari asosida yaratilgan. San‘atda ham kanon tusini olgan tasviriy mazmun yuzaga keladi. Binobarin Sharq poeziyasining uch buyuk vakillari dostonlarining mazmun yaqinligi tematika va kompozitsiya jihatidan yaqin miniaturalar yaratilishiga olib keldi. (‘‘Tog‘da kanal qaziyotgan Farhod‘‘, ‘‘Cho‘milayotgan Shirin‘‘, ‘‘Bahrom etti qasrda‘‘, ‘‘Iskandar va jon berayotgan Doro‘‘, ‘‘Shohi va donishmand hammomda‘‘ va boshqalar). Bulardan tashqari, umuman Sharq miniaturasiida an‘anaga aylanib qolgan jang, ov, chavgon o‘yini, qaboq, o‘yini, kamon otish, bazm, ziyofat, mushoira kabi rasmlar borki, ular juda keng tarqalgandir.

Kamoliddin Behzod ijodi.

Kamoliddin Behzod dahosi, ijodiyotiga bugun alohida e'tibor qilishimiz bejiz emas. Sharq miniatyura san'atida etakchi va betakror maktab yaratgan buyuk rassom hayoti va faoliyatini o'rganish o'zligini qayta tiklayotgan xalq uchun har qachongidan ham ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etayapti.

XIV- XV asrlar – o'zbek xalqi tarixining oltin sahifalaridan desak, yanglishmaymiz. Amir Temur saltanatida yuzaga kelgan Uyg'onish davri, yuksak darajadagi ijodiy va qulay tarixiy muhit tufayli Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jimiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod singari ko'plab buyuk olim, faylasuf, shoir, rassom san'atkorlar samarali ijod etishdi.

Ular orasida Kamoliddin Behzod nafaqat Turonzamin xalqlari madaniyati va san'ati mehri kuchli, madaniyatparvar, ijodkor xalq bo'lib kelgan. Otashparastlik, budda dini davrlarida yaratilgan Varaxsha, Panjikent, Sopollitepa, Qoratepa, Bolaliktepadagi muhtasham saroylar devordagi ulkan suratlar, tosh va sopol haykallar ajdodlarimiz qadimgi davrlardayoq mukammal san'at obidalarini yaratganliklaridan guvohlik berib turibdi. Islom dini keng tarqalgach, nafis san'at turlari ko'proq qo'lyozma kitoblar, alohida muraqqalar (albomlar) tarzida namoyon bo'la boshladi. Natijada qog'oz, kitob ko'paydi, xalqimizning savodxonligi yuqori darajaga ko'tarildi.

Sohibqiron Amir Temur davrida madaniyat, ilm, fan, san'at rivojiga katta e'tibor berganligi tarixdan ma'lum. Shu boisdan ham bu davrda oldingi zamonlardagiga nisbatan bir necha marta ko'p qo'lyozma asarlar yaratildi. XV asrning ikkinchi yarmida shoir, san'atkor, olimlar ijodi yana ham gurkirab o'sdi. Ular yaratgan qo'lyozmalarni ziynatlash, bezash va rasmlar bilan boyitishga ihtiyoj har qachongidan ham ko'ra oshdi.

Ana Shunday davr tarix sahnasida Kamoliddin Behzod shaxsi paydo bo'ldi. Uning rassom sifatida shakllanishida Alisher Navoiyning beyqiyos xizmati bor. O'sha davrdagi ta'riflar bilan aytganda, «asr nodiri, musavvirlar peshvosi» bo'lmish Behzod ijodkor sifatida murakkab yo'lni bosib o'tdi. U o'zining ziddiyatlariga to'la hayoti mobaynida Sulton Husayn

Boyqaro, Shayboniyxon, Shohi Ismoil Safaviy, Shohi Tahmosip singari hukmdorlar qo‘li ostida ijod qildi. Hayotining asosiy qismi temuriylar sulolasining ikkinchi poytaxti bo‘lmish Hirotida o‘tdi. Ma‘lum payt, safaviylar sulolasi taklifiga binoan, Tabrizda yashab, asarlar yaratdi.

Rassom Samarqandda tug‘ilgan, degan taxminlar bor. Hozirgacha 1455 yil Hirotida hunarmand oilasida tavallud topgan deb kelinadi.

Hirot o‘sha davrda Sharqning eng go‘zal shaharlaridan biri bo‘lgan. Behzod ota-onasidan erta ajragan. Uni Hirotidagi mashhur musavvir, saltanat kutubxonasining mudiri Mirak Naqqosh o‘z tarbiyasiga oladi.

Mirak Naqqosh «Mashhur qirq san’atkor» anjumaniga rahbarlik qilib, Nigoriston, hozirgi Toshunchalar bilan aytganda, San’at akademiyasi ishlarini yo‘lga qo‘ygan edi.

Mashhur ingliz sharqshunosi Edvard Braun bu haqda; «O‘sha zamonda juda katta Shuhrat qozongan Behzod va Shohi Muzaffar singari atoqli naqqoshlar, Shubhasiz, Mir Alisher Navoiyning qo‘llab-quvvatlashi natijasida kamolotga erishdilar», – deb yozadi.

Kamoliddin Behzod mashhur hattot Sulton Ali Mashhadiy bilan tanishadi, u bilan hamkorlik qiladi. Abdurahmon Jomiy huzuriga borib turadi. Uning mehnatsevarligi, iste’dodi, zahmatkashligi Alisher Navoiyga ma‘lum bo‘lgach, Behzodni huzuriga chaqirib, saroy ishiga jalb etadi. Sulton Husayn Mirzoga tanishtiradi. Hukmdor unga o‘zining bog‘ida ijodxona qurdirib, ijod uchun barcha shart-sharoitlarni muhayyo qiladi.

Sulton Husayn Boyqaro uni Hirotidagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi. Behzod endi butun Xurosonda dong taratadi, bu erdagi barcha naqqoshlar, musavvirlarga bosh bo‘ladi.

Xuddi mana Shu davrda Behzodning eng sara asarlari yaratildi. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga ishlangan turkum asarlar, Husayn Boyqaroning majlislari tasvir etilgan, Temur tarixiga bag‘ishlangan muraqqa (albom), Abdurahmon Jomiyning «Solomon va Absol », Muslihiddin Sa‘diyning «Bo‘ston» va «Guliston»i, Nizomiy ganjaviy «Xamsa»siga ishlangan rasmlar, Sulton Husayn Hirotida qurdirgan «Bog‘i

Behisht» tasviri, Abdurahmon Jomiy portreti, «Sulton Husayn Mirzo saroyida ziyofat», «Malik Doro va otboqarlar», «Yusuf va Zulayho» qissasi, «Masjid ichidagi munozara» singari yuzlab goʻzal ijod namunalari dunyoga keldi.

Shohi Ismoil Safaviy Hirotning koʻzga koʻringan hunarmandlari, naqqoshlari, hattotlari qatorida Behzodni ham Tabrizga – oʻz saroyiga olib ketadi. U erda musavvirga qulay shart-sharoit yaratib beradi. Hirotida milliy oʻzbek miniatyura maktabini yaratgan rassom tarix zayli bilan Tabriz nafis sanʼat maktabiga ham asos soladi.

U xuddi Shu davrda bir guruh shogirdlari bilan birgalikda juda koʻplab mumtoz asarlar yaratdi. Xususan, «Bir asr shahzoda tasviri», «Murod Oq qoʻyunlining tasviri», «Tuyalar jangi», «Shohi Tahmosib tasviri», «Rasmiy istiqbol» asarlari, Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostoniga ishlangan suratlar – shular jumlasidan.

Buyuk rassom Tabrizda yashab ijod etar ekan, bir dam ham oʻz Vatanini unutmadi, vaqti-vaqti bilan Hirotga borib turdi. U Tabrizda ruhiy iztroblarda yashaganligini ayrim asarlaridagi ishoratlardan sezish mumkin. Masalan, uning Shohi Ismoil Safaviy tasviri chekkasiga «Shikasta qalamli faqir Behzod», «Tuyalar jangi» surati chekkasiga «Qalami shikasta, Nomurod, Faqir Behzod, umri etmishdan oshganda ushbu ishga qoʻl urdi» – deb imzo chekishi fikrimizga dalil boʻla oladi.

Behzod Tabrizda Sulton Muhammad, Oqa Mirak, Mir Said Ali singari turli joylardan kelgan musavvirlarga rahnamolik qildi. Xususan, u Termizda toʻgʻilib oʻsgan Mir Said Aliga oʻz mahorati va rassomlik sir-asrorlarini ayamay oʻrgatdi.

Ular oʻz navbatida, Behzod vafotidan soʻng XVI asr Sharqining mashhur shaharlari – Tabriz, Qobul, Dehli, Buxoroda ustoz anʼanalarini muvaffaqiyat bilan davom ettirishdi. Natijada oʻzbek miniatyura sanʼati taʼsirida yangi-yangi maktablar yaratildi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini mashhur hattot Sulton Ali Mashhadiy qayta koʻchirgan. Behzod uni noyob miniatyuralar

bilan bezagan. Kitob Xumoyun saroyiga olib ketilgan. U bir necha yil AkbarShohi saroyida eng noyob qo‘lyozma sifatida saqlangan. So‘ng uni Nodir Shohi qimmatbaho o‘lja tarzida Eronga olib ketadi.

Sulton Xusayin Boyqaroning majlislari tasvir etilgan Muraqqa (albom) Sulton Xusayin Mirzoning Hirotdagi Shohi kutubxonasi uchun maxsus tayyorlangan edi. Undagi 40 dan ortiq go‘zal miniatyura Kamoliddin Behzod mo‘yqalamiga mansub. Muraqqani XX asrning boshlarida fransiyalik san‘atShunos olim Muse Foshe sotib olib, Luvr muzeyiga topshirgan.

Abdurahmon Jomiyning «Salomon va Absol» asari mashhur hattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan. Kamoliddin Behzod uni miniatyuralari bilan bezagan. Mazkur asar ham XX asr boshlarigacha Afg‘onistonda saqlangan.

Hirotdagi «Bog‘i Behisht» tasvir etilgan miniatyura asari Kamoliddin Behzodning eng go‘zal va nodir asarlaridan sanaladi. Ammo mazkur asarning ishlangan yili va hozir saqlanayotgan joyi nomalum.

Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa» siga ishlangan 33 suratning hammasi Behzod va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan. Ushbu asar Berlindagi Milliy kutubxonada saqlanayapti.

1567 yili «Temur tarixi muraqqasi» kumush va tilla suvi yuritib ishlangan. Unda Kamoliddin Behzodning bir necha miniatyuralari bor. Ularning hammasi Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. «Temurning taxtga o‘tirishi», «Temur saltanatidagi qabul marosimi», «Temur lashkarlarining qal‘aga hujumi», «Samarqandda masjid qurilishi» kabi miniatyuralar haqiqiy yuksak asarlari sifatida AQSH dagi Boston shahrida saqlanadi.

Shoir Sa‘diyning «Bo‘ston» asarini 1487 yili Sulton Ali Mashhadiy Sulton Xusayn Mirzo Boyqaroning Hirotdagi mashhur kutubxonasi uchun ko‘chirgan va uni iste‘dodli san‘atkor ustod Muzahhib bezagan. Bu asar hozir Qohira muzeyida saqlanadi. Fransiyalik san‘atShunos olim Rens Gruze e‘lon qilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, mazkur to‘plamdagi Kamoliddin Behzod ishlangan miniatyuralarning har biri alohida tasviriy san‘at asari

sifatida kishini hayratga soladi. Sulton Xusayin Mirzo Boyqaroning Hirotdagi bog'ida bazm tasvirlangan mashhur miniatyura Shu «Bo'ston» asarida mavjud. Bu rasmlar elliginchi yillarda misrlik olim doktor Muhammad Mustafo sharhlari bilan arab tilida nashr qilingan.

Xusayn Boyqaro tasvirining asl nusxasi esa shved san'atshunos olimi F.P. Martinning shaxsiy kolleksiyasida saqlanayotir.

Dunyoning ko'p mamlakatlarida anaShu portretidan ko'chirilgan nusxalar mavjud. Mazkur tasvirda Sulton Xusayn Boyqaro salobatli qiyiq ko'zli yapasqi yuzli kishi sifatida Shohiona liboslar bilan hayotiy ifoda etilgan. Rasmni kuzatar ekanmiz Xusayn Boyqaro va Kamoliddin Behzodga zamondosh Zafiriddin Muhammad Boburning ko'zlari yodga tushadi. «Sulton Xusayn qiyiq ko'zlik, she'r andom bo'yluq kishi edi. Belidin quyi ingichka edi. Bo vujudkim ulug' yosh yashab, oq soqolli bo'lib edi, xushrang, qizil abrishimin kiyar edi. Qora qo'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq... Mafosil (bo'g'imlar) zahmati jihatidan namoz qila olmas edi, ro'za tutmas edi. Hulqi bir nima go'zalroq voqe' bo'lib edi, ko'zi ham hulqidek edi... Qirq yil yovuqkim Xurosonda podShohi edi».

Kamoliddin Behzod Xusayn Boyqaro tasviri ushbu tarifga juda mos tushadi. Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining bir nusxasiga ishlagan miniatyuralarning muayyaan qismini, fransiyalik olim Mi Jon turkiyalik olim Aramnokbeklar qo'shilgan fikrlaricha Kamoliddin Behzod qolgan qismlarni Qosim Ali Chehrakusho bilan Oqo Mirak ishlagan. Bu asar hozir Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda .

Muallifi nomalum bo'lgan bir qo'lyozmani Hirotda hattot Muhammad ibn Attor oqqa ko'chirgan. Unga Kamoliddin Behzod ishlagan nafis miniatyuralar mutaxassislarni lol qoldirib keladi. Ular orasida «Darveshlar raqsi», «Shirinning Xusrav tomonidan kutib olinishi» singari mashhur go'zal miniatyuralar kishini o'ziga rom etadi. Bu noyob to'plam ham Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Amir Xusrav Dehlaviyning «Layli va Majnun» dostoni qo'lyozmasi nomalum hattot tomonidan ko'chirilgan. Bu dostonga «Layli va Majnun

madrasada o'qish payti», «Go'zal bog' ko'rinishi» singari miniatyuralar o'zining tabiiyligi, hayotiyliги bilan o'ziga rom qiladi. Bu qo'lyozma nusxa Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin kutubxonasida saqlanadi. «Tuyalar jangi» asarini Kamoliddin Behzod 1525 yili Tabrizda yaratgan. Oq va qora tuya ustida turli yopinchiq anjomlar bor. Tuya egalari ikki tomondan o'z tuyalarining «jaxl»larini chiqarib, ularni jangga «tezlayotir». Bir chekkada turgan muysafid tuyalar jangini kuzatmoqda. Tuyalar oliShuvi manzarasi ayniqsa jonli aks etgan. Bu holat, o'z navbatida, rasmda tasvirlangan kishilarga ham «yuqqan»ligi yaqqol seziladi. Bu miniatyuralarning yuqori tomonidagi burchagida quyidagicha yozuvlar bitilgan: «Mazkur (tasvir) yaratilish muraqqasidan bir parcha bo'lib, (Qur'on oyatining) «... Ular tuyalarning qanday yaratilganligiga qaramaydilarmi?» (degan) mazmunga ishora qiladiki, qalami shikasta faqir va nomurod Behzod umri etmish yoshga etgandan so'ng o'ta boy tajriba orttirish tajribasida ushbu ishga kirishdi».

Bu asar Behzodning boshqa asarlari bilan birga, ilk daf'a 1931 yili Londonda tashkil etilgan Sharq san'ati ko'rgazmasida namoyish qilingan edi. «Eron san'ati tarixi» (Tehron) kitobida berilgan ma'lumotlarga ko'ra asl nusxa hozir Erondagi Guliston saroyida saqlanayotir.

Kamoliddin Behzod chizgan shoir Abdurahmon Jomiy siymosi jahon tasiviriy san'atining ulkan yutuqlaridan deb etirof etilgan. «Shohi Tahmosib asarida shahzodaning bolalik chog'lari tabiat qo'ynida tasvir etilgan. Bu asarni buyuk rassom ijodining eng sara namunalaridan deyish mumkin. Uning bir chekkasida «Behzod» dastxati bitilgan bo'lib, u mashhur Luvr (Fransiya) da saqlanmoqda.

Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining mashhur hattot Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan yana bir nusxasi Kamoliddin Behzod miniatyuralari bilan bezatilgan. Mazkur asar Afg'onistonlik Muhammad Naimxonning kutubxonasida saqlanadi.

Bulardan tashqari hozir jahonning turli qit'alaridagi muzey va ayrim kishilarning shaxsiy kolleksiyalarida saqlanayotgan Kamoliddin Behzod

qalamiga mansub «Oriflar zikri», «Bir kampir va yigit», «Bahrom Go‘r ovda», «Sulton Xusayin saroyida ziyofat» asarlari va Muhammad Shaybonixon shoir Abdullaxon Hotifiy, shoir Abdurahmon Jomiylar portret-tasvirlari realistik uslubdagi Shohi asarlar tariqasida allaqachon umumjahon madaniy mulkiga aylanib ulgurgan.

2.2. Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash metodikasi.

Qutichaga tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash uchun o'quvchilar turli hajmlarda qog'ozlar tayyorlaydilar. Aniq o'lchamga asosan kompozitsiya asoslarining qonun-qoidalariga rioya qilgan holda turli eskizlar ishlaydilar. Kompozitsiya eskizlarini ishlashdan avval o'quvchi to'rt bosqichda iborat materyallar to'playdi. Bunday ashyolarning ko'pligi kompozitsiya eskizining echimini tez topishga yordam beradi.¹

1-mashq. Tabiatdan, o'simliklar, gullar, daraxtlar, tog', toshlar, suv, bulutlar tasvirini ishlash. Tabiatdan o'simliklar, gullar, daraxtlar, tog', toshlar, suv, bulutlar va turli parrandalar tovus, laylak, turna, qirg'ovul, kaklik, burgut, kalxat, lochin, zag'izg'on, kabutar, qaldirg'och va boshqa qushlarning qoralama tasvirini quydagi qalam va turli ashyolarda ishlaydilar. **Qalam** - uning bir necha turlari bor. Ular grafit qalami, pastel, sangina, sous, ko'mir qalamlar. CHizmatasvir fanining asosiy ashyosi bo'lgan grafit qalami yumshoq (M), qattiq (T) va o'rtacha (TM) yumshoqlikda chiqariladi. Qalam bir qancha talablarga javob berishi kerak: pichoq yordamida engil ochilishi, mo'rt bo'lmasligi (engil bosim bilan chizganda sinmasligi), qalam bilan chizilgan chizgining engil o'chishi, satxda engil harakat qilib qog'ozni tirnamasligi, bir xil bosimda bir xil qalinlikda chiziq qoldirishi. Qalam yasash uchun grafit, kaolin, gips, kuygan suyak, qora qurum va oz miqdorda elim kerak bo'ladi. Yaxshi qalam ashyosi bir kvadrat santimetrda 16 000 teshikchalari bo'lgan elakdan o'tkaziladi. Xom-ashyolar aralashmasidan hosil qilingan qalamchalar 100⁰S issiqlikda 5-6 soat quritilib, 150-250⁰ Sda 2-3 soat qizdiriladi. Sangina- jigarrang tusdagi qobiqsiz qalam. qog'oz, karton, faner, mato satxlarida ishlashga qulay. Ishlashda engil, bo'yash, qoplash xususiyatlari kuchli bo'lib, uning tarkibi kaolin, mel (bo'r), temir zangidan iborat. Pastel-turli ranglardagi yog'och qobiqsiz bo'lgan qalamchalar. «Pasta» – «xamir» ma'nosini bildiradi. Oldin rassomlar undan rangtasvir ishlarining rangli eskizlarini ishlashda foydalanishgan. Lekin ko'p rassomlar pastel yordamida mustaqil yakunlangan asarlar ham ishlashgan. Bu ashyoning o'ziga xos tomoni Shundaki, u satxni yaxshi

¹ Shabaratov P.P. Lakli miniatyura "Kompozitsiya" T: "Yangi asr avlodi" 2007

qoplab, duxobasifat tovlanadi. Pastel uchun juda maydalangan, yoruvqa chidamli, qoplash xususiyati yuqori bo'lgan pigmentlar tanlab olinadi. Uvalanib ketmasligi uchun tragant elimi oz miqdorda qo'shiladi. Ikki xom ashyo aralashmasi xamir uolatiga keltirilib, qolip yoki temir trubalar yordamida shakl berib quritiladi. Pastel qalamchalari ranglarining och va to'qligi ularning tarkibidagi oq pigmentning miqdoriga bog'liq. Sous-shakli sangina pasteliga o'xshash qobiqsiz, qoplash va bo'yash xususiyati kuchli bo'lgan ashyo. Uni quruq uolda va suv bilan aralashtirib uam ishlatish mumkin. Tarkibi qora qurum, kaolindan iborat. Ko'mir qalam, qog'oz, karton, mato, faner, devor satxlarida birlamchi chizgilarni chizishda, eskiz ishlashda keng foydalaniladi. Shakli daraxt novdachalarini eslatuvchi bu ashyo tol va qayin daraxtlarining novdalarini kuydirib olinadi. Buning uchun temir silindr idishga novdachalar zich qilib solinib, qum bilan idish ichi to'ldiriladi. Idish qopqog'i zich yopilib, loy bilan suvaladi. Olov yordamida qizdiriladi. Mahsulotning tayyor bo'lganini qopqoq ustidagi maxsus kichik teshikchadan chiqadigan tutunning to'xtashidan bilinadi. Kuygan novda qalamchalarining sifati - satxda engil harakatlar yordamida chizishi, qog'oz satxini tirnamasligi, qo'ldan tushib ketganda sinmasligi, u bilan chizilgan chizgilar satx ustidan yumshoq latta yordamida engil harakat bilan o'chishi. Bu qalamchalar yordamida mustaqil yakunlangan ishlar maxsus loklar yordamida qotirishni talab qiladi. Talabalarga qalam turlari xaqida to'liq ma'lumotlar berilgandan so'ng, Shu ashyolarda ishlangan qoramalardan namunalar ko'rsatiladi. Bu dars jarayonidan maqsad o'quvchi va talabalarning tabiatdan estetik zavq olib, ularning kuzatuvchanglik qobilyatini rivojlantirish.

2-mashq. Tabiat muzeyiga yoki xayvonot bog'iga borib turli parrandalar tovu, laylak, turna, qirg'ovul, kaklik, burgut, kalxat, lochin, zag'izg'on, kabutar, qaldirg'och va boshqa qushlarning qoralama va rang tasvirini turli xildagi qog'ozlarga ishlaydilar. Qog'oz- buyuk kashfiyotlardan biri bo'lib, u asosiy yozuv ashyosi hisoblanadi. U kashf qilinguncha insonlar tosh, sopol, teri, daraxt po'stloqlari, pergament (yosh jonivorlarning ishlov berilgan terisi), taxta va suyakdan foydalanishgan. Ular og'ir, qo'pol, uzoq saqlash imkoniyati

bo'lmaganligi, xasharotlarning kemirishi sababli yaroqsiz holga kelganligi uchun bir qancha noqulayliklar tug'dirardi. Qog'oz birinchi marta SHarq davlatlaridan Xitoyda kashf qilingan. U o'zining engilligi, ishlatish, yozish, tasvir chizish uchun qulayligi, uzoq muddatga saqlash imkoniyatlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Uning xom ashyosi asosan daraxt maxsulotlari va latta matolardan iborat.

Mo'yqalam tayyorlash. Nozik chiziqlar chizish, kichik hajmdagi ranglarni bo'yash uchun rassomga mo'yqalam kerak bo'ladi. qadimgi miniatyura ustalari bunday mo'yqalamlarni o'zlari tayyorlashgan. Buning uchun uzun yungli ikki oyli muShuk bolasining orqa bosh qismidagi mo'ydan kesib olib, uni issiq suvda yog'idan xalos qilishgan. Tutam yunglarni taxta ustida donalab terishgan. Bunda eng uzun mo'y o'rtasiga qo'yilib, qolganlari ikki yon tomonga terilgan. Qiyshiq tuklar olib tashlanadi. Kerakli hajmda yig'ilgandan keyin, ipak ip bilan bog'langan va oldindan tayyorlangan kaptar xo'roz yoki g'oz patining ichiga joylashtirishgan. Pat ikki tomondan kesilgan g'ovak trubka holida 3 x 4 sm atrofida olingan. g'ovak pat qalamchanning ikkinchi tomoniga behi, tol daraxti novdasidan yog'och ushlagich yasab joylashtirishgan.

«Ganun-as sovar» qo'llanmasini yozgan Sodirbek Afshar ma'lumotiga ko'ra, olmaxon dumidan mo'yqalam yasashgan. Mo'y joylashtiruvchi uya uchun g'oz patidan foydalanishgan.

Hozirgi kunda savdodagi mo'yqalamlarning ichida kolonok yoki olmaxon dumidan tayyorlangan fabrika mo'yqalamlaridan ham foydalanish mumkin. Kolonok — mo'yqalamlari satxni rang bilan bo'yashga, olmaxon yungidan tayyorlangan 1-2-3 raqamli mo'yqalamlarini siyoh qalam chiziqlarini tortish, inson qomatini o'rovchi, yuz qismidagi qosh, ko'z, burun, lab kabi a'zolari nozik tasvirlash uchun ishlatish mumkin.

2-mashq. Turliy qush, parrandalar tasvirlarini qalam va suv bo'yoqda ishlash.

Turliy parrandalar tovus, laylak, turna, qirg'ovul, kaklik, burgut, kalxat, lochin, zag'izg'on, kabutar, qaldirg'och va boshqa qushlarning qoramalarini qalam, pastel, sangina, sous, ko'mir qalamlarda turliy hildagi qog'ozlarga ishlaydilar. Qog'oz ishlab chiqarish birinchi marta VIII asrda Samarqandda, keyinchalik esa

Bog‘dodda Xorun ar-Rashid davrida yo‘lga qo‘yildi. X–XI asrlarda qog‘oz ishlab chiqarish O‘rta SHarqda keng tarqaldi. Xitoy, Hindiston, Suriya va Iroq mamlakatlarida qog‘oz ishlash yaxshi o‘rganilib, boshqa davlatlarga Ham tarqala bordi. O‘rta Osiyo mamlakatlaridan Samarqand va Buxoroda qog‘oz ishlash yaxshi yo‘lga qo‘yildi. Samarqand, Buxoro qog‘ozlari sifatli Hisoblangan. Ular o‘sha vaqtda Ipak ashyosidan tayyorlangan. O‘sha davrlarda qog‘ozlar ishlab chiqarilayotgan joyiga qarab: “Samarqandiy”, “Bog‘dodiy”, “Isfaxoniy”, “Buxoriy”, “Xitoyi”, “Kashmiriy” va boshqa nomlar bilan yuritilgan. Professor A.A.Semenov XV asr ikkinchi yarmidagi qo‘lyozmalarni o‘rganib chiqib, qog‘ozlarning yuqori sifatli 2 xili Samarqand va Buxoroda ishlab chiqarilganligini aniqlagan. Uning birinchi turi asosan ipak ashyosidan ishlangan bo‘lib, o‘zining zichligi, tozaligi va silliqligi bilan ajralib turgan. Ikkinchi turi yarimipak va ko‘knori tolasidan tayyorlangan bo‘lib, o‘zining yuqori sifati bilan ajralib turgan. O‘rta asr xattot va rassomlari o‘z asarlarini asosan maxsus ishlov berilgan va silliqlab, ba’zida turli ranglarga bo‘yalgan qog‘ozda yaratganlar. Kitob varaqlarini yupqa qog‘ozdan tayyorlab, turli tus va rangga bo‘yab, uning ustiga nozik asar (miniatyuralar chizishgan).

Satxda nozik chiziqlar chizish, oltin xol berish, ravon yozish yoki ranglar bilan surat chizish uchun qog‘ozlarga qo‘shimcha ishlov berilgan.

Ya’ni, kraxmal berilib (shlixtovka) silliqlangan qog‘oz satxda xarf tekis, tiniq yozilgan va tilla, kumush bo‘yoqlar yaxshi, yorqin ko‘rinishga ega bo‘lgan. Kraxmal qog‘oz teshiklarini berkitib, siyoh va bo‘yoq namini satxda tarqalishiga, kengayishiga yo‘l qo‘ymagan.

Ishlov berilmagan qog‘ozda siyohning va tilla, kumush bo‘yoq bog‘lovchisini, ya’ni elimini shimib oladi. Bunday qog‘oz ustida siyoh tarqalib, Harflar qiyshiq ko‘rinish hosil qiladi. Metal bo‘yoqlarga esa jilov berish imkoniyati yo‘qoladi.

Qog‘ozga ishlov berishning bir necha usullari bizgacha etib kelgan bo‘lib, ular: kraxmal, tuxum oqi, achchiq tosh va boshqa maxsulotlar yordamida.

Qog‘ozga ishlov berishning keng tarqalgan usuli kraxmal bo‘tqasi Hisoblanib, uni tayyorlash quyidagicha kechadi: oldin suv va kraxmal aralashtirilib, ezg‘ilab baland olovda qaynatilgan. So‘ng bu suyuqlik doka matodan (filtrlab) o‘tkazilgach,

yumshoq mato yordamida qog'oz satxiga surilgan. Bu jarayonda qog'ozning siljishiga yo'l qo'yilmaydi. Keyin toza, yumshoq mato bilan ko'p kraxmal tushgan va g'ijim joylari tekislangan. Kraxmallangan qog'oz qurigach (unga ikkinchi ishlov) tekislash, silliqlash ishlari bajarilgan. Qurigan, kraxmallangan qog'ozni qattiq yog'och yoki kashtan daraxtidan tayyorlangan taxta ustiga qo'yib, xrustal tuxum yoki unga o'xshash qattiq, silliq asbob yordamida surkab ishlov berilgan.

Ba'zida rangli qog'oz uchun rang kraxmalli bo'tqaga aralashtirib qog'ozga surtilgan. Silliqlangan qog'ozga bir Hafta ichida jilo berilgan. Jilo (glyans) berilmagan qog'oz satxida kraxmal yorilishi boshlanib, u yaroqsiz Holga keladi. jilo berilgan qog'ozlar ba'zida yillab saqlangan. Bunday qog'oz yozuv uchun yaxshi deb hisoblangan.

Qog'ozni shlixtovka qilish, ya'ni to'ydirib ishlov berishning bir qancha yo'llari mavjud bo'lgan. Qog'ozga achchiq tosh bilan to'yintirib keyin kraxmallash. Maydalangan achchiq tosh suvda aralashtirilib qaynatilgan. Issiq holdagi bu suyuqlik bilan bir necha marta qog'oz to'ydirilgan. So'ng soya joyda quritilgach, kraxmal bo'tqasi surtilib soyada quritilgan. Shu jarayonlardan so'ng qog'ozga silliqlab ishlov berilgan.

Ba'zida qog'ozni to'ydirish uchun guruch uni va kraxmal aralashmasidan foydalanilgan. Bu ikki modda suvga solib aralashtirilgach, bo'tqa holatiga keltirilgan. So'ng qaynatilgan va tayyor bo'lgan massa qog'oz sathiga surib quritilgan. Keyin achchiqtosh kvars eritmasi bilan ishlov berilgan.

Qog'ozni to'ydirishning boshqacha turlari Ham bo'lgan. Kraxmal, elim, tuxum oqining aralashmasi. Buning uchun zarur miqdorda kraxmal, suv 40 : 1 nisbatda, o'n barobar miqdorda jelatinni aralashtirib qaynatilgan. Sovutilgan qorishma yuqoridagidek qog'oz satxiga surtilib quritilgan. Shundan so'ng qog'oz tuxum oqi bilan qoplangan. Tuxum oqining surtilishi oson bo'lishi uchun chinni idishda qoshiq bilan ko'pirguncha aralashtirilgan. Ko'pirgach suyuq tuxum suvi emulsiyasi ajralib chiqquncha tindirilgan. Ajratib olingan Shu emulsiya oldindan kraxmal va jelatin bilan ishlov berilgan qog'oz sirtiga surilgan. Bunday qog'oz surat chizish uchun yaxshi satx Hisoblangan. Qog'ozdagi yoqimsiz Hidni yo'qotish va unga muattar Hid berish uchun gul suvidan qo'shish amaliyoti qo'llanilgan.

Ba'zida guruch uni va kraxmal aralashmasidan bo'tqa tayyorlab, qaynatib, qog'ozga surtilgan. Quritib kvars (achchiq tosh) suvi bilan qoplangan.

a) qog'ozga ishlov berish uchun tuxum oqining o'zidan Ham foydalanish mumkin (kuporos bilan aralashmasi) b) Sovun surtib ham ishlatishgan.

Rangli qog'oz tayyorlash uchun shafron, xina, saflar, indigo va mis zangi (yar-medyanika) ishlatilgan. Sariq rangga bo'yash uchun shafronni — issiq suvda eritib keng idishga quyib, qog'ozni solib bo'ktirilgan va ipga osib salqinda quritilgan. Bu dars jarayonidan maqsad talabalarni tabiatdagi xayvonot dunyosiga nisbatan mehribonlik uyg'otish, ulardan estetik zavq olish, ularning kuzatuvchanglik qobiliyatini rivojlantirish va amaliy ishlash malakalarini oshirish. Ashyolarda ishlash texnologiyasi bilan tanishtirish.

3-mashq. Xayvonot olami tasvirlangan qoralama va tsvirlarini suv bo'yoqlarda ishlash.

Xayvonot olami, ot, tuya, sher, yo'lbars, qoplon, bo'ri, tulki, it, kiyk, qo'y, echki va inson qomatlari tasvirlangan qorala va rangtasvirlarini suv bo'yoqlarda ishlaydilar. *Suv bo'yoq - (akvarel)* bo'yog'i eng qadimgi bo'yoqlardan biri bo'lib, uning ma'nosi "*rang va suv*" dir.

U quyidagi talablarga javob berishi kerak: suvda tez va yaxshi erishi, mo'yqalamga yaxshi yopishishi, qog'oz, oq karton kabi satxlarni tekis bo'yashi, dog' Hosil qilmasligi, qog'oz satxidan engil yuvilishi, surkalmasligi va yorilmasligi. O'ziga xoslik tomoni qog'oz satxida tiniq — jarangdor tovlanadi. Ko'p rassomlar akvarel yordamida juda yaxshi ishlar ishlab qoldirishgan: A.Ivanov, V.Vasnetsov, V.Surikov, I.Repin, V.Serov, M.Vrubel va boshqalar. Kitob bezash san'atida, teatr, kino eskizlarini ishlashda, rangtasvir kabi barcha tasviriy san'at turlarida rassomlar bu bo'yoqdan keng foydalanishadi. Qulayligi sababli bog'cha, maktab, san'at kollejlari, institut talabalari o'quv jarayonida Ham bu bo'yoqdan keng foydalanib, rangtasvir bilan Shug'ullanadilar.

Bo'yoqni ishlatish usuli oddiyliigi, qulayligi bilan keng ommaga: san'at ishqibozlari va professional rassomlar orasida o'ziga xos o'rin tutadi. Akvarel bo'yog'i ko'pgina davlatlarda ishlab chiqariladi. Biz bu bo'yoqni Sankt—Peterburg—Moskva shaharlarida tayyorlangan turlarini yaxshi bilamiz. Ular vaqt

sinovidan o'tgan va sifati yuqori darajadali bilan bizga yaxshi tanish. Akvarel bo'yog'i tayyorlashda turli rang kukunlari ishlatiladi (24 xil rang). Ular tabiiy va sun'iy yo'l bilan hosil qilingan kukunlardan iborat bo'ladi. Rangli kukunlar Shunday tanlanadiki, akvarel bo'yog'i ishlatilganda jarangdor bo'lishi kerak. Ya'ni yuqqa surtilgan bo'yoq ostidan qog'oz ko'rinib turishi kerak (prozrachnost). Bo'yoqqa xos bo'lgan jiHatlaridan biri bitta rangni ustma-ust bo'yashda tusning to'qlashishi.

Misol: bironta rangdan alohida idishda suyuq koler tayyorlaymiz. Qog'oz satxida uch yoki to'rtta kvadrat shaklini chizib, Shu koler bilan kvadratlarning Hammasini bo'yaymiz. Bo'yoq qurigandan keyin ikkinchi va uchinchi shakllarni Shu koler bilan yana bo'yaymiz. Uchinchi galda faqat uchinchi shaklni bo'yaymiz. Natijada bir-biridan oz farq qiluvchi turli tusdagi shakllarni ko'ramiz. Agar Shu jarayonni guash, tempera va moyli bo'yoqda bajarsak, Har uchchala shakl Ham bir xil tusda saqlanib qolishini ko'ramiz. Demak, akvarel bo'yog'ida bir xil rang bilan tekislik qancha ko'p bo'yalsa, u Shunchalik to'qlashish xususiyatiga ega bo'lib, bu akvarelning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Rang kukuni etarlicha maydalanmagan bo'lsa, bo'yoq qog'ozni tekis yopmay, ola - bula notekis bo'yaydi. Akvarel bo'yog'ini ishlatishda qog'oz tanlashning ahamiyati katta. Qog'oz oq, etarli darajada zichlikka ega bo'lishi, bo'yoqni shimib olmasligi kerak. Akvarelda ishlash uchun maxsus tarshon qog'ozlari (satxi mayda g'adir—budir qilib tayyorlangan), «Goznak» vatman qog'ozlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tajriba Shuni ko'rsatadiki, ba'zi bir qog'ozlarda ish jarayonida satxning biron qismi bo'yoqni o'ziga qabul qilmaydi. Bunga sabab qog'ozning Shu erida moyning mavjudligi. Ishlab chiqarish jarayonida qog'ozni presslovchi vallarning vaqti-vaqti bilan moylanib, yaxshi tozalanmagan paytda qog'ozga moy o'tadi. Bunday Holatda qog'ozning moyli qismi «Bolalar sovuni»dan tayyorlangan sovunli suv bilan yuvib tashlash kerak bo'ladi. Akvarel bo'yog'ining moyli satxni bo'yamaslik Holatidan ijobiy foydalanish mumkin. Misol: natyurmort, portret, peyzaj ishlash jarayonlarida asarning biron qismida qog'ozni toza oq holatda qolishi talab qilinadi. Shu joyga oddiy sham (parafin) surtilib, ustidan erkin bo'yoq bilan ishlanganida Ham Shu joydagi oqlik saqlanib qoladi. Usti silliq qilib

tayyorlangan glyans qog'ozlaridan foydalanilganda uning o'ziga xos tomoni Shundaki, qog'oz satxidan bo'yoqni kerak bo'lganda yuvib tashlash oson kechadi. Tarkibi latta gazmol bo'lgan qog'ozlar bu bo'yoq uchun yaxshi satx hisoblanadi. Akvarel bo'yog'i suvda eruvchi boshqa bo'yoqlar bilan yaxshi aralashadi. Akvarelda ishlangan ishlarni quyosh nuri tik tushmaydigan, salqin joyda saqlash kerak. Quyosh nuri ta'sirida bo'yoq oqarib, xiralashib qoladi. Shu sababli muzeylarda rassomlarning akvarelda ishlagan ishlari oyna ostida, ustidan qora mato bilan berkitib qo'yilgan xolda saqlanadi. Bu dars jarayonidan maqsad o'quvchi va talabalar xayvonlarning turli xarakterlarini kuzatish va plastik anatomyasi, xarakterini, o'rganish, ularda xayvonat dunyosiga nisbatan mehirlanish, uyg'otish, estetik zavq olish, kuzatuvchilik qobiliyatini rivojlantirish.

4-mashq. Inson qomati aks etgan qoralama tasvirini ishlash. Inson qomati aks etgan qoralama tasvirini ishlaydilar. To'plangan unsurlar asosida qoralamalar tasvirini miniatyura kompazitsiyasi loyihalarida ishlatish uchun stilizatsiyalashtiriladi, *Stilizatsiya*-uslublashtirish, muqallid, narsalar shakl va tuzilishini soddalashtirish yoki murakkablashtirish, badiiylashtirish. Miniatyura kompazitsiyalaridagi qoralama tasvirlarni ramziylashtirilishda chiziqlar muhim ahamiyatga ega.

Chiziq – rassomning amalda eng ko'p qo'llaydigan badiiy tilidir. Uning yordamida shakl va tekkislik chegaralari aniqlanadi. Chiziq tasvir etilayotgan shaklning atrof muhitdan ajratib ko'rsatuvchi chegaradir. U shakl chegarasini aniqlash bilan birga, rassomning ichki hissiyoti va xayajoniga ta'sir etadi. Chiziqga tasviriy san'atda ko'plab tavsiflar berilishi Shundandir. U engil va sehrli, turg'un va intiluvchan, iliq va shiddatlidir. Tarixdan ko'p rassomlar chiziqni his qilish qobiliyatiga ega bo'lib, bizga san'atda ulkan badiiy meros qoldirgandirlar. Chiziqli yo'l bilan tasvirlash va aniqlashtirish ijodning o'ziga hos uslubi hisoblanadi. Rassom ixtiyoriy san'at asari, Shuningdek, kompazitsiya yaratishda turli chiziqlardan foydalanadi. Bu – to'g'ri gorizontal, to'g'ri vertikal, egri chiziqlar, qiyshiq, siniq, aralash, parallel va kesishuvchan chiziqlardir. Gorizontal chiziqlar buyum kengligi xaqida ma'lumot berib unga to'lalilik, tinchlik, turg'unlik hissiyotini bag'ishlaydi. Chiziqlarning cheksiz xilma-hilligini uch hislatli guruxga ajratishimiz mumkin: to'g'ri chiziqlar,

egrilik radiusi doimiy chiziqlar – yoylar, egrilik radiusi o‘zgaruvchan chiziqlar – porabola, giperbola, spiral. To‘g‘ri va egrilik radiusi doimiy bo‘lgan chiziqlar insonda to‘rg‘unlik, tinchlik, muvozanat holatli hissiyotni vujudga keltiradi. Egrilik radiusi o‘zgaruvchan chizqlar esa aksincha o‘zgaruvchan, dinamik, to‘lqinlanish, bejirimlik hissiyotini keltirib chiqaradi. Porabola va giperbolalar aktiv his etilganligi uchun, ular ruhiyatni tez charchatadi. Shuning uchun uning libos, oyoq kiyim va boshqalarda qo‘llanilishi chegaralanadi.

Inson hissiyotining o‘zgaruvchanligi uning jamiyatdagi yashash sharoiti, xalqning milliy o‘ziga hosligi, turli tabaqalanishlarning ijtimoiy holati, mutahassisligining tavsifi, malakasi, madaniy etukligiga juda bog‘liqdir. Shuning uchun, masalan bir rang turli xalqlarda turlicha his etiladi. Masalan, motam rangi bir xalqda qora, ba’zilarida oq, ba’zilarida esa xavorangdir. ijtimoiy tabiati atrof muhitga bo‘lgan munosabatiga aniq ta’sir etadi.

Chiziqlar yordamida biz insonlar qomati siluetida va uning alohida qismlarida mukammal aniqlikka erishishimiz mumkin. Inson shaklining tashqi konturini ko‘rsatuvchi chiziqlar siluet chiziqlari deyiladi. Ular inson qomatini tasvirlashda yaratishda aniqlovchi bo‘lib xizmat qiladi. Siluet shaklning ichki tuzilishiga yordam beruvchi chiziqlar fasonli chiziqlar deb ataladi. Kontr chiziqlari siluet bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib unga bo‘ysunadi. Ular siluet chiziqlarini kuchaytiradi. Siluet va fason chiziqlarining birligi va uyg‘unligi tasvirning timsolli va uslubiy echimining yaxlitligini ta’minlashda yordam beradi. Bir tavsifga ega chiziqning doimiy qo‘llanilishi, qoramalarning aniqligining zerikarli va noaniq qilib qo‘yishi mumkin.

Qoramalarning xajmiy shakli, uning konstruksiyasini ko‘rsatuvchi chiziqlar – konstruktiv chiziqlar deb ataladi.

Bezagi bo‘lib xizmat qiluvchi va uni istalgan vaqtda shaklini buzmay turib, olib tashlash mumkin bo‘lgan chiziqlar – dekorativ chiziqlar deyiladi Dekorativ chiziqlar odatda konstruktiv chiziqlarga bo‘ysinuvchi bo‘ladi, ko‘pincha u bilan to‘qnashishi, bir o‘rinda bo‘lib qolishi mumkin.

Bir libosda tafsifi turlicha bo‘lgan chiziqlar uyg‘unlashishi mumkin. Masalan, to‘g‘ri chiziqlarning jiddiyligini ravon fason chiziqlari yumshatadi. Chiziqlarning

uchta asosiy yoʻnalishlari mavjuddir:

Vertikal chiziqlar shaklning dinamikasini kuchaytirib, qomatga uzunroq koʻrinish bagʻishlaydi.

Gorizontal chiziqlar qomatni nazarimizda kengaytirib, boʻyini qiskartiradi va shaklga katta mustaxkamlik, statiklik bagʻishlaydi.

Diagonal chiziqlar (ogʻmalar) shaklning dinamikasini kuchaytirib, bir biridan uzoqlashgan paytda qomatni kengaytiradi, va bir biriga yaqinlashgan sari uni ihchamlashtiradi.

Kompozitsion fikriga qarab uch hil chiziq barobar qatnashishi mumkin, ammo ularning biri urgʻu boʻlib xizmat qiladi.

Barcha yunalishlardagi chiziqlarning uygʻunlashtira turib, unga yagona yoʻnalishni ularga asos qilib olinishi chiziqli kompozitsiyasining mohiyati hisoblanadi. Fason chiziqlarning joyi va yoʻnalishining tanlanishi siluet tavsifidan kelib chiqadi. Toʻgʻri tushgan siluet koʻpincha chiziqlarning ixtiyoriy joylanishi va yoʻnalishi bilan mutanosib boʻlaveradi. Libosning yuqori qismidagi gorizontal chiziqlar, nazarimizda elkani keng koʻrsatadi, jaketning etak chizigʻida boʻlsa, boʻksani kengaytiradi. Etakdagi bezak chiziqlar (tahlama, burmalar, kashtalar, kantlar) shakllarning toʻgʻri burchakli toʻrtburchagini tugatadi. Markaziy choki, vertikal releflar, ogʻma chiziqlar siluetning mustaxkamligini buzmaydi.

Diagonal yoʻnalioʻli chiziqlar koʻpincha uchburchak siluetlarda yanada aniq koʻrinadi. Markaziy oʻq chiziq siluetni yuqoriga intilishini kuchaytiradi. Ushbu siluetda gorizontal chiziqlarni qoʻllash oʻrinsizroq, chunki ular shakl dinamikasini sustlashtiradi.

Vertikal va gorizontal chiziqlar oval siluetda deyarli qoʻllanilmaydi. Bu erda siluet chiziqlarini takrorlovchi nafis ogʻma chiziqlarni koʻllash oʻrinlidir. Xar bir libosda “asosiy” deb nomlanuvchi chiziq mavjud. Asosiy chiziq libosning tavsifini koʻrsatib, uning vazifasi, uslubiy echimini belgilaydi, bu chiziq konstruktiv xam, yoki dekorativ chiziq xam boʻlishi mumkin. Kompozitsiyalarda chiziqlarning toʻgʻri va mutanosib topilishi, Shu kompozitsiyani yaxlit va tugallangan koʻrinishini vujudga keltiradi. Uygʻun kompozitsiyani yarata olishda, xar bir chiziqning hususiyatini bilish va uni qoʻllash mahorati kuchli boʻlishi juda

zarurdir.

Siluet– bu shaklning tekkislikdagi soyasidir. Siluetning muhim tavsifi uning geometrik shaklidir. Shunday qilib, barcha ustma ust tushgan bezaklar, detallarda aniq bo‘lmasada, ko‘z bilan chamalab, uning taxminan u yoki bu geometrik shaklga tegishli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Siluet inson qomatining shaklining asosini belgilab uning biron bir davrga tegishliligini ko‘rsatadi. Qadimgi miniatyuralardagi tasvirlar bizni siluetslarning ko‘plab turli xilma-xilliklari bilan tanishtiradi. Nazarimizda, silueti xuddi soda geometrik shaklga intilayotgandek. Bundan kelib chiqib, uchta geometrik shaklni ajratib olamiz: to‘g‘ri burchakli to‘rtburchak, uchburchak, trapetsiyali va ovalli. Shu uch shaklni o‘zak shakl deb xisoblaymiz, chunki ular libos siluetining rivojlanishining turli hil bosqichlarini tavsiflaydi. Inson siluetlarini fikran ma‘lum bir geometrik shakllarning biriga moslashtirilganligi uchun ularning nomlanishi. Shu shaklni belgilaydi uchburchaksimon, tuxumsimon va boshqalar.

To‘g‘ri burchakli to‘rtburchak siluetslarning tashqi chiziqlari parallel, xar bir tarixiy davrda bu siluetslar o‘z nisbatlarini o‘zgartirgan, to‘g‘ri burchakli siluetslar statik, muvozanatli, sokin va jiddiy xolatni vujudga keltiradi. U qomat tasviriga qandaydir erkakcha ko‘rinish bag‘ishlaydi, bunday siluetga tarixda ayollik nazokatni yashirish maqsadida murojat etilgan. Xozirgi kunda sport va mumtoz uslubli liboslar siluetslarining assosi ko‘pincha Shu shakldan tashkil topgandir.

Uchburchak siluetslarning chiziqlari bir biriga nisbatan burchak ostida joylashgan bo‘lib, bu chiziqlar qaerdadir xayol qilingin nuqtada kesishishi ko‘zda tutiladi. Bu siluetslar ko‘pincha qomatga engillik, nazokatlilik va nafosat bag‘ishlaydi. Ular to‘g‘riburchakli siluetslarga qaraganda dinamikroq, chunki shakl uchburchak asosidan uning cho‘qqisiga intiladi. Tavsif etilayotgan siluetning uchburchakli asosi psstki qismi qanchalik keng bo‘lsa, uning yuqorisi (bosh kiyim, soch turmagi) Shunchalik past bo‘ladi, va uning silueti mustahkam va turg‘un ko‘rinishga keladi. Siluet turg‘unlashgan sari, uchburchak asosi gorizontol xolatda erga yopishgan bo‘lsa, qomat xam mustahkam ko‘rinadi.

Uchburchak asosi er satxidan uzoqlashgan sari, uchburchak asosi qisqarib, yuqoriga intilgan sari shakl birmuncha turg‘unlikdan chiqib, dinamik xolatga

o'tishni boshlaydi va qomat uzun bo'yli, kelishgan va dinamik ko'rinish oladi. Shakl qanchalik dinamiklashsa, u Shunchalik turg'unlikni yo'qotadi. Uchi pastga qaragan uchburchak silueti mustaxkam ko'rinmaydi. Assimetrik uchburchaklar dinamik xissiyot keltirib chiqaradi.

Oval (tuxumsimon) siluettarning asosiy chegaraviy kontur chiziqlari – ravon, qabariq, botiq egri chiziqlardan iborat. Bu siluetlar qomatga yumshoq nafis ayollik nafosat bag'ishlaydi. Oval aylanaga yaqinlashgan sari, qomat Shunchalik past va keng ko'rinishni oladi. Uzunchoq oval qomatni cho'zib kursatadi.

Murakkab siluettarni sodda geometrik naqshga kiritib bo'lmaydi. Ularning tasvirini bir necha geometrik shakllarning qo'shilgani tarzida tasavvur qilish mumkin. Ko'pincha murakkablashtirilgan siluetlar qomatning tabiiy nisbatini buzib ko'rsatadi. O'tgan zamonlar liboslari bir biri bilan taqqoslab ko'rsak, geometrik shakllarning asta sekinlik bilan o'zgarib borishi o'sha davrlar uslublarining o'zgaruvi bilan bog'liqligini ko'ramiz. Misol uchun, kadimgi Yunoniston liboslari to'g'ri burchakli siluetga xos bo'lsa, o'rta asrlik liboslariga esa – uchburchakli va trapetsiya siluettari xosdir.

Barokko va rokoko uslublari davrida libos siluetining oval shakli negiz bo'lib xizmat qilgan. XX asr boshlarida Yana to'g'ri burchakli shakl xukumronlik qildi. Shunisi sezilarliki, libos siluetining o'zgaruvchanligi, oldingi davrga nisbatan, bu davrga kelib tez tez amalga oshdi. Biroq XX asrga kelib, siluetning barcha shakllari ma'lum bo'lgan edi va ketma–ket birining o'rnini ikkinchisi egallay boshladi.

Shakllarining konstruksiyasi, silueti va bezagining xar hil bo'lishi keng imkoniyat yaratdi. Oldingi shakllar o'rnini yangilar egallaydi, siluetlar xam biri ikkinchisiga o'xshamaydi va bir biridan keskin farq qiladi. Zamonaviy moda yo'nalishiga asoslanib, libosda nisbatlar ketma–ket o'zgarib turadi. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, siluetining geometrik shakllarining uch hil ko'rinishi asos, yoki o'zak hisoblanadi. Biroq, amaliyotda ular sof holda kam uchraydi. Biron bir siluetga yordamchi geometrik shakllar yuksak mahorat bilan qo'shish orqali, uning yangi talqinlarini hosil qilishimiz mumkin. Ammo, ushbu shakllarni noo'rin qo'shib yuborilsa, yuqorida aytilgandek qomat nisbatlari yo'qolib, libos nohush

xissiyot keltirib chiqaradi. Demak, libos silueti qomat nisbatlari bilan xamoxang tarzda namoyon bo‘lishi ayni muddaodir.

5-mashq. O‘tgan darslarda ishlangan qoralama va siluetlar asosida qog‘ozga tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiya asoslari qonun qoidalariga asosan bir necha eskizlar ishlanadi.

Miniatyura kompozitsiyalarida kompanovka. 3. Miniatyura kompozitsiyalarida simmetriya va assimetri, metr va marom Miniatyura kompozitsiyalarida stilizatsiya. Shakllarni teng qismlarga bo‘lish. Kompozitsiyada yorug‘lik nur va soya. Mutanosiblik proporsiya. Kontrast farq Nyuans. Kengko‘lamlilik masshtabnost, Modul, Tektonika, Statika va dinamika. Rangshunoslik haqida ma’lumotlar. Axromatik va Xromatik ranglar. Ranglarning asosiy xususiyatlari. Asosiy ranglar. Ranglarni aralashtirish qoidalari. Kolarit, Ranglarni inson ruhiyatiga ta’siri. Kompazitsiyada ranglarni loyihalash kabi qoidalarni inobatga olib kompazitsiya eskizlar ishlanadi.

III. BOB. SOVG‘A BUYUMLARI: TO‘R, TOMOSHA QOVOQ VA

QUTICHALARNI BADIY BEZASH.

3.1. Kasb-hunar kollejlarda sovg'a buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash

1- mashg'ulot. To'r, chilim va nos, tomosha qovoqlar palaksimon o'simlik turiga kirib, ular bir yil mobaynida pishib etiladi. Urug'lari bizning iqlim sharoitimizda may oyida ekilsa, hosili dekabr, yanvar oylarida uzib olinadi. Kadilar obdon pishib, qurib etilishi hamda yomg'ir, qor ko'rgan holda uning yuza qismida turli shakl va tasvirlar paydo bo'lishi uchun ham qish oylarida uzib olinadi. Ota bobolarimiz kadilardan oshxona buyumlari sifatida foydalanib, suv, don mahsulotlarini saqlanganlar, ulardan cho'mich va qoshiqlar, taqsimcha va laganlar o'rnida foydalanishgan. Shuningdek, bedana uchun to'r qovoqlar, musiqa asboblari va boshqa ihtiyoj uchun buyumlar yasashgan, ularni gul va naqshlar bilan bezaganlar. Kadilarni badiiy bezashda tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash uchun o'quvchilar turli hajmdagi kadilardan andazalar oladilar. Kadi andzasining aniq o'lchamiga asosan, kompozitsiya asoslarining qonun-qoidalariga rioya qilgan holda turli eskizlar ishlaydilar. Kadilarni badiiy bezashda talabalar naqsh yoki miniatyura kompozitsiyalaridan foydalanishlari tavsiya etiladi. Uning uchun naqsh kompozitsiyasini qalamda va rangda ishlanadi. Dars jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom ashyolar, ish qurollari va qadimiy va zamonaviy ashyolar bilan ishlash texnologiyasi xaqida tushunchalar beriladi.

2- mashg'ulot. Obdon pishib etilgan kadilar uzib olinib 1-2 yillar davomida quritiladi va qopqoqlari lobzikda arralanadi yoki drelda teshilib ularning ichidan urug'lari tushirilib tozalaniladi. Ustidagi po'stlog' qismi iliq suvda ivitilib o'tkir pichoq yordamida o'irib tashlanadi. Tozalanib tayyor xolga keltirilgan kadilar 45-60 minut davomida **zig'ir** yog'da qaynatiladi. Bu yog' boshqa yog'larga nisbatan tez quridi va yog'i oqib ketguncha setka ustiga qo'yiladi.

3-mashg'ulot. Bu jarayonlar tugagach, yog'li taxta qurishini tezlatish uchun issiqligi boshqariladigan pechka isitgich javonga terib qo'yiladi. Isitiladigan javon issiqligi xona issiqligidan boshlab har kuni 10° S qo'shib boriladi. Issiqlik 90° S etgach, har kuni 10° S dan kamaytirib boriladi. Xona issiqligi 30° S bo'lsa, 90° S ga

etishi uchun 6 kun kerak bo'ladi. Yana ortga qaytish uchun 6 kun kerak bo'ladi. Demak 12 kun davomida issiq temir javonda ushlangan yog'li kadilar qurib ulguradi.

4-mashg'ulot. Yaxshi qurigan kadining ust qismi nazardan o'tkazilib. Og'zi kattachiq ochish uchun lobzikda arralanadi yoki drelda teshilib ularning ichi tozalanadi.

Tayyor holga keltirilgan kadilar kompozitsiya loyihasining koloritiga qarab yuzasi moy bo'yoqda bo'yab chiqiladi. Moy bo'yoq rangi qurigandan so'ng laklash bosqichiga o'tiladi. Qutichani laklashda rangsiz moyli lakdan foydalaniladi. Qutichani har xil changlardan asrash va sifatli quritish uchun yuqorida aytilgan issiqlik pechlardan foydalaniladi. Quritish jarayoni 60⁰ issiqlikda olib borilib, asta-sekinlik bilan sovutiladi. Laklangan quticha yuzasida kamchiliklar sezilganda qum qog'ozda jilvirlanib, u qaytadan laklanadi. Bu jarayon 3 marotaba takrorlanadib, quticha tayyor holga keladi.

5- Mashg'ulot. Kadilarni aniq o'lchamini olib, qog'oz tanlab mavzu asosida kompozitsiya loyihalarini bajaradilar. Kompozitsiya ishlash jarayonida tabiatdan, hayvonot bog'idan, turli adabiyot va jurnallardan ashyolar to'playdilar. To'plangan ashyolar asosida kompozitsiya yaratadilar.

6- Mashg'ulot. Yuzaga o'qituvchi tasdig'idan o'tgan miniatyura kompozitsiyasini yuzasiga to'g'ridan to'g'ri qalamda chiziladi yoki axta yordamida tushirishdan oldin uning yuzasidagi lakning yaltiroq qismi qirib tashlanadi va pishgan g'isht upasi yuzaga surib chiqiladi. Kadining laklangan yuzasi bilan ranglarni bir-biriga yaxshi qo'shilishida upa bog'lovchi vazifasini o'taydi.

7-Mashg'ulot. Kompozitsiya yuzasiga to'liq tushirilgandan so'ng ranglash jarayoni boshlanadi. Yuzasini ranglash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Katta yuzalar: fon, kiyimlar, yuz va qo'l qismlari bo'yab chiqiladi. Turlash, siyoh qalam ishlari, kiyimlardagi chiziq va burmalar bajariladi. Odam yuz qismidagi bo'laklar ingichka mo'yqalam yordamida ishlanadi. Liboslardagi naqshlar, gullar bilan bezaladi va kompozitsiyadagi mayda detallarga aniqliklar kiritiladi. Kadi yuzasidagi kompozitsiyani tugallanishining so'nggi bosqichida ustaning ijod qilgan shahari nomi, yili va shaxsiy imzosi qo'yilgandan so'ng ranglarni qor, yomg'ir issiq va

sovuqdan yaxshi saqlash maqsadida laklanadi. Laklash va pardozlash ishlari quyidagi bosqichda amalga oshiriladi. Yassi yuzali mo'yqalam orqali rangsiz moyli lakda laklanib, pechda quritiladi. Laklash jarayonida foydalaniladigan loklar quyidagi talablarga javob berishi kerak: tashqi muhitga chidamlilik, elastik rangsiz qobiq hosil qilish, tez qurish va boshqalar.

Quritish jarayonida yuzaga kelgan pufakchalarni yo'qotish maqsadida qum qog'oz bilan jilvirlanib, yana bir marotaba laklanadi va quritilgandani so'ng yana bir bor mayda qum qog'ozda jilvirlanib, o'simlik yog'i bilan qo'l kafti yordamida ishqalanadi. Kadining yuzasi ko'k tosh kukuni bilan duxoba mato yordamida ishqalanib, pardozlash ishlari bajariladi.

Xajmi va shakliga qarab tayyor holga kelgan sovg'a buyumini sifatli saqlash uchun kartondan quti karopkasi yasaladi va quticha marmar yoki gul qog'oz va kolegrafik yozuvlar bilan bezaladi.

Murakkab shakldagi qutichalarga mavzuli kompozitsiyalar ishlash texnologiyasi.

Lokli miniatyura san'ati qadamdan mavjud bo'lgan san'at turidir. O'zbek xalqlarining Amaliy bezak san'atida turli xil qutichalar, qalamdonlar, kitoblarga muqovalar, milliy qo'g'irchoqlar yasashda tosh qog'ozdan yasash uslubini ko'ramiz. O'quvchilar kompozitsiya ishlash uchun birinchi navbatda toshqog'ozdan qutichalar yasaydilar.

1-bosqich. Toshqog'oz tayyorlash. - Qog'oz yoki kartonni bir-birining ustiga qavat-qavat qilib yopishtirib, uni kuchli bosimda preslab, ma'lum qalinlik Hosil qilinib, ishlov berilgan engil, puxta unsur.

Toshqog'ozning afzalligi unda yorilish xususiyati bo'lmaydi. O'z xajmiga nisbatan engil va puxta bo'ladi. Xozirgi kunda tosh qog'ozdan yasalgan turli qutichalarni, qalamdonlarni, milliy o'zbek qo'g'irchoqlarni ko'rishimiz mumkin.

Ularning asosi yog'och qattiqligida bo'lgan mustahkam va engil kartonlarning qavat qilib yopishtirilgan holatidir. Bir necha qavat karton qog'ozini yopishtirish uchun un va suv maxsulotidan elim tayyorlanadi. Karton qog'oz kerakli o'lchamdan kesib olinadi. Yassi yuzali mo'yqalam orqali xamir elim yoki PVA elimi surtiladi, so'ng uning ustiga boshqa karton qog'oz qo'yilib, bu jarayon

kerakli qalinlikkacha olib boriladi. 50 x 50 sm karton panno tayyorlashda 1,5 sm atrofidagi qalinlik etarli bo‘lib, taxminan 10 qavat kartondan iborat bo‘ladi. Bir-biriga yopishtirilgan kartonlar yaxshi, zich yopishishlari uchun ular presslangan holda 1 sutka davomida ushlanadi.

2- bosqich. Pressdan olingach, taxta 45-60 minut davomida temir idishda yog‘da qaynatiladi. Eng yaxshi yog‘ **zig‘ir** yog‘idir. Chunki bu yog‘ boshqa yog‘larga nisbatan tez quridi. Yog‘da qaynatilgan karton taxta yog‘i oqib ketguncha temir setka ustiga terib qo‘yiladi.

3-bosqich. Bu jarayonlar tugagach, yog‘li taxta qurishini tezlatish uchun issiqligi boshqariladigan pechka isitgich javonga terib qo‘yiladi. Isitiladigan javon issiqligi xona issiqligidan boshlab har kuni 10° S qo‘shib boriladi. Issiqlik 90° S etgach, har kuni 10° S dan kamaytirib boriladi.

Xona issiqligi 21° S bo‘lsa, 81° S ga etishi uchun 6 kun kerak bo‘ladi. Yana ortga qaytish uchun 6 kun kerak bo‘ladi. Demak 12 kun davomida issiq temir javonda ushlangan yog‘li karton taxta qurib ulguradi.

4-bosqich. Yaxshi qurigan karton taxtaning ust qismidagi qirralar egov yoki qum qog‘oz yordamida yarim aylana holatiga keltiriladi. Burchaklar ko‘proq kesilishi kerak bo‘lsa, o‘tkir pichog‘ bilan kesib ishlov berish mumkin.

Yog‘ shingan karton taxta pichoq yordamida juda yaxshi kesiladi. Ishlov berish yakunlangach, shpaklyovka jarayoni ishlanadi. Ya’ni, panno sathi mayda notekislik va chuqurchalari shpatel yordamida 3-4 yupqa surtib quritilgan shpaklevka suvog‘i bilan tekislanadi. Har bir shpaklyovka surtishda oldin qurigan oldingi suvoq mayin jilvir bilan ishlov beriladi.

5-bosqich. Shpaklyovka tayyorlash tartibi. .Mayin tuproq yoki mel -100 g, Duradgorlar elimi – 10 g, Zig‘ir yog‘i – 10 g, Shpaklyovka qilib silliqlangan panno sathi moyli bo‘yoq bilan 3 marotaba bo‘yaladi. Har bir bo‘yoq yaxshilab quritilgandan so‘ng navbatdagisi surtiladi. Kerakli rang bilan tekis bo‘yalgan panno satxini loklash jarayoni davom ettiriladi. Lok surtish Ham 3 qavat bo‘ladi. Loklash jarayonidan so‘ng, lokli satx mayin jilvir yordamida ishqalab, yaltiroq satx olib tashlanadi. Ko‘zga ko‘rinmas mayin notekislik Hosil qilinadiki, bu tuxumli tempera bo‘yog‘i satxga yaxshi yopishishi uchun kerak.

6-bosqich. Tayyor holga keltirilgan toshqog‘ozlar kerakli o‘lchamlarda qutichaning qopqog‘i, yon tomonlari va asosi kesib olinadi. Ular PVA elimi yordamida bir biriga yopishtirib chiqiladi va yaxshilab quritilgan qutichaning qopqoqlarining ochilib yopilishi tekshirib ko‘riladi. Qutichaning qopqoqlari bo‘yoq va laklangandan keyin ham bemalol ochilib yopilishi uchun oldindan hisobga olinadi va qum qog‘oz yordamida kam ko‘stlari jilvirlab chiqiladi. Tayyor holga kelgan quticha suv tekkanda yorilib ketmasligi uchun birinchi navbatda turli o‘simlik moylari yoki alif bilan to‘ydiriladi va yaxshilab quritiladi. Kompozitsiya loyihasining koloritiga qarab quticha yuzasi moy bo‘yoqda bo‘yab chiqiladi. Ichki qismi esa qizil moy bo‘yoq rangga bo‘yalib, quritiladi. Qutichaning o‘lchami, hajmi va murakkabligiga qarab uning ichki qismiga ayrim hollarda duxoba matosi yopishtiriladi. Qutichaga berilgan moy bo‘yoq rangi qurigandan so‘ng laklash bosqichiga o‘tiladi. Qutichani laklashda rangsiz moyli lakdan foydalaniladi. Qutichani har xil changlardan asrash va sifatli quritish uchun yuqorida aytilgan issiqlik pechlardan foydalaniladi. Quritish jarayoni 60⁰ issiqlikda olib borilib, asta-sekinlik bilan sovutiladi. Laklangan quticha yuzasida kamchiliklar sezilganda qum qog‘ozda jilvirlanib, u qaytadan laklanadi. Bu jarayon 3 marotaba takrorlanadib, quticha tayyor holga keladi.

7-bosqich. Qutichani aniq o‘lchamini olib, qog‘oz tanlab «Buyuk ipak yo‘li» mavzusida kompozitsiya loyihalari bajaradilar. Kompozitsiya ishlash jarayonida tabiatdan, hayvonot bog‘idan, turli adabiyot va jurnallardan ashyolar to‘playdilar.

1. Naturadan yaniy tabiatdan o‘simliklar, gullar, daraxtlar,tog‘, toshlar, suv, bulutlar va turliy parrandalar tovus, laylak, turna, qirg‘ovul, kaklik, burgut, kalxat, lochin, zag‘izg‘on, kabutar, qaldirg‘och va boshqa qushlarning qoralama tasvirini ishlaydilar. Bu dars jarayonidan maqsad o‘quvchi va talabalarning tabiatdan estetik zavq olib, ularning kuzatuvchanglik qobilyatini rivojlantirish.

2. Xayvonot olami, ot, tuya, sher, yo‘lbars, qoplon, bo‘ri, tulki, it, kiyk, qo‘y, echki va inson qomatlari tasvirlangan qoramalarini ishlaydilar.

3. inson qomati aks etgan qoralama tasvirini ishlaydilar.To‘plangan unsurlar asosida qoramalar tasvirini miniatyura kompazitsiyasi loyihalarida ishlatish uchun ramziylashtiriladi. Miniatyura kompazitsiyalaridagi qoramalar tasvirlarni

ramziylashtirilishda chiziqlar muhim ahamiyatga ega.

8-bosqich Qutichaga tushirish uchun o'qituvchi tasdig'idan o'tgan kompozitsiyani shaffof qog'ozga (kalka) o'tkaziladi. Tayyorlangan shaffof qog'oz *axta* deb nomlanadi. *Axta*- bu qog'ozga chizilgan naqshning chiziq yo'llari igna yordamida teshib, Miniatyura, kashtachilik, yohoch o'ymakorligi, ganch o'ymakorligida va Shu kabi xalq amaliy san'ati turlarida naqshni yuzaga ko'chirishda ishlatiladi.

9-bosqich Quticha yuzasiga kompozitsiyani axta yordamida tushirishdan oldin uning yuzasidagi lakning yaltiroq qismi qirib tashlanadi va pishgan g'isht upasi yuzaga surib chiqiladi. Qutichaning laklangan yuzasi bilan ranglarni bog'lanishida hamda axtadagi kompozitsiyani yuzaga tushirishda upa muhim ahamiyatga ega. Chunki upa surilmagan taqdirda quticha yuzasiga ranglar berilganda ranglar bir joyga to'planib qoladi, axtadagi kompozitsiya nina yordamida yuzaga tushirilayotganda qora chiziqlarning paydo bo'lishiga yordam beradi.

10-bosqich Kompozitsiya quticha yuzasiga to'liq tushirilgandan so'ng ranlash jarayoni boshlanadi. Quticha yuzasini ranglash to'rt bosqichda amalga oshiriladi: *Birinchi bosqich*. Katta yuzalar: fon, kiyimlar, yuz va qo'l qismlari bo'yab chiqiladi. *Ikkinchi bosqich*. Turlash, siyoh qalam ishlari, kiyimlardagi chiziq va burmalar bajariladi. *Uchinchi bosqich*. Odam yuz qismidagi bo'laklar ingichka mo'yqalam yordamida ishlanadi. *To'rtinchi bosqich*. Liboslardagi naqshlar, gullar bilan bezaladi va kompozitsiyadagi mayda detallarga aniqliklar kiritiladi.

11-bosqich Qutichaning yon tomoni (bo'rti) uning katta kichikligiga qarab olti xil naqsh elementlari yordamida bezalishi mumkin.

1. Resfeeyder yordamida rangli chiziqlar chizish.
2. Katta va kichik nuqtalar bilan bezash mumkin.
3. Zanjir naqsh kompozitsiyasini bajarish.
4. Qaytarilma naqsh yo'li (friz) bilan bezash.
5. Murakkab shakldagi qutichalarning kichik qirralariga g'uncha yoki gul islimi naqsh kompozitsiyasi bilan bezash mumkin.

6. Qutichaning yon qismi baland boʻlgan hollarda yuza qismidagi kompozitsiya mavzusiga bogʻliq kompozitsiya ishlash mumkin.

12-bosqich Quticha yuzasidagi kompozitsiyani tugallanishining soʻnggi bosqichida ustaning ijod qilgan shahari nomi, yili va shaxsiy imzosi qoʻyilgandan soʻng ranglarni yaxshi saqlash maqsadida laklanadi.

13-bosqich Qutichalarni tashqi muhit taʼsiri quyosh, suv, issiq, sovuq, changdan saqlash va umrini uzaytirish uchun loklardan foydalaniladi. Laklash va pardozlash ishlari 4 bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqich. Quticha yassi yuzali moʻyqalam orqali rangsiz moyli lakda laklanib, pechda quritiladi.

Ikkinchi bosqich. Quritish jarayonida yuzaga kelgan pufakchalarni yoʻqotish maqsadida qum qogʻoz bilan jilvirlanib, yana bir marotaba laklanadi va quritiladi.

Uchinchi bosqich. Quticha yana bir bor mayda qum qogʻozda jilvirlanib, oʻsimlik yogʻi bilan qoʻl kafti yordamida ishqalanadi.

Toʻrtinchi bosqich. Qutichaning yuzasi koʻk tosh kukuni bilan duxoba mato yordamida pardozlash ishlari bajariladi.

Buning uchun rassomchilikda foydalaniladigan loklar quyidagi talablarga javob berishi kerak: tashqi muhitga chidamlilik, elastik rangsiz qobiq hosil qilish, tez qurish va boshqalar.

Lok tayyorlash uchun sifatli rangsiz smola va yogʻ kerak boʻladi. **Smola** bu – daraxt va oʻsimliklardan olinadigan qattiq shaffof, och sargʻimtir rangdagi modda. Smolalar tabiiy va sunʼiy boʻladi.

Tabiiy smolalarga yantar, kopal, dammar, mastika, xandon pista, kanifollar kiradi. Sunʼiy smolalarga akril smolasi kiradi.

Yantar yoʻqolib ketgan hidli daraxtlar smolasi boʻlib, u Baltika dengizi, Dnepr, Visla, Neman daryolari qirgʻoqlari boʻyidan topiladi. Toʻfonlar suv ostiga choʻkkan yantar boʻlaklarini qirgʻoqqa chiqarib tashlaydi. YAntar 250-300⁰ issiqlikda eriydi.

Kopal smolasi ham qadimiy smolalardan hisoblanib, u XVII asrdan boshlab

foydalanila boshlagan. U Sharqiy Afrika, Uzoq Sharq, Kavkazortida uchraydi. Uning och sariq, to‘q sariq va jigarrang ko‘rinishdagi qattiq va yumshoq turlari bo‘ladi. Qattiq turi 300° S, yumshog‘i $130-180^{\circ}$ S da eriydi.

Dammara smolasi XIX asrdan boshlab foydalanilmoqda. U Indoneziya va unga qo‘shni bo‘lgan davlatlarda o‘sovchi o‘simliklardan olinadi. Uning eng yaxshi sifatlilari rangsiz ko‘rinishga ega bo‘lib, u skipidar va qizigan yog‘da eriydi. U $80-100^{\circ}$ S temperaturada eriydi.

Mastika smolasi XII asrdan boshlab rassomlar tomonidan ishlatila boshlangan. U Gretsiya, Afg‘oniston, Afrika mamlakatlarida o‘sovchi o‘simliklardan olinadi. Uning rangi och va to‘q bo‘ladi. U 100° S temperaturada eriydi. Smola qizigan yog‘ va suyultiruvchilar ta’sirida yaxshi eriydi.

Xandon pista (fistashka) smolasi O‘rta Osiyo, Ozarbayjon, Gruziya, Qrimda o‘sovchi daraxtlardan olinib, $60-70^{\circ}$ S eriydi. Bu smola qizigan yog‘ va suyultiruvchilar ta’sirida yaxshi eriydi.

Kanifol oddiy sosna daraxtining smolasi. U suyultiruvchi va yog‘lar ta’sirida tez eriydi. Eriş temperaturasi 100° S. Kanifol smolasi qotganda mo‘rt va sarg‘imtir plenka Hosil qiladi. Shu sababli rassomchilikda ishlatilmaydi.

Moyli lok — bu smolaning yog‘ bilan aralashmasidir. Lok tayyorlash uchun zig‘ir yog‘i, yong‘oq yog‘i yoki ko‘knori yog‘i ishlatiladi.

Eng yaxshi loklar yantardan tayyorlanadi. Lekin yantar smolasini eritish qiyin jarayon bo‘lib, uni faqat fabrika sharoitida amalga oshirish mumkin. Xandon pista smolasi yoki sibir listvinitsa daraxtidan olingan smola qizigan yog‘da eritilib lok hosil qilinadi. Buning uchun quyidagi nisbatlardan foydalaniladi:

1. Oqartirilgan zig‘ir (lyon) yog‘i – 600 gramm
2. Sibir listvinitsa daraxti smolasi – 300 gramm
3. Oqartirilgan ko‘knori yog‘i – 600 gramm
4. Xandon pista yog‘i – 350 gramm
5. Tozalangan yong‘oq yog‘i – 400 gramm
6. Sibir listvinitsa daraxti smolasi – 200 gramm
7. Oqartirilgan zig‘ir (lyon) yog‘i – 600 gramm
8. Xandon pista smolasi – 320 gramm

14-bosqich Tayyor holga kelgan qutichani sifatli saqlash uchun kartondan quticha yasaladi va quticha abri bahor, marmar yoki gul qogʻozlari bilan bezaladi.

Marmar qogʻoz yoki abri bahor qogʻozi qoʻlyozma kitoblarning muqova ichki qismlari, sheʼrlar yozilgan varaqlar hamda varaq xoshiya qismlarini bezashda ishlatilgan. Uni tayyorlash maʼlum bir mutaxassislargagina maʼlum boʻlib, sir saqlangan. Marmar qogʻozni tayyorlashning bir necha yoʻllari boʻlib, ulardan biri quyidagicha: 200 gramm miqdorda tragant elimi 3 litr suvda eritilgan. Tragant elimini topish imkoniyati boʻlmaganda, uni oʻrniga zigʻir urugʻining suvdagi boʻktirib, hosil boʻlgan suyuqlikdan foydalanish mumkin.

Tayyor boʻlgan eritmani bir necha marotaba yupqa matodan oʻtkazib, yirik boʻlaklardan tozalangan. Soʻngra suyuqlik ishlov beriladigan qogʻoz oʻlchamidan kattaroq boʻlgan togʻorasimon idishga quyilgan. Bir qancha vaqt tindirilib, suvning yuziga chiqib qolgan ortiqcha chiqindilar olib tashlangan. Turli rangdagi pigmentlar maydalanib, alohida-alohida chinni idishchalarga solib, elim bilan aralashtirilgan. Yangi buzoq oʻtini (jelch – mol va parrandalarning ichki aʼzosidan olinadi) olib bir oz isitib, boʻyoqlar bilan aralashtirilgan. Bu boʻyoq va mol oʻti aralashmasi togʻoradagi eritilgan tragant ustiga moʻyqalam yordamida tomizilgan. Bunda oldin toʻq ranglar, soʻng och ranglar tomizilgan. Boʻyoq tarkibidagi mol oʻti (jelch) moddasi boʻyoqning qogʻozga singishiga yordam bergan. Ot dumidan tayyorlangan choʻtka yoki nozik choʻp yordamida suv satxida turli shakllar chizilgan. Shundan soʻng hosil boʻlgan rangli aralashma sirtiga oq qogʻoz 5-10 sekund davomida yotqizilib, asta-sekinlik bilan koʻtarib olingan. Shu vaqt davomida suv sathidagi rangli shakllar qogʻoz sirtiga oʻtgan. Qogʻozni orqa tomoni bilan yotqizib, soya joyda quritilgan. Bunday rangli qogʻozni “abri bahor”, yaʼni “bahor bulutlari” deb nomlashgan.

3.2. Kasb-hunar kollejlarda sovgʻa buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash mavzui boʻyicha tajriba sinov ishlari.

Uchtepa tumani milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejida, o‘quv pedagogik amaliyot davrida, bitiruv malakaviy ishni tajriba-sinovdan o‘tkazganm. Bitiruv malakaviy ishim, Kasb-hunar kollejlarda sovg‘a buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash mavzusida bo‘lib, uning kirish qismida, bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishning maqsadi, bitiruv malakaviy ishning ob‘ekti, bitiruv malakaviy ishning predmeti, bitiruv malakaviy ishning vazifalari va bitiruv malakaviy ish metodlari kabi talablardan tashkil topgan. Undan so‘ng, Kirish, Birinchi bob. Miniatura kompozitsiya asoslari mavzusida bo‘lib, u 1.1. Kasb-hunar kollejlarning miniatura darslarida kompozitsiya asoslarini o‘qovchilarga o‘rgatish orqali dars samaradorligini oshirish va 1.2. Kasb-hunar kollejlarning miniatura darslarida rangshunoslik haqida ma’lumotlarni o‘qovchilarga o‘rgatish kabi mavzudagi bandlardan iborat. Ikkinchi bob. Sharq miniatura maktablari va uning namoyondalari mavzusida bo‘lib, u 2.1. Kasb-hunar kollejlarning miniatura darslarida xiroq miniatura maktabi va behzod ijodi haqida ma’lumotlar berish va 2.2. Kasb-hunar kollejlarning miniatura darslarida tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash metodikasi kabi mavzulardan tashkil topgan. Uchinchi bob. Sovg‘a buyumlari: to‘r, tomosha qovoq va qutichalarni badiiy bezash mavzusida bo‘lib, u 3.1. Kasb-hunar kollejlarda sovg‘a buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash texnologiyasi va 3.2. Kasb-hunar kollejlarda sovg‘a buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash mavzui bo‘yicha tajriba sinov ishlari kabi mavzulardan iborat. Undan tashqari xulosada bitiruv malakaviy ishning mazmuni, Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatdagi adabiyotlarni barchasini o‘qib ulgurmagan bo‘lsamda ularning asosiy mazmuni bilan tanishib chiqdim va bitiruv malakaviy ishida Islom Abdug‘anievich Karimovning Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T: Ma’naviyat, 2008. S. Bulatov, M. Pulatova. Philosophy of space in beauty Monografiya “Iqtisod - Moliya”. 2013 y. Sulaymon X., Sulaymonova F. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar. Toshkent “Fan” nashriyoti. 1992 yil. Shoyoqubov Sh.K.Zamonaviy O‘zbekiston miniaturasi. Toshkent.

“O‘zbekiston” nashriyoti 2006 yil. Shabratov P.P. Lakli miniatura “

Kompozitsiya” T: “Yangi asr avlodi” 2007 Shabaratov P.P. Miniatyura T: “Tafakkur” - 2013. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.1-2.-T., O‘zMU nashriyoti, 2000-2001y. 1991-2014 yillarda chob etilgan adabiyotlar, jurnallar va Elektron ta’lim resurslaridandan ijodiy foydalandim.

Ilovalarda: 1-ilova. Elektron ta’lim resurslaridandan, inglizcha va o‘zbekcha lug‘ot sahifalarini yozib oldim. 2-ilova. Bitiruv malakaviy ishi mavzulariga oid “Atamalarining izohli lug‘ati”ni Patxiddin aka Shabaratovdan va oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darsliklardan hamda boshqa adabiyottdan ijodiy foydalandim. 3-ilova. Mavzulariga oid rasmlarda, bitiruv malakaviy ishi mavzulariga oid turli suratlar, reprodaksiyalar, rangli fotosuratlar berilgan.

Uchtepa tumani milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejida o‘n to‘rt hafta bo‘lib o‘tgan pedagogik o‘quv amaliyoti bo‘yicha, yuqorida qayd qilingan mavzularni, kompozitsiya fanligidan o‘quvchilariga sinov darsi o‘tib berdim. Daars o‘tish jarayonida, bitiruv malakaviy ishimdagi kamchiliklarni aniqlab ularni imkon darajasida to‘g‘irlab bordim. Tsjriba sinov jarayonida miniatyura fanini o‘qitishda innavatsiyalardan foydalanish mavzuidan keng foydalandim. «Miniatyura» fanini o‘qitish sifatini oshirish borasida ko‘pgina o‘qitish metodlaridan foydalandim. Tajriba sinov ishlarimda an’anaviy uslublardan tashqari noan’anaviy uslublar ham qo‘llanilishishiga tuzuri keldi. O‘quvchilar miniatyura fanlarini chukurroq va mukammal egallab, o‘z bilimlarini oshirishlarida bu kabi uslublar yaxshi samaralarni beradi. Umuman olganda, miniatyura fani nimani o‘rgatadi va dars jarayonida qanday uslublardan foydalaniladi. Hozirgi kunda xalq amaliy san’ati turlariga xususan miniatyura san’atiga ham bo‘lgan kiziqish toboro ortib, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi, kasb-hunarga bo‘lgan intilishlarga keng yo‘l ochib berilgan. Miniatyura fanini o‘rganish orqali o‘quvchi kasb-hunar egasi bo‘lishga intilib o‘z ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Bunday bilim egasi bo‘lishda miniatyura fanini chuqurroq egallash kerak bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘tilgan mavzularnn oson o‘zlashtirishi, malakalarini oshirishda nakkoshlikka oid bajariladigan topshiriqlarni o‘zlashtirish faoliyatini oshirishda Yangi pedagogik yondaShuvlarni qo‘llash yaxshi samara beradi. Pedagogik yondashuvlar deganda dars berish jarayoniga muayyan

yangilik kiritib, o'qituvchini talabalarning bilimlarini va Amaliy malakalarini kay tarzda oshirish mumkinligini hamda ularning o'zlashtirishini aniqlashning yangi uslublarini ishlab chiqishini tuShunish mumkin. Jumladan, o'yinli texnologiyalar foydalanishning asosini talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtiruvchi, qiziqtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

Ma'lumki, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida Miniatyura san'atini o'qitishning o'ziga xosligini bili shva uni hozirgi zamon talablari asosida hamda Miniatyura yondaShuvlarni qo'llash eng muhim masalalrdan iborat. Miniatyura san'ati o'zining qadr-qimmatiga ega bo'lgan hamda doimiy ravishda rivojlanib, tarakqiy etib boradi. Ma'lumki, keyingi vaqtda yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishi bu sohaning rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ayniqsa zamonaviy kompyuter texnologiyasining Amaliy san'atga kirib kelishi juda kata yutuq bo'ldi. Buning natijasida komperning grafik dasturlari yordamida qisqa ichida miniatyura naqsh kompozitsiyasini hosil qilish va ranglash, ularni turli soxalarga qo'llash oson bo'lib qoldi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarni qog'ozga naqsh ishlash jarayonida chiziqnlarni to'g'ri va chiroyli, aniq chiza olishga o'rgatish mustaqil ravishda soda naqsh kompozitsiyalarini chizish, o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ularni tabiatdagi turli xil gul va o'simliklarni kuzatishi, Shu orqali gullarni stilizatsiya qilib chizishni o'rgatish kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi o'qtirilgan.

Keyingi o'n yillar ichida yaratilgan pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya» kabi tuShunchalar ko'p uchrab turgani bilan ularning o'zbek tilidagi maromiga etgan ta'rifi hali tuzilmagan. Texnologiya deganda, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tuShuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Ushbu

tuShunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatilgan tizimli ta'siri natijasida jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta'riflash mumkin.

Pedagogik faoliyati jamiyatdagi funksiyalar bo'yicha va nisbiy sifat xususiyatlariga qarab hamda psixologik tomonlar bo'yicha yozuvchi, artist va olimlar tomoniga yaqin. Pedagog mehnatning xususiyatlari tabiatning eng buyuk in'omi bo'lgan insonni o'qitish va tarbiyalash uchun mo'ljallangan:

1. Pedagogning mehnat faoliyati o'sib kelayotgan yoshlarning insoniy xususiyatlarini shakllantirishdan iborat. 2. Pedagog faoliyatidagi mehnatning o'ziga xos xususiyati Shundan iboratki unda mehnat predmeti bo'lib hazrati inson hisoblanadi. 3. Pedagog mehnat unga har tomonlama ta'sir etuvchi omillarni boshqaruvchi.

Mahorat - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog – o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi fan va san'atning mos sohalari Bilan tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tuShunuvchi o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutuxassis.

Pedagog nazariyada o'qituvchi mahoratini ikki xil mavjud. Birinchsi, pedagogik mehnatni tuShunish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi, tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o'rin tutadi.

«Talantli insonlarning tasodifiy taqsimotiga ishonishimiz mumkinmi? Bizlar talant xisobiga tarbiyani amalga oshirishimiz mumkinmi? Yuq. Shuning uchun faqat mahorat to'g'risida gapirish mumkin, ya'ni haqiqatda tarbiyaviy ishlarni biluvchi tarbiyalay olish haqida gapirish mumknn.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularning turlariga:

1. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari.
2. Klaster (axborotni yoyish)
3. Aqliy hujum.
4. Konpeksiya jadval.
5. T-sxema.

6. Pinbord.
7. Guruhlarda ishlash bo'yicha amaliy mashg'ulot.
8. O'zlashtirishning ma'suldor va izlanuvchi darajalariga mo'ljallangan texnologiya va hakoza kiradi

Ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga zamonaviy pedagogik texnologiyalar — «ZPT» - o'quv jarayonini muayyan bir tizimga keltirishdir, - degan edi Sakomoto.¹

Tizim - deb, tarbiyalangan, o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumiy funksiyani bajaruvchi elementlar to'plamiga aytiladi.

¹ Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi, 2006. - 158 b

Miniatyura naqshlariga oid:

O‘z – o‘zini baholash (Vertushka - charxpalak) uslubi
1 - jadvalda keltirilgan miniatyura naqsh elementlarining nomlanishi
qanday.

№	Elementlar gruppasi	barg	novda	gul	bofta	shkift	shobarg

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi “Vertushka – Charxpalak” uslubidagi naqsh elementlarining nomlanishi berilgan bo‘lib, o‘quvchi va talabalar bu uslubda keltirilgan naqsh elementlarini qanday nomlanishini aniqlashlari kerak.

Bu uslubni qo‘llaganda mashg‘ulotni bita o‘quvchi bilan emas, balki guruh-guruhga ajratib, ular o‘rtasida musobaqa shaklida o‘tkazish ham mumkin. Bu uslub orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilim beradi, balki shu bilan birga ularning olgan bilimlarini ham aniqlashi mumkin.

Sodda miniatyura naqsh kompozitsiyasini chizishga oid: “Blits-o‘yin” - “Men JIF tashkilotchisi” 2-jadvalda keltirilgan Miniatyura naqshlaridagi 7 gul naqshini chizishish qoidalarini aniqlanadi.

№	Naqsh elementlarini, novda bofta shakli	Yakka baho	Yakka xato	Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob
1	Gul elementla-					
2	Novda, bofta, gul elementlari					
3	Bofta shakli-dagi padnus shakli gul va novda elementi					

Ikkinchi jadvalda - «Men JIF tashkilotchisi» uslubida esa o‘quvchi lar 7 chi gul, «padnus islimi»ni chizilish tartibini aniqlash so‘ralgan. Birinchi bosqichda, har bir o‘quvchi va talaba alohida ishtirok etadi va baholanadi. Ikkinchi bosqichda esa,

guruh mayda guruxchalarga (kamida 4 kishidan iborat) bo‘linib ishtirok etadi va baholanadi. Mashg‘ulot oxirida esa o‘qituvchi har bir o‘quvchini alohida baholaydi hamda guruhlarning yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini ko‘rsatib baholaydi.

Yuqoridagi uslublarning qo‘llanishidan maqsad o‘quvchi va talabalarga nazariy bilim berish bilan birga ularning Amaliy malakalarining oshirish ham nazarda tutiladi. Chunki, o‘yinli texnologiyalar boshqa uslublardan Shunisi bilan ajralib turadiki, o‘quvchi va talabalarni jamoa ishlashga, erkin fikrlashga o‘rgatadi, har bir qatnashchi nazardan chetda qolmaydi. Shuningdek, o‘quvchiga bilim berish ham, baholash ham oson kechadi.

Zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga etkizib berish, ularda malum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, Shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta‘lim jarayonini nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to‘plangap bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyida ta‘lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so‘z yuritimiz.

2 - mashg'ulotlarda ko'rgazmali qurollardan foydalanish

Ma'lumki, tasviriy va amaliy san'at darslarida ko'rgazmalilik o'z harakteriga ko'ra mashg'ulotlarning asosiy va muhim qismi hisoblanadi. Ularsiz amaliy san'at darslarini tasavvur etib bo'lmaydi. Shuni hisobga olib ko'rgazmalilikni quyidagi ko'nikmalar bo'yicha guruhlab tayyorlash tavsiya etiladi:

- tabiat, turmush va mehnat mahsulotlari;
- rasm, tablitsa va sxemalar;
- san'at asarlarining reproduksiya, slayd, diapozitiv, diafilmlari va boshqalar;
- predmet modellari, maketlar.

Mazkur didaktik materiallarni nashriyot va korxonalar tomonidan tayyorlangan bo'lishi shart emas, ularning o'qituvchining o'zi bimalol tayyorlashi mumkin. San'at asarlarning slaydi va diapozitivlarini o'qituvchi asliga qarab yoki rasmda fotosini olib tayyorlasa bo'ladi. Ta'lim tizimini amaliyotga joriy etishni faollashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini turli shakl va yo'llar bilan o'rganib borish nihoyatda muhim jarayondir. O'qituvchilar faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri, ularning ijodkor bo'lishliklari hisoblanadi. Ular har bir darsga ijodiy yonda Shuvlari, beto'xtov izlanishlari olib borishlari, o'qitishni doimo sinov bilan o'tkazib borishlari talab etiladi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, har bir o'qituvchi o'zining shaxsiy metodikasiga ega bo'lishi lozim. Boshqa birorta ilg'or o'qituvchining metodikasini ko'r-ko'rona o'zlashtirib olish doimo yaxshi natija beravermaydi. Bunga o'qituvchilarning tayyorgarligi va ta'lim muassasasini shart – sharoitlari yo'l qo'ymasligi mumkin. Kasb-hunar kollejlari ta'limni takomillashtirish maqsadida o'quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi. Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatini muttasil ravishda rivojlantirish tizimi bo'lib, bu masalalarga ilmiy asoslangan nuqtai nazardan yondashish orqali mashg'ulotlarni samarali olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy san'at mashg'ulotlarini olib borishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

1. Mavzu	Miniatyura san'ati tarixi va uning ahamiyati	
Maqsad va vazifalar	<p style="text-align: center;">O'qituvchi uchun:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sharq miniatyura maktablari haqida ma'lumot berish. 2. Milliy madaniy merosi-mizga mehr va g'urur uyg'o-tish. 3. Xalq amaliy san'at asar-larini ma'naviy qiymatini to'liq etkazib berish. 	<p style="text-align: center;">Talaba uchun:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sharq miniatyura maktablari haqida ma'lumotga ega bo'lish. 1. Miniatyura san'ati qo'lnishi haqida ko'nikmalar hosil qilish. 2. Milliy madaniy meros ularni bir – biridan farqlash va foydalanish.
O'quv mashg'ulotini ng mazmuni	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sharq miniatyura maktablari haqida ma'lumotni o'rganish, bilish. 2. Miniatyura san'ati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish. 3. Miniatyura ustalari ijodini o'rganish va tahlil qilish. 	
O'quv mashg'ulotini ng texnologiyasi	<ul style="list-style-type: none"> - metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, muammoli o'qitish. - shakllar: nazariy-amaliy (kichik guruhlarda). - usullar: slayd – taqdimoti namoyishi usuli. - vositalar: adabiyot va albomlar, ijodiy materiallar. - nazorat qilish: savol-javob. - baholash: faol ishtirok uchun J.N.–3b. (reyting asosida) 	
Kutiladigan natijalar	<p style="text-align: center;">O'qituvchi uchun:</p> <p>Darsning maqsadiga erishish;</p> <p>O'quvchining mavzu haqida bilimni shakllantirishda birinchi bosqichni amalga oshirish;</p> <p>O'quvchilarni sodda o'z fikr-larini ifodalash ko'nikmalarini hosil qilish;</p>	<p style="text-align: center;">O'quvchi uchun:</p> <p>Amaliy san'atning ganch o'ymakorligi turlari bilan tanishish va to'liq ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>Amaliy san'at turlarini tahlil qilish ko'nikma-larini shakllantirish;</p> <p>Amaliy san'at asarlari-ni faollash, me'morchi-likda qo'llash;</p>
Natajalarning tahlili va o'zgarishlar kiritish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yangi texnologiyalardan foydalanish: ya'ni darsda ijodiy ishlash va guruhlar bilan ishlashga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish; 2. O'quvchilar bilimni shakllantirishga qaratilgan usullarni kiritish. 	

2. Mavzu	Miniatyura maktablari va nomoyondalari	
Maqsad va vazifalar	<p>O'qituvchi uchun:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Miniatyura san'at maktablari va ustalari bilan tanishtirish. 2. "Ustoz va shogird" kabi milliy an'alarimizni ilg'or uslublari haqida ma'lumot berish. 3. O'quvchilarda ijodiy mehnat va ulug'vor badiiy asarlar yaratish ko'nikmalarini shakllantirish. 	<p>Talaba uchun:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Miniatyura san'at maktablari va ustalari bilan tanishish va o'rganish. 2. "Ustoz va shogird" kabi milliy an'alarimizni ilg'or uslublarini o'zlashtirish va rivojlantirish. 3. O'quvchilar o'z ustida ijodiy izlanish va badiiy asarlar yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi.
O'quv mashg'ulotining mazmuni	<ol style="list-style-type: none"> 1. SHarq miniatyura san'ati maktablari va ustalari ijodini o'rganish. 2. Miniatyura san'atining "Ustoz va shogird" kabi milliy an'alarimizni rivojlantirish. 3. O'quvchilar o'z ustida badiiy, ijodiy izlanishga yo'naltirish. 	
O'quv mashg'ulotining texnologiyasi	<ul style="list-style-type: none"> - metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, muammoli o'qitish. - shakllar: amaliy (kichik guruhda). - usullar: kompyuter axborot taqdimoti namoyishi usuli. - vositalar: adabiyot va albomlar, ijodiy materiallar. - nazorat qilish: savol-javob. - baholash: faol ishtirok uchun J.N.-3b. (reyting asosida) 	
Kutiladigan natijalar	<p>O'qituvchi uchun:</p> <p>Darsning maqsadiga erishish; O'quvchining mavzu haqida to'liq ma'lumot etkazib berish; O'quvchilarni mustaqil izlanish va ijod qilish ko'nikmalarini hosil qilish;</p>	<p>Talaba uchun:</p> <p>Miniatyura san'at maktablari va uning namoyondalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish; Amaliy san'atning "Ustoz va shogird" kabi milliy an'alarimizni o'rganish va rivojlantirish</p>
Natajalarning tahlili va o'zgarishlar kiritish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Darsda hamkorlikda ijodiy ishlash va guruhlar bilan ishlashga yo'naltirilgan texnologiyalardan samarali foydalanish; 2. O'quvchilar bilimini shakllantirishga qaratilgan usullarni kiritish. 	

3. Mavzu	“Namoyon” miniatyura naqsh kompozitsiyasini ichizish va ranglash	
Maqsad va vazifalar	O‘quvchilarning “Namoyon” miniatyura naqsh kompozitsiyasini bajarishdagi bilimlarini kengaytirish; Mavzuga oid materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirish olishlariga erishish, baholash;	
O‘quv mashg‘ulotining mazmuni	Fransiyada “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va uni amalga oshirish jarayoni. Germaniyada ta’lim – tarbiya jarayonlarining olib borilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Angliyada ta’lim – tarbiya masalalari va uni boshqarish qonuniyatlari.	
O‘quv mashg‘ulotining texnologiyasi	<ul style="list-style-type: none"> - metodlar: “FSMU” texnologiyasi. - shakllar: seminar mashg‘uloti, kichik guruhlarda, jamoada, 80 min. usullar: tuShuntirish, nutq usuli. - vositalar: tarqatma materiallar. - nazorat qilish: kuzatish, savol berish. - baholash: reyting. 	
Kutiladigan natijalar	O‘qituvchi uchun: O‘quvchilarda mavzu yuzasidan bilimlari mustahkamlanadi. Baholanadi.	Talaba uchun: Mavzu yuzasidan zaruriy bilimlar chuqurlashtiriladi.

Muammoli ta’lim – amaliy dars jarayonini takomillashtirish omili.

Uzoq yillik kuzatishlardan ma’lumki, aksariyat holatda besh yilgacha pedagogik stajga ega bo‘lgan yosh pedagog dars jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lmaydilar. O‘quvchilarda aqliy va amaliy faoliyat usullarini shakllantirish bo‘yicha ustozning maqsadiga muvofiq yo‘naltirilgan ishi natijasida talabalarning vaqtini ancha kam sarflangan holda ular bilimlarining sifatini oshirishga yordam berishlarini ko‘rsatadi. Zamonaviy usullaridan foydalanish yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Aslida muammoli ta’lim tushunchasi yangi tuShuncha emas, ammo u mavzuning mazmunini talaba ongiga etkazish va ularni o‘ylashga undash, fikrlash qobiliyatlarini rivojlanirishda ta’lim berishning yangilangan variantlaridan

foydalanadi. Masalan ... suhbat, talabalar aytgan taxminlarning ilmiy asoslangan nazariyasiga mos kelishini tekshirish usullari orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog dars jarayonida muammoli ta'lim usulini qo'llash uchun, avvalo, quyidagi ketma – ketlikni aniq bilib olish zarur ... muammo qo'yish, muammoni xarakterlovchi sharoitlarni o'rganish, qo'yilgan muammoni hal qilish, topilgan echimni to'g'riligini asoslash, muammoni echimini izlash va hal qilish jarayonida paydo bo'lgan yangi bilimlarni anglash. Fikrimizni asoslash uchun muammoli dars sifatida naqshning pardozi targ'il tortish usuli mavzusini keltiramiz.

Muammo ... mzyqalamni to'g'ri ushlash, bo'yoqlarni tanlash va tayyorlash, gul va barglardagi targ'il yo'nalishini qaysi usulda tortilishini aniqlang.

Qarorlarni qabul qilishda “Qarorlar shajarasi” metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Metod quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi. Talabalar 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratiladi. Ustoz mashg'ulot boshlanishidan oldin manzara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. G;uruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror) yozish uchun plaktni tayyorlaydi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi. Mentodning o'ziga xos jihati Shundan iboratki, bu metod bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi.

Mazkur loyiha quyidagi ko'rinishga ega.

“Qarorlar shajarasi” metodi		
Umumiy muammo... Targ'il tortish usuli		
1-variant	2-variant	3-variant
afzalligi kamchiligi	afzalligi kamchiligi	afzalligi kamchiligi
Qaror ...		

Guruhlar muammoning afzalligi, kamchiligi haqida o'z qarorlari borasida axborot beradilar. Guruhlar tomonidan bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar. Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug'ilgudek

bo'lsa, jvoblar qaytariladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, ustoz buning sababini izohlydi. Olingan bilim, ko'nikma va malakalarni guruhlar orasida amaliy bajarib g'olib guruh aniqlanadi.

Umumiy muammo

- Targ'ilni qaysi bo'yoq turida (suv bo'yoq yoki moy bo'yoq) tortish muammosi.
- Qog'ozga tortiladigan targ'il muammosi.
- Buyumga tortiladigan targ'il muammosi.
- Devorga tortiladigan targ'il muammosi.
- SHift (patalokka) tortiladigan targ'il muammosi.
- Men mashg'ulotlarimiz jarayonida ko'proq "Aqliy hujum" metodidan foydalandim va bir necha qoidalarga amal qildim. Bular ichida:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir talaba tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar rag'batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi – yangi fikr yoki g'oyalarning yaratilishiga olib keladi.

3. Har bir tlab o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalariga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr g'oyalarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida talabalarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad, talabalarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga o'rgatish (rag'batlantirish) ekanligini e'tiboran chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu metoddan men samarali foydalandim va o'zimga qo'ygan maqsad va vazifalarimga erishdim.

“Mo‘jizalar maydonchasi” savolnomasi sakkiz qirrali, iliq rangli, asosan islamiy naqshlardan tashkil topgan xontaxta. Sakkiz qirraligi amaliy san’atning ko‘pqirraligini bildirsa, rangi – iymon butunligi, ulug‘lik, valiylik ramzi, tabiatni, onarni bildiruvchi, koinot cheksizligi, tinchlik, yomon ko‘zdan asrash ramzi ekanligini anglatadi. Islamiy naqshlar – ona tabiatning go‘zalligini, insonning kun va tunning, vaqtning o‘tishini har daqiqa g‘animatligini, insonning hayot chizig‘i notekisligini bildiradi. Ustozim bu borada “Inson umri davomida ziyo orqali ruhiy poklikka erishadi, so‘ngra u komillik darajasiga etadi” falsafiy g‘oyalari talaba yoshlarni bilim olishlariga undaydi. “Mo‘jizalar maydonchasi” qo‘llashda “6X6X6” metodidan foydalanish qulay. Bu metod guruhlarning har bir a‘zosini faol bo‘lishiga undaydi. Ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etishini ta‘minlaydi., guruhlarning boshqa a‘zolarini fikrlarini tinglay olish ko‘nikmalarini hosil qiladi, ilgari surilayotgan bir necha fikrlar umumlashtira olish va o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi. Ushbu metod 5,6,7 va hatto 8 nafar talabadan iborat bo‘ladi. Ustoz mashg‘ulot boshlanishidan oldin 6ta stol atrofiga 6ta stul qo‘yib chiqadi. Guruhlar soniga qarab yuqorida ta‘kidlagandek 6 guruhga bo‘linadilar. Hozirda amaliy san’atda fan sifatida saboq berib kelinayotgan amaliy san’at turlaridan (Miniatyura, o‘ymakorlik, zarduzlik, kashtachilik, kulolchilik, dizayn xom ashyo va asboblari stol ustiga quyib chiqiladi. Talabalar joylashgandan so‘ng “Mo‘jizalar maydonchasi” savolnomalaridan foydalangan holda mashg‘ulot boshlanadi. 6ta guruhga savollar Miniatyura fani misolida beriladi. Birinchi savol nazariy Miniatyurada ramziylik. Har bir guruh o‘zining ramziy ma’nosini ifodalab beradi. Misol uchun zarduzlik guruhi zarduzlik ramziy ma’nosini ifodalasa, kulolchilik guruhi kulolchilik ramziy ma’nosini ifodalab beradi. Shu tariqa har bir guruh o‘z ramziy ma’nosini ifodalaydi. Birinchi savoldan so‘ng guruhlar joy almashishadilar. O‘quvchilar boshqa guruhdan joy tanlab o‘tiradilar. Qoidasi shundaki, guruh talabalarining har biri alohida alohida guruhlardan joy tanlashlari lozim. Ikkinchi savol amaliy. Har bir guruh o‘z ramziy ma’nolarini amaliy bajarib berishlari lozim. Misol uchun kashtachilik guruhi to‘kinchilik, ezgulik ramzini bildiruvchi anorni kashta usulida bajarib beradilar. Har bir guruh amaliy mashg‘ulotdan so‘ng yana joy

almashishadilar. Shu tariqa har bir talaba 6ta stulga o‘tirib amaliy san’at turlarini barchasidan xabardor bo‘ladilar engil o‘zlashtiradilar.

“6X6X6” metodidan ta’lim jarayonida foydalanish ustozdan faollik, pedagogik mahorat, Shuningdek guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo‘lishni talab qiladi. “Mo‘jizalar maydonchasi” savolnomasini amaliy san’at darslarida pedagogik texnologiyaning barcha metodlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda bitiruv malakaviy ishimni universitetda to‘rt yil mobaynida to‘plagan bilim va tajribalarimga suyangan holda yaratdim. Olgan bilim va malakalarimni kelajakda ish faoliyatim jarayonlarida keng ommaga namoish etgan holda ularni yosh avlod tarbiyasida qo‘llayman. Menga to‘rt yil mobaynida bilim va ta’lim bergan ustozlarimga o‘zimning cheksiz minnaddorligimni bildiraman.

Xulosa.

Men, 5140900 – Kasb ta’limi (5211200 – amaliy san’at) ta’lim yo‘nalishi AS - 402 guruh talabasi Ruzimov Xamdani bitiruv malakaviy ishim, Kasb-hunar kollejlari sovg‘a buyumlarini miniatyura kompozitsiyasi bilan bezash mavzusida bo‘lib, uning kirish qismida, bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishning maqsadi, bitiruv malakaviy ishning ob’ekti, bitiruv malakaviy ishning predmeti, bitiruv malakaviy ishning vazifalari va bitiruv malakaviy ish metodlari kabi talablardan tashkil topgan. Undan so‘ng, Kirish, Birinchi bob. Miniatyura kompozitsiya asoslari mavzusida bo‘lib, u 1.1. Kasb-hunar kollejlari miniatyura darslarida kompozitsiya asoslarini o‘qvchilarga o‘rgatish orqali dars samaradorligini oshirish va 1.2. Kasb-hunar kollejlari miniatyura darslarida rangshunoslik haqida ma’lumotlarni o‘qvchilarga o‘rgatish kabi mavzudagi bandlardan iborat. Ikkinchi bob. Sharq miniatyura maktablari va uning namoyondalari mavzusida bo‘lib, u 2.1. Kasb-hunar kollejlari miniatyura darslarida xiroq miniatyura maktabi va behzod ijodi haqida ma’lumotlar berish va 2.2. Kasb-hunar kollejlari miniatyura darslarida tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash metodikasi kabi mavzulardan tashkil topgan. Uchinchi bob. Sovg‘a buyumlari: to‘r, tomosha qovoq va qutichalarni badiiy bezash mavzusida bo‘lib, u 3.1. Kasb-hunar kollejlari sovg‘a buyumlarini miniatyura kompozitsiyasi bilan bezash texnologiyasi va 3.2. Kasb-hunar kollejlari sovg‘a buyumlarini miniatyura kompozitsiyasi bilan bezash mavzui bo‘yicha tajriba sinov ishlari kabi mavzulardan iborat. Undan tashqari xulosada bitiruv malakaviy ishning mazmuni, Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatdagi adabiyotlarni barchasini o‘qib ulgurmagani bo‘lsamda ularning asosiy mazmuni bilan tanishib chiqdim va bitiruv malakaviy ishida Islom Abdug‘anievich Karimovning Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T: Ma’naviyat, 2008. S. Bulatov, M. Pulatova. Philosophy of space in beauty Monografiya “Iqtisod - Moliya”. 2013 y. Sulaymon X., Sulaymonova F. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar. Toshkent “Fan” nashriyoti. 1992 yil. Shoyoqubov Sh.K. Zamonaviy O‘zbekiston miniatyurasi. Toshkent.

“O‘zbekiston” nashriyoti 2006 yil. Shabaratov P.P. Lakli miniatyura “Kompozitsiya” T: “Yangi asr avlodi” 2007 Shabaratov P.P. Miniatyura T: “Tafakkur” - 2013. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.1-2.-T., O‘zMU nashriyoti, 2000-2001y. 1991-2014 yillarda chob etilgan adabiyotlar, jurnallar va Elektron ta’lim resurslaridandan ijodiy foydalandim.

Ilovalarda: 1-ilova. Elektron ta’lim resurslaridandan, inglizcha va o‘zbekcha lug‘ot sahifalarini yozib oldim. 2-ilova. Bitiruv malakaviy ishi mavzulariga oid “Atamalarining izohli lug‘ati”ni Patxiddin aka Shabaratovdan va oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darsliklardan hamda boshqa adabiyottdan ijodiy foydalandim. 3-ilova. Mavzulariga oid rasmlarda, bitiruv malakaviy ishi mavzulariga oid turli suratlar, reprodaksiyalar, rangli fotosuratlar berilgan.

Xulosa qilib aytganda men to‘rt yil mobaynida bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olgan ustozlarimga o‘z minnaddorchiligimni bildiraman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 1992.
2. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atni yanada rivojlantirish- ning davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'irisida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 mart farmoni "Xalq so'zi" gazetasi. –T. 1997 yil 1 aprel.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1998.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq, 1999.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
7. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi, 2006.
8. Akilova K. B. Narodnoe dekorativno- prikladnoe iskusstvo
9. S.S.Bulatov, P.P. Shabaratov. "Naqqoshlik" "Iqtisod-Moliya" – 2010.
10. S.S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy be'zak san'ati. Toshkent.1991.
11. Sulaymon X., Sulaymonova F. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar. Toshkent "Fan" nashriyoti. 1992.
12. Sulaymon X., Sulaymonova F. Nizomiy «Xamsa» siga ishlangan rasmlar. Toshkent "Fan" nashriyoti. 1995.
13. Shoyoqubov Sh.K. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti 2006
14. Shabaratov P.P. "Miniatyura" maruzalar matni. Toshkent Nizomiy nomli TDPU. 2000 yil.
15. Shabaratov P.P. Lakli miniatyura "Kompozitsiya" T: "Yangi asr avlodi" 2007
16. Shabaratov P.P. Miniatyura T: "Tafakkur" - 2013.
17. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.1-2.-T., O'zMU nashriyoti, 2000- 2001
18. Hamdamov R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. – T., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTERNET.Ped

1-ilova. Inglizcha va o'zbekcha lug'ot.

1.	ability	iqtidor, iste'dod
2.	academic	o'quv, akademik, nazariy
3.	academic adviser	maslahatchi, konsultant
4.	academic attainment academic achievement	akademik o'zlashtirish
5.	career choice	kasb tanlash
6.	career diploma	mutaxassislik bo'yicha diplom
7.	chart	grafik, jadval
8.	class teacher/form teacher	sinf/ guruh raxbar
9.	cognitive development	aqliy rivojlanish
10.	college of education	pedagogik kolledj
11.	compulsory education	majburiy ta'lim
12.	early childhood education	maktabgacha ta'lim
13.	education	ta'lim
14.	educational institution	ta'lim muassasasi
15.	educational process	ta'lim jarayoni
16.	educational program(me)	ta'lim dasturi
17.	educator	o'qituvchi, tarbiyachi
18.	elementary education	boshlang'ich ta'lim
19.	grading scale	baholash mezoni
20.	highly trained specialists	yuqori malakali mutaxassislar
21.	habit	ko'nikma
22.	handout	tarqatma material
23.	innovation in education	innovatsion ta'lim
24.	instructional technology	o'qitish texnologiyasi
25.	intellect	intellekt, aql, zakovat
26.	intellectual development	ma'naviy rivojlanish
27.	judgement	mulohaza, baho
28.	library	kutubxona
29.	lyceum	litsey
30.	manuscript	qo'lyozma
31.	memory	xotira
32.	mental ability	aqliy qobiliyat
33.	methodology	metodika
34.	monitor	sinf sardori
35.	moral education	axloqiy tarbiya
36.	motivation	motivatsiya
37.	music school	musiqiy maktab
38.	pedagogy/pedagogics	pedagogika
39.	period	akademik soat
40.	personal development	shaxsni rivojlanishi

2-ILOVA. ATAMALARINING IZOHLI LUG‘ATI.

Abrband	-atlas va shoyining tanda ipiga maxsus usulda gul (naqsh) chizib, bo‘yab beruvchi usta.
Abris	-chegara chiziq.
Abstrakt san‘at	-(lot. abstractus - mavhum so‘zidan olingan) abstraksionizm rangtasvir, miniatyuta, haykaltaroshlik va grafikada aniq, real predmetlar tasviridan voz kechuvchi modernistik oqim. Abstrakt san‘at 1910-13 yillarda kubizm, ekspressionizm va futurizmning bo‘linib borishi jarayonida vujudga kelgan. Bu yunalishda V.V.Kandinskiy, R.Delone, F.Pikabiya, F.Kupka, M.F.Larionov va boshqalar ijod qilishgan.
Avangardizm	-(Fr.avant-gardisme-avant-garde-ilg‘or otryad so‘zidan olingan) XX asr rassomlarining qiziqishlarini birlashtiruvchi badiiy harakatning shartli nomlanishidir. Avangard rassomlar an‘anaviy bo‘lgan yo‘nalishlar va uslublarni tanqid qilgan holda, san‘atni mazmun va shakl jihatidan tubdan yangilashga intiladilar.
Avtolitografiya	-rassom o‘z asarini toshbosma usulida ishlashi.
Avtogravyura	-(yunoncha autos-o‘zim va gravyura so‘zidan olingan) rassom o‘zi bajargan gravyura.
Avtoportret	-rassomning o‘zi tarafdin bajargan portreti (1 yoki bir necha oynalar yordamida ishlanadi).
Akademizm	-(fr.academisme so‘zidan olingan) XVI-XIX asr Badiiy akademiyalarida vujudga kelgan va mutoz san‘atning tashqi formalariga qat‘iy ergashishga asoslangan yo‘nalish. Akademizm badiiy ta‘limotni tizimga solib, mumtoz an‘analarni mustahkamlashga yordam beradi.
Akvarel	-(fr.aquarelle, ital.Aquerello, lot.aqua-suv so‘zidan olingan) suv bo‘yoq (odatda o‘simlik elimidan tayyorlanadi).
Allegoriya	-(yunon.allegoria-shama, istehzo so‘zidan olingan) mavhum, o‘ylab chiqarilgan g‘oya, fikrning san‘atda aniq obraz orqali ko‘rsatilishi. Masalan, kabutar ushlagan figurag‘tinchlik allegoriyasi, qo‘lida tarozi ushlagan va ko‘zlari bog‘langan ayol figurasi-Odil sud allegoriyasi va hakozi.
Alfresko	-devoriy rasm ishlash usullaridan bir turi (bu usul

	devoriy rasmni ohak zamin qurimasidan, namligida ishlashni talab qiladi).
Angob	-sopol ustiga surtiladigan pardozi bo‘yoq‘i, ko‘pincha qizil kesakdan tayyorlanadi.
Anorgul	-anor ko‘rinishidagi naqsh turi. Ko‘pincha kulolchilik, kashtado‘zlik, Miniaturada ishlatiladi.
Animalistik janr	-(lot.anima-hayvon, jonivor so‘zidan olingan) hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san‘at turi.
Anilin	-nilbo‘yoq (bo‘yoq moddalarini tayyorlash uchun ishlatiladigan rangsiz, yog‘li va zaharli suyuq modda).
Arabcha naqsh	-arabiy naqsh. Evropada jimjimador naqshni Shunday deyishgan.
Axta I	-qog‘ozga chizilgan naqshning chiziq yo‘llari igna yordamida teshib, kashtachilik, o‘ymakorlik, Miniatura, ganchkorlik va Shu kabi xalq amaliy san‘ati turlarida naqshni yuzaga ko‘chirishda ishlatiladi.
Axta II	-Xitoy qog‘ozi.
Axromatik rang	-yunoncha “rangsiz” degan ma‘noni bildirib, ular bir-biridan qabul qiladigan yoki tariqatadigan yorug‘lik kuchi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora rangdan yorug‘lik kuchi bilan farq qiladi.
Asosiy rang	-tabiatda uchraydigan sariq, qizil, ko‘k ranglar. Shu ranglarning bir-biriga qo‘shilishi natijasida boshqa ranglar hosil bo‘ladi.
Badiiylik	-borliqni, inson va uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o‘zaro o‘xshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.
Badiiy uslub	-san‘atda qo‘llaniladigan usul.
Bandi Rumi	-bir bandlik o‘simlik ko‘rinishlaridan olingan naqsh turi.
Banoras	-ingichka qora chiziqlar o‘tgan kumush rangdagi qalin mato. Tandasi ip qo‘shilgan ipakdan, arqog‘i ipdan.
Batik	-gul solish uslubi va Shu uslubda tayyorlangan ko‘p rangli mato. Matodagi gul yupqa qavatli mum bilan qoplanib, bo‘yoqqa botiriladi. Natijada matoning mum bilan qoplanmagan joylari bo‘yaladi. Batik uslubi qadimdan Indoneziya, Hindiston, Afrika xalqlari orasida ma‘lumdir.
Bag‘dodi	-badiiy yog‘och o‘ymakorligi usullaridan biri. 1. eshik, sandiqlarni bezashda ishlatiladi. 2. geometrik (girix) shakllardan tuzilgan naqsh turi. 3. eshik turi.

Beqasab (beqasam)	-tandasi ipakdan, arqog‘i ipdan to‘qilgan yo‘l-yo‘l mato. Asosan ustki kiyim (to‘n) tikishda qo‘llaniladi.
Bulbul ko‘zi	-Urgutning tasma, jiyaklaridagi naqsh ko‘rinishi.
Vinetka	-naqshin hoshiya, bezak, naqsh.
Girdob	-aylana naqsh ko‘rinishi: turli xil naqsh elementlaridan tuzilishi mumkin.
Girih	-geometrik shakllardan tuzilgan murakkab naqsh turi.
Grotesk	- (fransuzcha grotesque, italyancha grottesco-g‘aroyib, g‘alati) 1. o‘simlik, jonivor va insonlarning afsonaviy tasvirlari ko‘rinishidagi naqsh; 2. adabiyot, san‘at va teatrda insonlar va narsalarning fantastik tarzda qing‘ir-qiyshiq qilib kulgili tarzda yaratilgan tasvirlari; 3. bosmaxona harflarining bir turi.
Guash	-(fransuzcha gouach. bnfkzyxf guazzo- suv, bo‘yoq)tarkibida suv elim bog‘lovchisi bo‘lgan ezilgan pigment, gumiarabik, bug‘doy kraxmali,dekstrin va boshqalar va belila aralashmasidan iborat bo‘lgan, suv bilan ishlanadigan bo‘yoqlar. Amaliy bezak san‘ati va rangtasvirda keng qo‘llaniladi
Guli tovus	kulolchilikda uch yo‘nalishli ruta islimiy naqsh. Miniatyura, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kabi xalq amaliy san‘ati turlarida keng qo‘llaniladi.
Guli shashbarg	islimiy (o‘simliksimon) naqsh turlaridan biri.
Guli quyosh	xalq amaliy san‘atida qo‘llaniladigan, uslublashtirilgan kungaboqar guli ko‘rinishidagi naqsh turi.
Gulqalam	1) Miniatyura – naqshlarni chizishda ishlatiladigan yumshoq muyqalam turi. Gulqalam olmaxon, suvsar, bo‘rsiq singari hayvonlarning yungidan tayyorlangan bo‘lib, qo‘llanishga qarab uch turga bo‘linadi; 2) pichoqchilikda qo‘llaniladigan bigizsimon asbob.
Diptix	(yunoncha diptychos – ikkitalik, ikkiga taxlangan), 1) rangtasvir yoki bo‘rtma tasvirli, ikki tabaqali bukilma; 2) umumiy bir g‘oya bilan bog‘langan ikkita kartina.
Dizayn	kundalik hayot, maishiy turmushda ishlatiladigan jihozlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovoq, mebel va Shunga o‘xshash narsalarni qulay holda chiroyli shakl beradigan rangni yaratish san‘ati.
Janr	san‘at asarlari turi. Ba’zida hayot lavhalarini tasvirlovchi asar demakdir.
Zebigardon	bo‘yinga taqiladigan ayollar taqinchog‘i.
Zirk guli	chiroyli gul shaklida islimiy naqsh turi.
Ilyustratsiya	(lotincha illustration yoritmani, aniq tasvir) biror-bir

	tekisni to'ldirib boruvchi, yorituvchi, mazmunini tuShunishda yordam beruvchi tasvir (qalamtasvir, gravyura, fotosurat, reproduksiya va hokazo;) badiiy va ilmiy asarlarning tasviriy izohi, talqini.
Iliq rang	olovni, quyoshni, chiroq yorig'ini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq, malla kabi ranglar.
Islimiy Kitoba	o'simlik simon elementlardan tuzilgan naqsh turi. bezak kompozitsiyasi ichida qo'llaniladigan chiroyli yozuv.
Lavh Madohil	kitobni ochib qo'yish uchun ishlangan maxsus taglik xalq amaliy san'atida keng tarqalgan lolasimon naqsh turi.
Miniatyura	lotin tilida qizil rangning nomlaridan biri, odatda qo'lyozmaga ishlangan rasmlar shunday nomlangan. Bezak va taqinchoqlarga tushirilgan tasvir, ushoq tasvir deb ham yuritiladi.
Mo'yqalam Naqsh Ofort	rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli. badiiy bezak; (Frans. Eau-forte "Kuchli aroq" ya'ni azot kislotasi so'zidan olingan) metallda ishlangan gravyura turi, Ofort ishlashda bosma qoliblar metallni kislota bilan edirish usulida tayyorlanadi.
Palitra	rasm ishlayotgan paytda rassom bo'yoqlarni qorishtiradigan yupqa moslama, taxtakach
Pigment Repraduksiya	turli bo'yoqlar kukuni. tasviriy san'at asarida chop etilgan nusxa.
San'at	arabcha atama bo'lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi. U tasviriy san'at, amaliy san'at, musiqa, me'morchilik, teatr, kino, badiiy adabiyot, teatr, kino, badiiy adabiyot, televidenieni o'z ichiga oladi.
Stilizatsiya	uslublashtirish, muqallid, narsalar shakl va tuzilishini soddalashtirish
Turunj	amaliy san'at bezagida keng qo'llaniladigan naqsh turi.
Usta	o'z ishini yaxshi biladigan, biror-bir hunar egasi.
Fris	araq, navo.
Xattot	husnixat, chiroyli yozadigan va naqsh ishlaydigan kishi.
Chorsar	to'rtburchak geometrik shakllardan tuzilgan naqsh turi.
Estetika	go'zallik, nafosat haqidagi ilm, fan.
Yakka zanjira	bir yo'llik oddiy zanjira naqsh

3-ILOVA. BITIRUV MALAKAVIY ISHI MAVZULARIGA OID RASMLAR



Afrosiyob. Devoriy rangli tasvir. VI -VII asr




Buxoro. Varaxsha. "Shikor". VI-VII asr



Surxondaryo. Bolaliktepa. "To'y marosimi". VI-VII asr

MINIATYURA KOMPOZITSIYA ASOSLARI.

Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida kompozitsiya asoslarini o'qovchilarga o'rgatish orqali dars samaradorligini oshirish..



MINIATYURA KOMPOZITSIYASIDA SIMMETRIYA VA ASSIMETRIYA.







MINIATYURA KOMPOZITSIYALARIDA MUTANOSIBLIK



MINIATYURA KOMPOZITSIYALARDA USLUBLASHTIRISH




Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida rangshunoslik haqida ma'lumotlarni o'qchilarga o'rgatish




**Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida Xirof miniatyura maktabi
va Behzod ijodi haqida ma'lumotlar berish.**






Kamoliddin Behzod
“Sulton Husayn Boyqaro”.



Kasb-hunar kollejlarning miniatyura darslarida tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash metodikasi.



Kasb-hunar kollejarida sovg'a buyumlarini minatyura kompozitsiyasi bilan bezash texnologiyasi.





**BITIRUV MALAKAVIY ISHI MAVZULARIGA
OID RASMLAR**



**BITIRUV MALAKAVIY ISHI MAVZULARIGA
OID RASMLAR**